

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVIRSITET

Fakultet Tarix
Ixtisoslik Tarix

Mavzu: Sharqiy Turkiston (XXR)
o'zbeklari tarixi va etnografiyasi

Magistratura talabasi: T. B.Xudoyqulov

Ilmiy Rahbar: t.f.d.professor. Sh.A.Hayitov

Buxoro-2017

M u n d a r i j a

Kirish

I Bob. Sharqiy Turkistonga turkistonlik(o'zbek)lar ko'chib o'tishining tarixiy ildizlari.

- 1.1 Rossiya imperiyasi istilosi va undan keyingi davrda Sharqiy Turkistonga turkistonlik(o'zbek)lar ko'chishlari.....
- 1.2 Qo'qon xonligi begi Yoqubbekning Sharqiy Turkistondagi Yettishahar davlati.....
- 1.3 1898-yilgi Andijon qo'zgoloni va milliy ozodlik uchun kurashlar-o'zbek muxojirligining omili sifatida

II Bob. Muxojirlikning mashaqqatli yo'li va Sharqiy Turkiston o'zbeklari etnografiyasi.

- 2.1 Sharqiy Turkistonga o'tish yo'llari va chet el hududlari bo'ylab joylashuv.....
- 2.2 Sharqiy Turkiston o'zbeklarining o'zlikni ,o'zbekona odob-ahloq va milliy urf odatlarni saqlab qolish uchun kurashlari.....

III Bob. Sharqiy Turkistondagi (XXR)dagi o'zbeklarning “Na'muna” o'zbek maktabi o'zbeklar orasidan yetishib chiqqan ziyolilar.

- 3.1 G'uljadagi “Na'muna” maktabi va uning tarixi.....
- 3.2 XXRda ta'lim – tazrbiya olgan o'zbek ziyolilari.....

Xulosa

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yhati

Ilovalar

Kirish

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi.

O'zbekiston Respublikasi istiqlolga erishgandan so'ng O'zbekiston va Jahon tarixini Markscha-lenincha metodologiya, komunistik mafkura sinfiylik nazariyadan butunlay xoli bo'lgan holda o'rganishga kirishildi. Tarixni qanday bo'lsa o'z holiga tadqiq va tahlil qilish masalasi kun tartibiga dolzarb qilib qo'yildi. "O'zlikni anglash tarixdan boshlanadi. Isbottalab bo'lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi kerak¹".- deb yozgandi. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov. Tarixni asl manbalar asosida o'rganish borasida dadil qadamlar qo'yildi va tarixchi olimlar xalqimizning munosib tarixini yaratish yo'lida izchil izlanishlar olib borilmoqda. Maqsad, xalqimizda ushba tahlikali dunyoda tarixiy xotirani tarbiyalashdir. "Ma'naviyatining tiklanishi tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak²"- degan edi birinchi prezidentimiz.

Shuningdek, yoshlarni tarixiy xotira asosida tarbiyalash, ularni xushyorlikka, irodali bo'lishga undaydi. I.A. Karimov: "Men avvalambor yoshlarimizga qarata aytmoqchiman: o'qing, tarixni o'rganing, tarixini o'tmishini bilgan odam kelajakda adashmaydi³"- deb murojaat qilgandilar.

O'zbekiston ko'p millatli mamlakat jannatmakon yurtimizda 137 ta millat, elat va etnik guruh istiqomat qiladi. O'zbekistonga boshqa millatlar tarixining turli bosqichlarida kelib qolishgan. Biroq, aholining 81 foizini o'zbek millati vakillari tashkil qiladi. O'zbekiston taraqqiyoti barcha millatlarning tinch-totuv va hamjihat bo'lib yashashiga ko'p jihatdan bog'liq. Shuning

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T. Sharq 1998;-B.5.

² Karimov I.A. O'sha kitob;-B.9.

³ Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajak yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir.T.:O'zbekiston;-2015.-B.117.

uchun prezidentimiz M.Mirziyoyev: “Respublikamizda istiqomat qiluvchi barcha millat vakillarining konstitutsiyaviy huquqlarini muhofaza etish, ularning madaniyati, urf-odatlarini rivojlanishiga, ona tilida soʻzlashishi va oʻqishiga barcha sharoitlar yaratish uchun **imkoniyatlar** ishga solinadi⁴”- deb taʼkidladilar. Masalaning bir jihati shundaki, Oʻzbekistonda Sharqiy Turkiston tub joy aholisi hisoblangan uygʻur va dunganlar ham Respublikamizda salmoqli foizni tashkil etadi. Men tanlagan magistirlilik dissertatsiyaning dolzarbligi yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadi. Dissertatsiyada birinchilardan boʻlib koʻp asrlik tarixga ega boʻlgan Sharqiy Turkistondagi oʻzbeklar tarixi va **etnografiyasi** yagona bir tadqiqotda ilmiy jihatdan tizimli oʻrganilmoqda. Bu esa, mavzu dolzarbligini oshiradi, shuningdek tadqiqot oldiga muhim vazifalarni dolzarb qilib qoʻyadi.

Tadqiqotning obyekti va predmeti: Sharqiy Turkiston (XXR) oʻzbek (Turkistonlik)lar tarixi va etnografiyasi masalalarini oʻrganish tadqiqot obʼyektini tashkil etadi. Sharqiy Turkiston oʻzbeklari tarixi va etnografiyasi haqida maʼlumot beruvchi hujjatlar, nizom va qoidalar, xotiranomalar, tarixiy kitob hamda maqolalar, ayrim arxiv hujjatlari, shaxsiy muloqot materiallari orqali fikr yuritish dissertatsiyaning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Sharqiy Turkiston (XXR) oʻzbeklari tarixi va etnografiyasi masalalarini ilmiy asosda oʻrganish tadqiqotning maqsadi hisoblanadi. Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib dissertatsiya oʻz oldiga qoʻygan aniq vazifalarni qoʻydi.

- Sharqiy Turkistonga oʻzbek (turkistonlik) lar muhojirligi sabab va olimlarni ochib berish;
- Oʻzbek muhojirligining tarixiy ildizlari va Sharqiy Turkiston shahar hamda viloyatlari boʻylab tarqalish bosqichlarini ilmiy jihatdan oʻrganish.

⁴ Mirziyoyev Sh.M. Millatlararo doʻstlik va hamjihatlik- halqimiz tinchligi va farovonligining muhim omilidir.(Respublika baynalminal madaniyat markazining 25 yilligi munosabati bilan qilingan nutqi)//xalq soʻzi;2017 yil 25 yanvar.

- Muhojir o'zbeklarning Sharqiy Turkistonga muhojirligi jarayonidagi yo'llardagi yo'nalishlar, xorijga ketishdagi qiyinchiliklarni ko'rsatish.
- Sharqiy Turkiston o'zbeklarining milliy til, milliy urf-odat va an'analarini saqlab qolish yo'lidagi faoliyatlarini tadqiq qilish.
- G'ulja, Qoshg'ar, Yorkentdag o'zbek milliy jamoalari, o'zbek maktablari, uyushmalar ziyolilar faoliyatini ko'rsatish
- Sharqiy Turkiston o'zbeklarining dunyo bo'ylab tarqalishi bilan boshqa sabab va omillarni ochib berish
- Tadqiqot so'nggida ma'ruza mavzusini istiqbolda yanada mukammal o'rganishga qaratilgan tavsiya va takliflar ishlab chiqish .

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili.

Sharqiy Turkiston (XXR) dagi o'zbeklar tarixi va etnografiyasi mavzusi magistrlik tadqiqot sifatida tadqiq qilinarkan, o'rganilayotgan ishga oid tadqiqotlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

1. Xorijdagi o'zbeklar tarixi va etnografiyasiga oid umumiy adabiyotlar, maqolalar va risolalar.
2. Sharqiy Turkiston (XXR)da muhojir bo'lgan o'zbeklarning kitob va maqolalari.
3. Dissertatsiya va avtoreferatlar
4. Xorijda chop etilgan ishlar

O'zbekiston istiqlool yillarida bu mustaqillik arafasida “Xorijdagi o'zbeklar” mavzusida yuzlab maqola, risola va kitoblar chop etildiki, ularda Sharqiy Turkistonda tarixning turli bosqichlarida istiqomat qilgan o'zbeklar hayoti va faoliyati ular matbuoti milliy uyushmalariga oid ma'lumotlar ham o'rin olgan . Muammoning umumiy jihatlarini tadqiq qilishga qaratilgan ushbu ishlarda biz o'rganayotgan mavzu alohida tadqiqot ob'ekti sifatida qaralmasada, muxojirlik jarayonlari tahlil qilinadi. Ko'pgina xotira va asarlarda muhojirlikni keltirib chiqargan omillar, ya'ni sovet jamiyatida yuritilgan noinsoniy siyosat va zo'ravonliklar ekanligi ochib berildi. Bunday asarlar sirasiga

M.Q.Abdurashidxonov, D.A. Alimova, SH.Yusupov, F.B. Is'hoqov, Tohir Qahhor, I. To'htaev⁵ kabilarning ishlarini kiritish mumkin. Ushbu asar va maqolalarda Rossiya imperiyasi mustamlaka xukumronligi yillarida (1867-1917 y) sovet hokimiyati davrida (1917-1991 y) davrida muhojirlik kelib chiqish jarayonlari qayd etiladi. Ushbu guruhga kiradigan ikkinchi toifadagi tadqiqotlarda o'zbek muhojirligi tarixiga oid izlanishlar olib borilganligiga guvoh bo'lamiz. Bu o'rinda tarixchi olim SH.A. Haytovning⁶ asar va maqolalarini qayd qilish mumkin. Ushbu sohada uzoq yillardan buyon ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan SH.Hayitov bugunga qadar yakka mualliflikda va muallifdoshlik asosida o'nlab kitoblar hamda ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar chop ettirdi. Uning tadqiqotlarida Sharqiy Turkistondagi o'zbeklar tarixi va etnografiyasiga oid ma'lumotlar ham anchagina salmoqni tashkil etadi.

Sharqiy Turkiston o'zbek muhojirligi markazlaridan biri sifati 1980 yillarga qadar bu mintaqada ko'plab o'zbek ziyolilari va ijodkorlari istiqomat qildilar, ular orasida ulamolar, hatto, siyosiy arboblardan ham bor emish, ushbu kabi insonlardan ham ma'naviy meros saqlangan. Jumladan, Alixon To'ra Sog'uniiy, Zuhridin Mirzo Obid o'g'li Turkistoni, YO.X. Yakvalxo'jaev, Yaqubjon Ayubjon o'g'li (Xo'taniy)⁷ kabilarning xotiralari va badiiy asarlari muhim manba sifatida, tadqiqotimizga xizmat qildi. Yuqorida ism-shariflari zikr qilingan muxojir o'zbeklarning xotira parchalarida va badiiy asarlarida Sharqiy Turkiston o'zbeklari hayotiga, ular o'tgan og'ir, sinovli mashaqqatli yo'lga baho beriladi. Muhojirlikning xo'rliklari, vatansizlik azob-uqubatlari yorqin-lavhalar orqali ochib berilganligi muhimdir.

⁵ Abdurashidxonov M.Q. Jadidchilik tarixidan lavhalar/ T.: sharq;2004 -128b. Alimova D.A, Golobanov A.A O'zbekiston mustabit tuzum davrida:siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlarini -T.: Fan 2000.-70b.; Yusupov sh. Xudoyorxon va Furqat.-T.: Sharq 1995. 96b; Is'hoqov F.B Natsionalnaya politika tsarizma v Turkistane (1867-1917).T.: Fan 1997. Tohir Qahhor Turkistonliklar matbuoti(taslim bo'lmagan millat)// O'zbekiston adabiyoti va san'ati .1992 10 yanvar.To'htayev I. Tangalar tilga kirganda.-T.: Fan;1989 -40b.

⁶ Hayitov Sh, Sobirov A, Legay A. Xorijdagi o'zbeklar .-T.:Fan 1992-112 b. Hayitov Sh,A. O'zbek muhojirligi tarixi(1917-1991).T.: ABU MATBUOT-KONSALT;2008 104-b. Hayitov Sh.A. , Saidov .I.M. Xorijdagi o'zbeklar tarixi va etnografiyasi.Samarqand2015.-104b.

⁷Alixon To'ra So'g'uniiy . Vatan ahllariga deganlarim //O'zbekim (to'plam).T.:1992.-209-220 Shu muallif. Turkiston qay'usi.-T.:Sharq 2003.-240 ;Yakvalxo'jayev Yo.X. qaytar dunyo // Yoshlik;1990 N2 b7-30,N3, b22-32, N4,b16-32 .Shu muallif Vatandin ayri tushmasin yo'ling //O'zbekim 1992-b .104-108; Shu muallif Uch ko'chaning oxiri// Sharq yulduzi;1991.N 12 b-93-116; Yoqubjon Ayubxon o'g'li(Xo'taniy)Umidli yillar.T.: 2008

Magistrlik dissertatsiyani yozishda G. A'zamova va SH.A.

Hayitovlarning dissertatsiyalari va mendan oldingi yillarda o'zbek muhojirligi tarixiga oid yozilgan ayrim magistrlik dissertatsiyalardan⁸ ham foydalandim. Ushbu tadqiqotlarda o'zbek muhojirligi tarixining nazariy-kontseptual masalalari va ayrim mamlakatlardagi o'zbeklar tarixi hamda etnografiyasi muammolari tadqiq qilingan.

O.Akramova o'zbek muhojirligida urush omilini tadqiq qilgan bo'lsa, A. Boltaev o'zining magistrlik dissertatsiyasida muhojir o'zbeklarning o'nlab xorijiy mamlakatlardagi matbuot organlari, milliy uyushmalar faoliyatini ilmiy jihatdan o'rgangan. X. Nafiddinova, I. Tkromov, Z. Ortiqov, M.Yusupovalarning magistrlik dissertatsiyalarida alohida olingan davlatlar tarixi tadqiqi qilingan tadqiqot ishining ayrim qismlarini yozishda menga xorijiy adabiyotlar⁹ va internet ma'lumotlari¹⁰ ham yordam berdi. Hanuzgacha Sharqiy Turkiston o'zbeklari tarixi va etnografiyasi yagona dissertatsiya asosida o'rganilmaganligi mazkur mavzuni alohid tadqiqot sifatida olib o'rganishni taqozo qildi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy yangiligi.

Mazkur magistrlik dissertatsiyada ilk bor Sharqiy Turkiston (XXR ning Shinjong muxtor rayoni)dagi o'zbeklar tarixi va etnografiyasi masalalari yaxlit holda nisbatan ilmiy jihatdan o'rganildi.

Tadqiqotda O'rta Osiyo muhojirligi tarixida yaqin chegaralarda joylashgan Sharqiy Turkistonga o'zbek (Turkistonliklar) o'tmishining tarixiy ildizlari uzoq davrlarga borib taqalishi isbot qilindi. O'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, qoraqalpoqlarning xonliklar davrida turli omillar tuafyli Sharqiy

⁸ A'zamova G.A. Xorijdagi o'zbeklar:ijtimoiy---siyosiy va huquqiy muammolar. Falsafa fan. nomz. Olish uchun diss...T.:1995.-116bet Hayitov Sh.A. XX Asr O'zbek muhojirligi tarixi., Tarix fan. dok. Ilm. dara. Diss...T.: 2009.284bet

⁹ Ahat Andisen.Jedidizimden bagimsizligiga Turkistan Mukadelisi. Birinci baski ; Istanbul 2003.-942 S. Huseyin Jkram han Bir Turbistanlinin 2 Dunya savasi haturalari Bedir ;Istanbul ;1999.-246-S. Baymirza Hayit Basmacilar Turkistan Miliy Mukadeli Tarihi (1917-1934)-Angara .1997.- 246S.

¹⁰WWW.e-tarix.uz;WWW12.uz.

Turkiston yerlariga qochib ko'chib o'tishlari yo'l yo'nalishlari tahlil qilindi. Muhojirlik jarayonidagi qiyinchilik va to'siqlar bilan bog'liq raqam va dalillar ilmiy muomalaga kiritilishi orqali tegishli ilmiy –nazariy yangi xulosalarga kelindi.

Tarixiy izchillikda Sharqiy Turkistonga o'zbek muhojirligi bosqichlari tadqiq qilindi. Rossiya imperiyasi mustamlakasi davrida , sovet hokimiyati yillarida vaqt-qaqti bilan yuz bergan qo'zg'alonlar, qatag'onlar, ijtimoiy diskriminatsiya siyosati, tinchlik printsipining joriy etilishi omillari tuafyli muhojirlar soni oshib borishi dinamikasi ochib berilganligi xam ishning ilmiy-nazariy yangiligini tashkil etadi. Shuningdek, Sharqiy Turkistonga muhojirlikning avj olishida geografiya va diniy omil xalqlar o'rtasidagi azaliy – madaniy va savdo –sotiq aloqalari ,til, urf-odatlardagi yaqinliklar ham turdosh bo'lganligini yangilik sifatida ko'rsatish mumkin.

Sharqiy Turkiston o'zbeklarida o'zlikni saqlab qolish, o'zbek tili va milliy mentalitet uchun kurashlar bilan bog'liq misollar tarixiy izchillikda oshirildi. Sharqiy Turkiston o'zbeklarining milliy uyushmalari va matbuot oraganlari, ularning faoliyat doirasi o'rganilganligi ham dissertatsiya ilmiy-nazariy yangiligi bo'la oladi.

Dissertattsiyaning ilmiy amaliy axamiyati.

Tadqiqot natijasida to'plangan va unda keltirilgan raqam hamda dalillardan “O'zbekiston tarixi”, “O'zbekistonning xalqaro munosabatlari tarixi” kabi fanlardan o'quv qo'llanma, fundamental asar va monografiyalar yaratishda foydalanish mumkin. Shuningdek dissertattsiya materiallari oliy o'quv yurtlaridagi ijtimoiy- gumanitar ixtisosliklaridagi talabalarga maxsus kurs maxsus seminarlar o'tishda yordam beradi. Tadqiqot materiallarida muassasa va tashkilotlarda ma'naviy-ma'rifiy darslarni o'tishda foydalanish samarali natijalar beradi.

Tadqiqotning joriylanishi: Dissertatsiya mavzusi Buxoro Davlat universiteti “tarix” kafedrası yig'ilishida va universitet ilmiy texnik kengashida muxokama qilinib, tasdiqlangan. Tadqiqot materiallarini targ'ib qilish maqsadida Buxoro Muhandislik Texnologiya Instituti (BMTI) huzuridagi 1– son Akademiya litseyda maxsus ma'ruzalar qilingan va tarix darslari jarayonida foydalanilgan.

Dissertatsiya yuzasidan Respublika va Universitet miqyosidagi ilmiy-nazariy va ilmiy amaliy anjumanlarda ma'ruzalar qilingan. Dissertantni ilmiy anjuman tupamlariga ikkita maqolasi chop etilgan.

Dissertatsiyaning nazariy metodologik asosi.

Tadqiqotda ilmiy izlanishlar olib borishning tarixiy –xronologik izchillik, analiz va sintez, ob'ektivlik va xolisonalik, sinegretik, sinxronik, sivilizatsion yondoshuv metodlaridan foydalanib ish ko'rildi. Dissertant milliy istiqlol mafkurasi va milliy manfaatlar nuqtai nazaridan kelib chiqib, voqealar tafsilotini haqqoniy yoritishga harakat qildi. Ishning nazariy –metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimov asar va nutqlari , shuningdek, prezidentimiz SH.M. Mirziyoev nutq va qarorlarida, farmonlarida ilgari surilayotgan, mamlakatimiz rivojlanishining kontseptual asoslariga qaratilgan g'oyalar tashkil etadi. Dissertant o'zbek o'zbek davlatchilik tarixi masalalriga hamda tarixni o'rganishga qartilgan yangi metodologik yondoshuvlarni ilgari surgan tarixchi olimlardan D.A.Alimova, R.M. Abdullaev, SH.A. Xayitov, X.K. Rajabov, R. Shamsutdinov, D.X. Ziyaeva kabilarning tadqiqotlariga tayandi. Ushbu olimlar ilgari surgan g'oya va ilmiy xulosalar nazariy-metodologik jihatdan ishdagi ilmiy bazani mustahkamlaydi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi:

Magistrlik dissertatsiyam kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar hamda ilovalar kabi qismlardan iborat. Dissertatsiyaning umumiyhajmi ilovalarsiz komp`yuterga chiqarilgan.... betni tashkil etadi.

I Bob. Sharqiy Turkistonga turkistonlik(o'zbek)lar ko'chib o'tishining tarixiy ildizlari.

I.1. Rossiya imperiyasi istilosi va undan keyingi davrda Sharqiy Turkistonga turkistonlik(o'zbek)lar ko'chishlari.

Rossiya imperiyasi Turkistonni istilo qilgandan so'ng harbiy –ma'muriy boshqaruv tartibini joriy qildi: Turkiston general- gubernatorligi (1867-1917 yy) tarkibida beshta viloyat: Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona, Yettisuv, Kaspiyorti kabilar tashkil etilib, viloyatlarni harbiy gubernatorlar boshqarardi. Mustamlakachilar mahalliy aholini asoratda saqlash maqsadida buyuk davlatchilik siyosatini izchillik bilan yuritdilar. Farg'ona va Yettisuv viloyatlari Sharqiy Turkiston (Xitoy) hududlari bilan chegaradosh bo'lib, XIX asrning ikkinchi yarmidan turli sabablar tufayli ushbu viloyatlarning aholisi qo'shni davlat chegaralariga qochib o'tganlar.

Mazkur bo'limda mavjud materiallar orqali Sharqiy Turkiston masalasi ustida fikr yuritmoqchimiz.

Turkiston general-gubernatorligining Farg'ona viloyatidan Xitoyning Shin-jong –Uyg'ur muxtor rayoniga qarashli G'ulja yoki Qoshg'ar shaharlariga O'sh (Qirg'iziston) shahridan sharqda “Ergashtom” dovoni orqali o'tilardi. Rossiya hukumati 1887 yildan boshlab Qoshg'ar orqali nazorat qilishni o'z qo'lga oldi. 1889 yilda esa ruslar Ergashtomda ham nazoratni yo'lga qo'yib, bu yerda rus garnizonini joylashtirishdi. G'uljada maxsus rus vakolatxonasi tashkil etildi¹¹.

Yettisuv viloyati bilan Sharqiy Turkistonni azaldan Pishpak-Qoshg'ar (689 km); Pishpak-G'ulja (854 km); Zaysan-Sarsumba (256 km); Simay-Chunguchak (640 km); Zaysan-Chunguchak (256 km) kabi quruqlik savdo yo'llari va Ili hamda Qara Irtish daryolari orqali o'tgan suv yo'llari bog'lab

¹¹ Hayitov Sh . Hayitova Sh. Turkiston qochoqlari masalasiga doir// Tafakkur. T.: 2012.-b 18

turardi. Xitoy chegaralariga yetib borish uchun mashaaqqatli yo'l azoblariga duchor bo'lingan Beloshuv dovonidan o'tishga to'g'ri kelardi.

Sharqiy Turkistonda Qo'qon beklaridan biri Yoqubbekning (1820-1877 yy, 1865-1877 yy) Yettishahar davlati mavjud bo'lib turgan vaqtda o'n minglab turkistonliklar uning panohiga qochib borishgan. Yettishahar davlati qulatilganidan so'ng Xitoy harbiylari ta'qibidan qochib Yettisuv viloyatiga hatto ming-minglab dungan va uyg'urlar ham qochib o'tishgan.

Arxiv hujjatlarida Rossiya ma'murlari Yettisuv viloyatining bo'sh yerlariga qochoqlarni joylashtirish, uy-joy va chorva mollari bilan ta'minlash maqsadida 100.000 kumush rubl` miqdorida mablag' ajratganliklari, ushbu mablag' Rossiya-Xitoy harbiy to'qnashuvi tufayli olingan kontributsiya hisobidan qoplanganligi qayd etiladi¹².

Jumladan, 1885 yilda Jarkent volostiga 10.000 rubl`, Aksucharin` volostiga 7,500 rubl`, Karam va Meliboev volostlariga 8000 rubldan, Qorasuv volostiga 13.000 rubl` miqdorida mablag' ajratilgan. To'qmoq uezdi dunganlari 1886 yilda qaytarib bermaslik sharti bilan 2000 rubl` mablag' olishgan...Hatto, 1883 yildan boshlab qochoqlarga 6 yil muddatda qaytarib berish sharti bilan kredit berilgan.¹³

Biroq Rossiya hukumatining aholini Yettisuv viloyati yerlarida ushlab turish uchun ko'rgan chora-tadbirlari yetarlicha samara bermagan. 1883 yildan 1894 yilga qadar Yettisuv viloyatining uyezd va volostlaridan 4472 nafar qirg'iz va taranchi qabilalarning vakillari Xitoy hududlariga qochib o'tganlar. Ularning ko'pchiligi Jarkent, Issiqko'l, Kopal, Verniy uyezdalaridan bo'lishgan¹⁴.

1860 yilning 2 noyabrida Xitoy va Rossiya o'rtasida o'zaro shartnoma mavjud bo'lib, unga ko'ra ikki tomon ham qochoqlarni chegara boshliqlariga topshirish majburiyatini olishgandi. Biroq bu shartnomaga deyarli amal

¹² Hayitov Sh. A. Saidov I. M Ko'rsatilgan asar.-b23

¹³ Hayitov Sh. A. Saidov I. M Ko'rsatilgan asar.-b24

¹⁴ O'sha joyda

qilinmagan. 1907 yilda 911 o'tov qirg'izlar Xitoy yerlariga qochib o'tishgan. 1910 yilda ham "qochoqlik" davom etib, birgina Jarkent uedidan 215 o'tov qirg'izlar G'uljaga qochib o'tishgandi¹⁵.

Quyida keltirilgan jadval XIX asrning 80-90 yillarida Yettisuv viloyatidagi qirg'iz, taranchi, hamda dunganlarning Xitoyga qochib o'tganligi bilan bog'liq aniq ma'lumotlarni aks ettiradi. 1885,1888,1894 va 1897 yillarda Yettisuv viloyatining uyezdlari bo'yicha Xitoyga tegishli bo'lgan chegaralarga qochib o'tgan qirg'iz oilalarining soni haqida ma'lumot¹⁶

Uyezd Volostlar va ular bo'yicha qochib o'tganlar soni (chodir oila hisobida)

1.Jarkent uezdi Konurburgov volosti-23, Tokarustonovskiy-9, Turdimbetov-2, Kojmambetov-6, Aytalaman-10, Aytov-1, Baytyugeev-13, Jargil-79, Ketman-24; Jami:168 kubitok`

2. Kopal uezdi Arasan volosti-10, Akichkin-6, Verniy karatel`-5.Jami: 21 kubitok`

3.Prjeval`skiy uyezdi Tyupskiy vollosti-64, On`-Archinskiy-1, Sharkratminskiy-4, Chontyubinskiy-129, Cheshtyubinskiy-162. 360 kubitok`

4. Lepsen uezdi Sarqto'v volosti-43, Baskan-Sarkan-7, Okchaulin-10, Koraku-14. Marzatoy- Karasu-19, Urdjar-20, Cherbaktin-2, Chinjilin-10, Olakul-13, Makanchi-Sadirov-15, Quyi Aksu-14, Kambetbay-Kiskachev-1, Arganatin-1, Barlik-8, Vien-Aksu-4, Emel`-9.190 kubitok` (Izoh: Yuqorida qayd etilgan uezdlarning volostlaridan jami 122 o'tov dungan, 2050 o'tov taranchi, 739 qirg'iz o'tovi aholisi Xitoyga qochib o'tgan.) Tarixiy adabiyotlarning ma'lumotlari va arxiv manbalari tahlili shuni ko'rsatadiki, Turkiston general-gubernatorligiga qarashli bo'lgan Xitoy davlati bilan chegaradosh Farg'ona va Yettisuv viloyatlaridagi "qochoqlar" xilma-xil sabablarga ko'ra o'z domiy yashash joylarini tark etganlar.

¹⁵ A. Sog'uniy . Vatan ahllariga deganlarim//O'zbekim; 1992.-b.18

¹⁶ A. Sog'uniy o'sha maqola. -b.22.

“Qochoqlik” sabablari haqida viloyat harbiy gubernatorlari, uyezdlarning boshqaruvchilari Rossiya hukumatiga yo'llagan o'nlab bildirishnomalarida fikr bildirib o'tganlar. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, “qochoq”likni keltirib chiqargan sabablarni birma-bir sanab o'tish o'rinli bo'lardi, deb o'ylaymiz.

1. Bir qator uyezdlarning volostlarida (ayniqsa qirg'iz aholisi istiqomat qiladigan) qishning og'ir, qattiq sovuq va bo'ronli kelishi oqibatida chorva sollariga oziq-ovqat topib bera olmaslik, asosiy tirikchilik manbai hisoblangan chorvadan ajralib qolish xavfi tufayli Xitoy yerlariga ko'chib o'tish ro'y bergan. Avval oila boshliqlari yoz oyining oxirida yohud kuzda Xitoyga o'tib ketishgan. Keyinchalik ular o'z mol-mulklarning bir qismini sotib, bir qismini yoqib yuborib, oilalarini ham ko'chirish choralarini ko'rganlar.

2. Ma'lumki chor hukumatining ko'chmanchi aholi bilan bog'liq qonunchiligida mahalliy hukumat organi hisoblangan volost` (bo'lis) boshliqligi va xalq sud`yasi lavozimiga mahalliy aholi vakillari orasidan uch yil muddatga saylanish joriy etilgan edi. Saylovda g'olib bo'lgan qabila vakillari tomonidan boshqa qabilalar siquvga olinganligi ham muxojirlik sabablaridan biri bo'lgan.

3. Xitoy qirg'izlari bilan Yettisuv qirg'izlari o'rtasida qavm-qarindoshchilik aloqalari tufayli Xitoyda istiqomat qiluvchi qirg'izlar o'z urug'doshlarini Xitoyga chorlab, ularning oilalari va chorva mollari uchun qulay shart-sharoit yaratib berishga va'da qilishardi.

4. O'troq aholiga nisbatan ko'chmanchi qirg'iz chorvadorlarining moddiy va madaniy turmushi past edi. Ular uchun tovarlarni sotadigan qulay bozor xo'jaligining yo'lga qo'yilmaganligi, bank-kredit tizimiga tortilmaslik, pul tanqisligi, o'zaro jamoaviy hamkorlikning yo'lga qo'yilmaganligi, oziq-ovqat magazinlari mavjud emasligi kabi ko'plab omillar ham qirg'izlarning o'z yerlaridan ko'chishga majbur etgandi.

5. Qirg'izlar qochib o'tgan Xitoyning G'ulja yerlari Yettisuv viloyatidagi hududlarga qaraganda bir qator qulayligi bilan ajralib turardi. Aholi turmush darajasining balandligi, o't-o'lanlarga boy yavlovlarning mavjudligi, unumdor yerlar, qishning qattiq kelmasligi, o'lkada aholining kam sonliligi va hokazo. Qochoq qirg'izlar yuqori Ili vodiysida o'z xo'jaliklarini nisbatan tez muddatda yo'lga qo'yishardi. Qolaversa, Xitoy xukumati "qochoq" lardan soliq va majburiyatlarni pul bilan emas, balki chorva mollari bilan olardi. Bu esa chorvador aholi uchun qulay bo'lgan.

6. Yettisuv va Farg'ona viloyatlaridagi bir qator uyezlar Xitoy chegarasida joylashgan, uzoq masofalarga cho'zilgan, bo'sh qo'riqlangan chegara postlari va bojxona nazorati joylaridan Xitoyga o'tib ketish katta qiyinchilik tug'dirmagan. Ayniqsa, Yettisuv viloyatining Prjeval'skiy, Jarkent, Lepsin uездlaridan xorijga o'tish "qochoq"larga muammo tug'dirmasdi.

7. Rossiya hukumatiga qarshi qo'zg'alon ko'targan, "o'g'rilik", "talonchilik", "buzg'unchilik"da ayblangan shaxslar jazoga tortilishlaridan qutulib qolish uchun ham chegaradan Xitoy yerlariga o'tishardi. G'uljadagi Rossiya vakolatxonasi talab qilsa ham Xitoy xukumati bunday shaxslarni hamisha ruslarga qaytarmagan. Aksincha, Xitoy davlatida ular hech qanday jazo olishmagan, ko'p hollarda yashirinib yurishga muvaffaq bo'lishgan¹⁷.

8. Xitoy hududiga ko'chib o'tgan boy va kambag'al qirg'izlar o'z chorva mollarini boqadigan dalalarga ega bo'lishardi, yuqori hayot tarzi ta'minlanardi. Ular qarindoshlari yordamida ish topishardi, "jinoyatchilar" jazodan qutilib qolardi, bu ijobiy o'zgarishlar boshqalarni ham muhojir bo'lishga undagan.

9. Xitoy xukumati rus fuqarolari hisoblangan "qochoqlar"ni o'z xo'jaliklarini yo'lga qo'yib, yangi joyda uch yil muddat muqim yashaganidan so'ng oddiy bir guvohnoma bilan Xitoy fuqaroligiga qabul qilgan. Bunday

¹⁷ O'RMDA. I fand 13 ro'yxat, 163 -x, 154, 154 varaqling orqa tomoni, 155, 155 varaqling orqa tomoni 156, 156 varaqling orqa tomoni (ushbu hujjatlarni taqdim etganligi uchun -professor Sh. Hayitovga minnaddorchilik bildiraman)

qulaylik esa “qochoqlar” sonini yildan-yilga oshirib borgan. Rossiya imperiyasining ma'muriy organlari va uezdlarning boshliqlari Xitoyga qochib o'tishning oldini olish, qochoqlarni kamaytirish maqsadida maxsus chora-tadbirlar ko'rgan. Jumladan, quyidagi keskin tadbirlar qo'llanilganligi manbalarda qayd etiladi.

1. Xitoy yerlariga qochib o'tgan, rus fuqaroligidan o'chirilgan, keyinchalik azaliy yeriga qaytib kelganlarni ishonchsiz, beqaror kishilar sifatida qat'iy ro'yxatga kiritib, doimo nazorat qilib turish.
2. Rossiya-Xitoy chegaralarini qo'riqlashni kuchaytirish.
3. Aholini azaliy yerlarda saqlab qilish uchun ular orasida tarqalgan ko'chkindilikka da'vat etuvchi fikrlarni tarqatuvchilarni jazoga tortish. Qirg'izlardan davlat ekin yerlarini, chorva yaylovlarini tortib olish, soliqlarni oshirish bilan bog'liq tadbirlarni cheklash.
4. Chegara rayonlarida istiqomat qilayotgan qirg'izlar qochib Xitoyga o'tsalar rus fuqaroligidan o'chirish, vaqti kelib ular ortlariga qaytganlarida mutlaqo qabul qilmaslik sharti bilan bog'liq targ'ibot yuritish va hokazo¹⁸.

Biroq Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati hukm surgan yillarda Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kirgan Farg'ona va Yettisuv viloyatlaridagi uezdlardan aholining qo'shni Xitoy davlatiga qochib o'tishi doimiy odatiy holga aylangandi. Chunki mustamlaka tadbirlari imkon qadar mahalliy aholi moddiy va ma'naviy hayot darajasining yuksalishiga xizmat qiladigan barcha yo'llarni yopib qo'ygandi. Oxir-oqibatda Turkiston o'lkasidagi ming-minglab aholi tirikchilik manbasini izlab xorijiy mamlakatlarga yo'l olgan.

Shu o'rinda Alixon To'ra Sog'uniyning yozganlariga nazar solamiz.

Dahshatli kunlar

¹⁸ O'RMDA.I-1 fond, 13 ro'yxat, 163x, 156-varaqning orqa tomoni.

Yana o'z so'zimizga kelaylik. Qizil sehrchilar qo'li bilan yondirilgan fitna o'tlari yana shularning qurol kuchlari orqali so'ndirilib, 1934 yili o'zlari tilaganlaricha Shing Duban hukumati qurildi. Ili viloyatiga vole qilib Shing Duban o'z qaynotasi Chusiling degan bir qari xitoyni G'uljaga yubordi. To'qmoqdan borgan boylardan, asli Qoshg'arli Olmosbek o'g'li TurdOxunbekni unga o'rin bosar qildi. Lekin, Shing Duban hukumati har tomondan sovet siyosatiga bog'langanlikdan butun ishlari sovet konsuli maslahati bilangina yurgizilmoqda edi. Chunki yaponlar Manchjuriyani bosib olgach, Sharqiy Turkiston tomonga ko'z solish xafi tug'ildi. Shunga ko'ra Sharqiy Turkiston o'lkasiga yapon askarlarini o'tkazmaslik uchun Shin-Shipo qismog'iga sovet tomonidan yigirma ming chamali askar qo'shilmish edi. Butun Sharqiy Turkiston, G'arbiy Turkistonga o'xshab har yoqlama sovet siyosatiga o'ralgan holda iqtisodiy ishlarini o'z qo'llariga olgan bo'lsa ham, Xitoy hukumatiga yaponga qarshi ittifoqdosh bo'lganligidan qog'oz ustida bu o'lka Jungunning ayrilmas bir qismi hisoblanar edi.

Shunday qilib, Sharqiy Turkiston-Uyg'uriston tuprog'i chanqashi xitoy hukumatiga qaragan bo'lsa ham ostirtdan sovet rusiyasi har tomonlama o'z tasiri ostiga olish uchun qattiq kirisha boshladi. Ayniqsa bu o'lkaning iqtisodiy ishlari butunlay sovetga bog'liq bo'lgani uchun, tijorat ishlari to'sqinlik uchrab, bu sohada ko'pchilik kishi kasbidan ajralib, ishsiz qolishga to'g'ri keladi. Ma'lumdirki qanchalik xalqaro iqtisodiy kamchilik ko'payar ekan, shunchalik bular halokat tuzog'iga yaqinlashdilar.

Eshitar quloqqa yoqimlik olti shiorni oldiga otib, sovetning nayrang'i bilan butun xalqni turlik o'yinga o'ynatqali turdi. Buning ustiga yaponlarga qarshi orqa safimizni mustahkamlab xitoy Chanqayshi hukumatiga yordam beramiz degan baxona bilan boylardan ko'proq soliq ola boshladilar. Shunday qilib xalqni turlik yo'llar bilan o'ynatib, 1937-yilga yetgach, o'z rejasiga muvofiq birdaniga ish o'zgarib, qish sovig'i yanavar oyida G'ulja shahridan birinchi navbatda Turdoxunboy boshliq 30 dan ortiq kishi hech qanday sababsiz

qamoqqa olindi. Shundoqki, oldinroq sovet konsuli tuzgan reja orqalik kerakli kishilar G'ulja voliyisi Chusiling tomonidan majlisga chaqirildilar. Kechasi soat 12 larda majlisdan qaytib kelayotganda tayyorlab qo'yilgan to'rt nafar qurollik xitoy askarlari oldidan chiqa kelib, Turdaxonboyning mashinasini to'xtatadi. Uning qishlik kiyimini yechintirib, bir qavat ko'ylagi bilan o'zini yolg'iz qorong'u padvalga qamab qo'yadi. Boshqa qo'lga olinganlarning ahvoli bu ishdan ochiq ma'lumdir.

Yarim tunda hech narsadan xabarsiz oilasi ustiga bostirib kirib, yirtqichlarcha daxshat solib, xotin, qiz, kelinlarning bo'yin boshlaridagi butun ziynat-asboblarni talab olib, o'zlarini eski kigiz to'shaklari bilan qarshidagi qaqshab, muzlab yotgan Axtamboyning quruq qurosiga sgu qahraton qishda haydab chiqarishadi. Eng achinarlisi shu ediki, Turdaxonboyning 20 yoshdan o'tgan Nortoy va 20 magacha yetmagan Ahmadbek degan ikki gunohsiz o'spirin o'glini yotgan yerlarda shunday sovuqda ko'ylakchan haydab olib borib padvalga qamaganlar. Shu qamalanganidan so'ng bir necha oy vaqt o'tgan bo'lsa ham, bular haqida hech qanday xabar toppish imkoniyati yo'q edi. O'zlaridan xabar olish uyoqda tursin, noz-ne'mat vaqtida birga bo'lgan, eng yaqin kishisi oshna-og'aynilarining hech qaysilari, ularning och-yalong'och qolgan oilalari holidan xabar olishga ham jur'at qilolmadilar.

Birinchi navbatda qamalgan kishilarning ko'ra joy, mol-mulk, uy-ro'zg'or, jonlik-jonsiz barcha narsalari olinib, bola-chaqalari ko'chaga haydab chiqarildi. Turdaxonboy inisi Qurbontoy qori, qulog'i yo'q hisobidan garang bo'lgani uchun davlat sherigi bulsa ham, qo'ra-joy o'z oldiga bo'lib boshqa o'tirg'anligi uchun unga tegmaganlar. Vaqtida seldek kelgan, qaytarida yuz o'girib quyondek ketayotgan davlatni qo'li bilan to'smoqchi bo'lib, qo'y desak unamay, chet yoqada qolgan mol-dunyolarini qisib-qimtib yashirincha olib qolmoqchi bo'lib edi, Xitoy birdan ushlab, qo'ra-joy bilan borliq narsalarini yog'u qilib, o'zini qamab qo'ydi. Bechora singlisi Toshxon Xitoy

amaldorlarining bo'sag'asiga bosh urib qatnayverishi natijasida 70 kun deganda Qurbontoy bo'shanib chiqdi.

Bayt:

Davlat boshdan ketarda-keng kiyiming tor bo'lur,

Qo'y degang'a qo'ymagan-orachig'a zor bo'lur.

Allohning amrini qilib' nahiydan¹⁹ qaytmagan kishilarni balodan kim qutqara olg'usidir. Halol kasb bilan musulmon molini dunyolik oxiratlik ofatlaridan omon saqlahs uchun Alloh taolo zakotini –temir qo'rg'onni qurish kerak edi. Dunyoga ko'ngli bilan qattiq berilganlikdan, qur'on hukmiga, payg'ambar so'ziga gumon keltirib, zakotsiz, xayr-ehsonsiz yig'gan, qo'rg'on tashqarisida qolgan qora mol-dunyolarning it-qushlarga yem bo'lishidan kim saqlay oladi? Qur'onning aytishich, hech vaqt Alloh taolo mo'min qullariga ato qilgan halol rizqlarini haromxo'r kofirlarga yedirishi mumkin emasdur.

Yana o'z so'zimizga kelaylik. “Davlatim bo'lgach , yor-jo'ralarim qoshimda “ degandek, quvvati o'chgach, davlati qochgan kunlarda har kimning o'z oilasi, ayniqsa, ota- onasi yoki g'arazsiz do'sti bo'lmasa, bulardan boshqalari dushman tomonga o'tib ketadilar. Shunga ko'ra, Turdaxonboy oilasidn xabar olishga shuncha ko'p yor—do'stlari bo'la turib, birortasi ham yaramadi. Buni ko'gach ,o'zim har qancha tashvish ichida turgan bo'lsam ham chidab turolmay, yarim qo'y eti, bir tandir kulcha yoptirib, marhum ayolimizni kirgizib edim, eshikdan kiriboq katakichik bolalarni: “Hay, bu dunyoda bizni ham yo'qlovchi kishimiz bor ekan”, deb, yig'i- sig'i bilan eng achinarlik bir holda, qarshi olibdilar.

¹⁹ Ma'n qilingan, harom ish

Birinchi navbatda qo'lga olingan bu kishilarning mol-mulki, qo'ra-joylari butunlay yorg'u bo'lib, oilalari uchun boshpana bo'lg'udek joy qolmagach, ularni G'ulja shahri atrofiga tarqatib yubordi. Bular bilan eng so'ngi aloqamiz shu bo'lib, keying kunlarda esa, bizga o'xshash kishilarning barchasi o'z tashvishi bilan bo'lib, boshqani unutmish edilar. Chunki bu jallodlar qaysi yo'l bilan bo'lsa ham ikki kishining birini iskovichlik xizmatiga bog'lab, xalq ichiga ko'p buzuvchilik soldi. "Po'choq pulga iymonlarini sotadurlar", degan Qulxo'ja Ahmad sultonim so'zlari shu kunlari amalda ko'rilmish edi.

Jannat misollik, urug'-aymog'lik, suyuqlik ona Vatanimizdan ajragan holda omon olg'udek joy izlab kelmish edik. Qizil sevrachilar shum qadamlari yetishi bilanoq bu yerlardan ham xayr-barakat yo'qolib, tinchlik, omonlik butunlay ko'tarildi. Bu voqea bo'lmasdan ilgari sharqiy ichki Xitoy, janubiy Hindiston yo'llari ochiq turgan bo'lsa ham, ish boshlanishi bilan atrof yo'llar butunlay to'silmish edi. Bizga o'xshash siyosiy qochoqlar uchun olam qorong'u bo'ldi.

Boyo'g'li qushining shum ko'zi kechasi ochilganidek, bu qonxo'r jallodlarning ko'zlari ham kechada, ayniqsa yarim tundan o'tganda ochilur edi. Ko'p kishilar o'z uyida yotolmay, agar yotsa ko'ngli tinchib uxlayolmay, bola - chaqalari bilan yurak o'ynoqi bo'lgan holda kun o'tkazmoqda edilar. Yana bu inson yaxshiylari nohaq, hech qanday gunohsiz kishilarni zulm ostida ushlangan kishilarning oyoq-qo'lga og'ir zanjirlarni solish bularning suygan odatlari edi.

Mana qarang XX-asarda insonlar huquqining oyoq osti qilinishini! Birinchi navbatda ushlangan kishilar so'ngida zulm haddan tashqari ortdi. Og'ir kunlar qo'rqinchli tunlar bilan uch-to'rt oylik qish o'tib, ko'klam kunlari yetgach, yan yangidan - yangi qo'rqinchli ishlar, sovuq xabarlar eshitilgali turdi. Shundoqki ikkinchi navbatda qamoqqa olinadigan kishilar tizimi ichida mening ham borlig'im ma'lum bo'lmish edi.

Shu hol bilan 6-10 kunlar o'tgan so'ngida, bir kech yarim tun vaqtida, ko'cha eshigi taqillag'ali turdi. O'g'limni chaqirib: "Asilxon och eshikni!", degan o'zbeklar oqsoqoli Sharop shangyunning²⁰ dovushi eshitildi. "Hozir ochqichni topay", degan bahona bilan o'g'lim yugurganicha kelib, menga xabar berdi. O'zim ham tayyorlanib turgan edim. Tashqariga chiqsam havo o'zgarib qattiq bo'ron yomg'iri bo'lib turan ekan. Dushmanga taslim bo'lish uchun tavakkal qilib oldiga chiqay deb bir-ikki qadam bosgan edim, o'g'lim Asilxon: "Jon dada, zolim jallodlar oldiga chiqish aqldan emas, qo'llarida zanjir kishanlari shaldirab turibdi degach, qochish ham payg'mbarimizdan qolgan emasmu xayoli bilan, tun qorong'usi, qattiq bo'ron yomg'iridan foydalanib, o'g'lim Asilxon oyog'imdan ko'targach egiz tom osha qo'shni qo'rasiga o'zimni tashladim.

Qattiq bo'ron, shamol aralash yomg'ir urib turganlikdan har qanday sharpa bo'lsa ham, uqulg'udek²¹ emas edi. Shundan foydalanib, qo'radan-qo'raga tom osha tushib, ko'cha boshidagi tom ustiga uyilgan xashak ostiga kirib yashirindim. Orada 5-6 hovli bo'lib, o'zim uzoqda turgan bo'lsam ham, ikki ora ochiqlik edi. Shunga ko'ra o'z qo'ramizda bo'layotgan ishlarni payqab turdim. Bosh-oyoq uylarimizni, qo'shnilarimizni qoldirmay 1-2 soat tintuv qilib meni topisholmagach, Asilxonni olib jo'nadilar. Bu zolimlar ketganlaricha, uy ichi oilalarimizga vaxshiylarcha ko'rsatgan daxshatlariga qaralsa, bularni: "ikki oyoqli yirtqichlar", deyishlik xato aytilmagan bo'ladi.

Bular ketib tong sahar yaqinlashgancha tarnovdan quygandek to'xtamay yomg'ir yog'moqda edi. Egni-boshim siqib olgudek bo'lib suvga chilaniq qoldim va ham tong otmasdan ilgariroq bu joydan boshqa bir o'ringa yo'tqalib yoshirinishim hammadan zarur edi. Shuning uchun ko'chamizdagi o'z do'stlarimizdan qoshg'arlik Ayubohun usta qo'rasiga

²⁰ Rais, mahalla oqsoqoli

²¹ Bu yerda bo'lingudek, ko'rimgudek sezilgudek ma'nosida.

tushib, ming xijolatlik bilan o'zi yotgan uy eshigini taqillatib edim , dovushimdan tanidi bo'lg'ay , to'ra kelib eshikni ochib, musulmonga yarashgan ahloq bilan meni yaxshisi qarshiladi .Bu voqea 1937-yili mart oyida bo'lmish edi. Shu oradan 33 yil o'tib , bu kitobni yozmoqdaman . agar ming yil o'tasa ham bu yaxshilik hech qanday vaqt unitilmay saqlang'usidur. Alloh uni rahmat qilsin!

Ho'l kiyimlarim quritilib bo'lg'ach , erta namozazoni aytilg'ach , kata salla , uzun chopon bilan Ayubohun uyidan "Bismilloh" deb masjidga ketayotgan bo'lib eshik oldimizdan o'tayotganimizda qarasam, darvozamiz oldida ikki nafar xitoy cherigi turmish ekandur. Shu o'tganimizcha Ayubohun usta boshlab olib , marhum Usmon korim uyiga yetkazdi. Ko'cha eshigi ochilmagan, hali bomdot vaqti bo'lmagan edi. Devordan oshib tushib, mening xabarimni onglatgach, yugurganich chiqa kelib , ko'ngil ko'targich so'zlar bilan do'stlig'ini bildirib , o'ylagandan ortiqroq hurmat bilan meni kutib oldi. Alloh ulug' ajrlar bersin u kishiga !

Bu kishining uyida turishimiz ehtiyot yuzasidan to'g'ri kelmaganlikdan , o'zidan yiroqroq- orqa ko'chasida kuyov o'g'li qo'rasida turishimizni maslahat ko'rdilar. Mana shu joyda 10 kun chamali²² turgandan keyin , bir kun hukumat josuslaridan bo'lgan vijdotsiz vatan xoini Sharop shangyu Usmon korimga kelib mening to'g'rimda so'z so'rabdur. U ketgandan keyin ehtiyot yuzasidan o'rin yangilash lozim bo'lib qoldi. Korimning bog'I orqasida necha yillik tashlandi , eski , buzilgan xumdoni bor ekan , shoshilinchda joy topolmagach , shuning ichiga tushib , to'qqiz soat yoshirinib yotdim . shu kuni kechqurun bu joydan yo'tqalib , daryo bo'yiga yaqin bir xilvat yer topib , bir necha kunlik aziz umrimni u joyda o'tkazdim.

²² Chamas ,taxminan

Mening bu kabi eng og'ir kunlarimda vafodorlik qilib , do'stlik haqini o'tagn erlarning eng birinchisi to'qmoqlik Abdurahmon edi. O'g'li Abduqodir boshliq katta- kichik butun oilasi bilan mening yordamimda bo'ldilar . Ikkinchisi , otushlik savdogarlardan menga jonfido ixloslik bo'lgan Matniyoz edi. Bu qahramon Oltoy va Mong'uliyada G'ulja yilqisi pul ekan degan bahona bilan , ataylab men uchun yuz yilqi olib, Mong'uliyaga haydamoqchi boldi. Bundan maqsadi esa , meni ham xizmatchi yilqichilar qatoriga qo'shib olib , Mong'uliyaga yetgach ukunlarni Manjuriyada turgan yaponlarga o'tkazvormoqchi edi. Chin ko'ngli bilan biz uchun bu ishga kirishga bo'lsa ham , bu ish to'g'ri kelmagach , yo'limiz boshqa yoqqa burildi.

Allohga tavakkal qilib , so'qolik ustidan to'rtinchi Chuy stansiyasiga qarab aravada yo'lga chiqdik .

Ertasi Chuy suvidan kema orqalik u tomnga o'tib ketayotganimizda , qurollik rus to'sqovullari oldimizdan chiqib , bizni tekshirgani turdi, xurjin xalajlarimizni ag'darib , barini ko'rib bo'lgach , yo'ldoshimdan passport so'radi. Xudo o'nglab , o'z otiga olgan Xitoy pasportini ko'rsatgan edi , bir narsa umidida undan chatoq chiqarib , bizni ko'p qiynadi. Bu yerda eng hayron qolarlik ish shulki , yo'ldoshimni shul qadar uzundan –uzun tekshirgan holda , negadir , mendan bir og'iz ham so'z so'ramay , oxiri shoshilgan kishidek otini minganicha orqsiga qaramay ketivordi. Ortidan biz dag'i yo'lga tushib shu yurganimizcha hufton vaqtida chuy stansiyasiga yetdik. Besh –olti soat o'tib , Olmota poyezdi kelgach unga tushib jo'nadik . Sario'zak degan joyga kelganimizda biz tushib qoldik. Turksip poyezdi esa , shimoliy tomon – Sibrga qarab burilib ketdi.

Kech kuz vaqti , sovuq qattiq bo'lib , qor buroshalab yog'ib turgan edi. Poyezddan tushgan kishilar – barimiz stansiyadagi bir kichik uyga kirib yotdik . Kun sovuq , pechkaga o't yoqilmagan edi. Qarasam , har tarafdan jon qutqarib chiqqan odamlar , ko'plari bizga o'xshash o'z eliga

sig'magan, zolimlar tomonida nohaq quvg'inga olingan haqsizlar edi. Shu yerga kelganimizda shunday so'z chiqdikim , oldimizdagi yo'l usti manzilida GPU askarlari yo'lovchilarni qattiq tekshiruv ostidagina o'tkazar ekan; agar birorta shubhalik pdam topilib qolgudek bo'lsa , uni yo'ldan qaytaribgina emas, balki qo'lga olib qamab qo'yishlari aniq ekan. Mana bu so'z chiqqan so'ngida, Toshkentdan chiqqan Xitoy elchixona xizmatchilaridan boshqa hamma kishilar qo'rquvga tushib yo'ldan qaytmoqchi bo'ldilar. Qarasam bechoralarning quvvati qochib , rqnqlari uchgan , bir-birlariga ishonolmaganlikdan sirlashib maslahat qilish kabi ishlar xalq o'rtasidan butunlay ko'tarilgan.O'zlari kulgandek bo'lib ko'rinsalar ham , ko'ngillari g'am- qayg'uga to'lganlikdan yuzlari sarg'aygan edi. Bu ishga hammadan ko'proq men qayg'urishim kerak edi;zulm hukmlarini nahaq manim ustima yuklaganlari uchun qarshilik ko'rsatmish edim . Aksincha, ko'nglimga boshqalar kabi ortiqcha qo'rqinch tushmagach , Allohga tavakkal qilib , olg'a yurmoqchi bo'ldim.

Umrim ichida qanchalik og'ir ishlarni , ko'p qo'rqinchli kunlarni boshimdan kechirdim . U chog'da ko'nglimdagi iymon-etiqodim , Allohga va uning haq payg'ambari Muhammad a.s. ga bo'lgan muhabbatim , men uchun eng kuchli ishonchim va eng ortiq suyanchim edi. Nachora , bu kabi diniy ishlar sirlarini o'zi tatimagan bechoralar qaydinbila olsinlar ? Iymonlik kishilarga har vaqt bu ulug' davlat nasib bo'lg'usidir .

1.2. Qo'qon xonligining beki Yoqubbekning Sharqiy Turkistondagi Yettishahar davati

Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni istilo qilishni avj oldirgan XIX asr 60 yillarida Sharqiy Turkiston viloyatlarida ham Man'jur- Xitoy zulmiga qarshi milliy ozodlik uchun kurash va qo'zg'olonlar boshlanib ketdi.

1864 yil iyul` oyining ikkinchi yarmida Xo'tan xalqi qo'zg'alib Habibullo Hojini podsho deb e'lon qildi²³.

1864 yili iyul` oyida Urumchi xalqi ham qo'zg'alib Man'jur –Xitoy askarlarini Urumchi va uning atrofidagi territoriyalardan quvib chiqarib, u yerda Dovut xalifa boshchiligida mustaqil Dungon xonligi tuzildi.

1864 yil sentyabrda Abdurasulbek va Sodir Polvonlar boshchiligidagi Ili xalqi qo'zg'alib, Iliy Chjang dtszun (general-gubernator) xukumronligini ag'darib tashlab, A'loxon to'ra boshchiligida Iliy sultonligi tashkil topdi.

Shunday qilib, 1864 yil 4 iyunida Qucharda boshlangan uyg'ur xalqining milliy-ozodlik harakati tez orada butun Sharqiy-Turkiston territoriyasiga tarqalib, be yerda beshta mustaqil xonlik hokimiyati tashkil topishiga sabab bo'ldi. Bu dalilning o'zi Sharqiy Turkiston xalqi bir yoqadan bosh chiqarib kurashsa har qanday zulmatli qora kuchga qarshi mardona tura olishini ko'rsatdi.

Lekin Sharqiy Turkistonda, shakllangan besh mustaqil hokimiyat o'rtasida o'zaro ittifoq bo'lmadi. Vaziyat Man'jur-Xitoy mustamlakachilariga qattiq zarba berish va ularning zulmidan uzil-kesil ozod bo'lish uchun Sharqiy Turkistondagi mayda tarqoq kuchlarni birlashtirib, dushmanga qarshi turishni taqozo qilar edi.

Sharqiy Turkistonni bir butun davlat qilib birlashtirishga Kuchar xoni Rashid ad-Din xon xarakat qilgan bo'lsa ham, lekin u bunday ulug'vor ishni udda qila oladigan tashkilotchilik talantiga ega qobiliyatli, uddaburon kishi emas edi.

Rashid ad-Din xonning Kucharda olib borgan muhim iqtisodiy chora tadbirlaridan biri, u o'zining siyosiy va iqtisodiy quvvatini mustahkamlash uchun Kucharda 1864 yilning o'zidayoq o'z nomidan Xitoy pullari tipida, ya'ni

²³ Musa Sayrami .Tarixi Aminiya.-T.: 1973-b.168-169.

o'rtasida to'rtburchak shaklidagi teshikka ega bo'lgan mis pullarni quyishga boshladi. Bu pullarni chiqarishda u qo'zg'olondan ilgari Kuchar va Oqsuvda Sin sulolasi tomonidan qurilgan zarbxonalardan foydalandi.

Rashid ad-Din xon Sharqiy Turkistonni bir butun davlati va bir bayroq ostiga uyushtirib, harbiy iqtisodiy kuchlarni birlashtirib, uyg'urlarning mustaqilligini saqlab qolish va o'zaro birlashish uchun Koshg'ar, Xo'tan xonlariga murojaatnoma yubordi, lekin ular uni qo'llab-quvvatlamadilar.

Rashid ad-Din va xon Koshg'ar va Xo'tan hokimlaridan rad javobini olgach, ularni qurolli kuch bilan itoat qildirishga harakat qilib o'zining ukasi Jalol ad-Din Xo'ja boshchiligida Qoshg'arga lashkar tortdi. Ana shunday murakkab bir vaziyatda Koshg'ar hokimi Sodiqbek o'zining hokimiyatini saqlab qolish uchun unga qarshi chiqdi.

Sodiqbek Qo'qon xoni Said Sultonga murojaat qilib Jahongir Xo'janing o'g'li Buzruk Xo'jani Qoshg'ar taxtiga taklif qildi.

Qo'qon hokimi Olimqul²⁴ bu fursatdan foydalanib, Qoshg'arga tezda Buzrukxo'ja bilan birga (keyinchalik Koshg'arda Yetti shahar davlatini qurishda asosiy rol o'ynagan) Yoqubbek ellik askarga bosh qilib Qoshg'arga jo'natdi. Yoqubbek Qurama hokimi bo'lib Rossiya askarlari bilan to'qnashuvda yengilgan edi.

Buzrukxo'ja diniy arbob bo'lib, davlat, hokimiyat ishlariga aralashmagan, umuman siyosatdan bexabar kishi edi. Shuningdek, unda tashkilotchilik talanti va Sharqiy Turkistonni birlashtirib, uni boshqarib keta oladigan iste'dod va qobiliyat ham yo'q edi. 1865 yili yanvarda Buzrukxo'ja Qoshg'arga kelgandan so'ng, uni xon deb e'lon qildilar. Qoshg'ar hokimi Sodiqbek esa bosh qo'mondon etib tayinladi.

²⁴ Olimqul yosh Said sultonning lashkarboshisi bo'lib, Qo'qon xonligining butun huquqini o'z qo'lida markazlashtirgan edi. U 1865 yili Toshkent atrofida chor armiyasi bilan bo'lgan jangda halok bo'lgach, Shayxontohurga dafn qilingan. Bu haqda batafsil ma'lumot olish uchun Mulla Mahdum Hojining "Turkiston Tarixi". Toshkent, 1915, 147-156- betlarga qaralsin.

Yoqubbek o'z atrofiga bir gruppaga kishilarni to'plab Sodiqbekdan bosh qo'mondonlik mansabini tortib olish uchun yashirin harakat qildi. U Buzrukxo'ja bilan Sodiqbek o'rtasiga nizo solishga moyassar bo'ldi, natijada Sodiqbek bir qism askarlarini olib, Buzrukxo'jadan yuz o'girib, qochib ketishga majbur bo'ldi. Fursatdan foydalangan Yoqubbek Sodiqbek odamlaridan bir qanchasini sotib olib uni o'ldirdi.

Shundan keyin Yoqubbek Qoshg'ar xonligining bosh qo'mondoni etib tayinlandi., u askarlari sonini ko'paytirdi va jangovor tayyorgarlik mashqlarini olib bordi. Shunday qilib Qoshg'ar butun Sharqiy Turkistonda mustaqil uyg'ur davlatini qurish markaziga aylandi.

Yoqubbek Qoshg'arda butun harbiy va ma'muriy hokimiyatni egallab olgandan so'ng, 1866 yili noyabrda Xo'tan hokimi Habibullo podshoga xat yo'llab, Xo'tandagi Imom Jaffar Sodiq qabrini ziyorat qilishga ijozat berishni iltimos qildi. Xatga Habibullo podshodan ijobiy javob olgandan so'ng, Yoqubbek o'zining bir qism armiyasi bilan Xo'tan shahriga yaqin bir joyda to'xtab xiyla bilan Habibulloni ham o'ldirtirdi va butun Xo'tanni egallab, bu xonlikning borliq xazina va dafinalarini dar-as-saltanat Koshg'arga jo'natdi ²⁵.

Yoqubbek Xo'tanni qo'lga kiritgandan so'ng Qashg'arga qaytib kelib 1867 yili bahorda Kucharni ham o'ziga qo'shib olish uchun yana bir boshqa xiyla ishlatdi. U Quchar xoni Rashid ad-Dinga maktub yo'llab: "Bizning qo'shinlarimizni Kuchar orqali o'tib, Singa qarshi kurashishiga ruxsat bersangiz", deb iltimos qildi.

Rashid ad-Din ancha o'ylanib qoldi, birinchidan, Yoqubbekning qo'shinlari bilan urushib qon to'kishni hohlamadi, ikkinchidan uning so'zlariga ishonib, Yoqubbek qo'shinlarini Quchar shahrining shimolidan o'tib ketishiga ruxsat berdi. Shundan so'ng Yoqubbek qo'shinlari Quchar shahriga yaqin Davlat bog' degan joyga kelib to'xtadi. Yoqubbek qo'shinlari Davlat boqqa kelganda ularni

²⁵ Musa Sayrami . O'sh asar. B.167-168.

ziyosat qilish uchun juda ko'p xalq to'plangan edi. Yoqubbek ana shu paytdan foydalanib, o'z qurolli qo'shinlarini fuqarolarcha kiyintirib xalq orasiga qo'shin yubordi. Shu kechasi Yoqubbek qo'shinlari Quchar shahriga hujum boshladi, xalq ichiga yashirin kiritilgan Yoqubbekning qurolli qo'shinlari harakatga kelib, shahar darvozalarini ochishga yordam berdi. Rashid ad-Din xon Yoqubbekka qarshi bo'lgan shiddatli jangda qurbon bo'ldi. Shundan so'ng Yoqubbek Quchar shahrini egallashga muvassar bo'ldi²⁶.

Yoqubbek Qucharni egallagandan so'ng o'z qo'shinlari bilan Ko'rla shahriga qarab yurish qilib, bu shaharni hech qanday qarshiliksiz qo'lga kiritdi. shunday qilib, butun Tyan`-Shan tog'ining janubidagi yerlarini Yoqubbek o'ziga qaram qilib olgandan so'ng, bu joylarda bemalol hukumronlik qilishiga birdan-bir to'sqinlik qiluvchi Buzrukxo'ja deb bilib, unga hajga borib keling degan bahona bilan qo'lga to'rt ming tilla pul berib Makkaga jo'natdi²⁷.

Shunday qilib, Yoqubbek 1865-1867 yillari Qoshg'ar, Xo'tan, Kuchar xonliklarini birlashtirish asosida Tyan`-Shan tog'ining janubidagi boshqa shaharlarni qo'shib olib Yettishahar²⁸ davlatini qurib, uning bosh hukumdori bo'lib oldi va o'zini Yoqubbek otalik g'ozi²⁹ deb atadi. Yoqubbek davlatiga minglab o'zbek va qirg'izlar O'rta Osiyodan qochib o'tdi. Ularni Yoqubbek Sharqiy Turkiston qishloq va shaharlari bo'ylab joylashtirdi.

Yoqubbek Yettishahar davlatini qurgandan so'ng Qoshg'arda oltin, kumush va mis pullarni zarb qildi. Bu pullarni u o'z nomidan emas, balki Qo'qon xoni Said Sultonning otasi Mullaxon nomidan chiqardi. Keyinroq borib bu pullar tangashunoslar uchun juda ko'p anglashilmovchilik va xatoliklarga sabab bo'ldi. Chunki birinchidan Yoqubbek bu pullarni zarb qilgan vaytda Mallaxon allaqachon (besh yil muqaddam, ya'ni 1862 yili) olamdan o'tgan edi,

²⁶ Musa Sayrami . O'sh asar. B.32-33.

²⁷ Musa Sayrami. O'sha asar, 240—241- betlar. Ibrohim Buzrukxo'ja Qoshg'ardan yo'lga chiqib Kashmir orqali Hindistonga o'tib, u yerdan Makkaga bormay to'g'ri Qo'qonga qaytib kelib, Qorovultepa qishlog'ida umrining oxirigacha yashagan.

²⁸ Yettishaharga: Qoshg'ar, Xo'tan, Yoekent, Yangihisor, Oqsuv, Kuchar va Qo'rla shaharlari kirgan.

²⁹ Otaliq -Qo'qon xonligida 9- darajali mansab bo'lib, bu o'zining Qo'qon xonligiga tobeligini bildirar edi. Keyin esa bu nomdan voz kechib mustaqil davlat ekanligini bildiradigan nom bilan "Yoqubbek badavlat" deb atagan.

ikkinchidan bu pullar Qoshg'ardagi zarbxonalarda zarb qilingan bo'lsa ham, lekin bu tangalarga “zarb Qo'qon” deb yozilgan, uchinchidan bu tangalar zarb qilingan yili sanalari Qo'qon xoni Mallaxon hukumronlik qilgan yillari emas, balki Yoqubbek Yettishaharda hukumronlik qilgan 1867 yilda 1873 yillargacha bo'lgan davrda sanalar qo'yilgan. To'rtinchidan, bu tangalar tipi (ornamenti) Qo'qon tangalaridagi ornamentdan farq qiladi. Beshinchidan, Qo'qon tilla pullarining og'irlik vazni 4,5 gramm bo'lsa³⁰, Qoshg'arda zarb qilingan tilla pullarning og'irligi 3,6 grammdir.

Tangashunoslarda shunday bir naql bor: “Tangalar o'zi haqida o'zi gapirib beradi, uning uchun hech qanday qo'shimcha materiallar ko'rishning hojati yo'q” deyilsa ham, lekin ba'zan tangalar o'zi haqida o'zi gapirib beraolmaydi. Bunga misol qilib Yoqubbekning Mallaxon nomidan zarb qilgan tangalarini ko'rsatish mumkin.

“Yoqubbek Qo'qon xonligi ustaxonalaridan mohir va komil ustalarni oldirib kelib, Mallaxon nomida tilla pul chiqardilar va yana bir tomondan mis pullarni quyishga harakat va taraddudlarini qildilar ³¹” – deb yozadi Musa Sayrami.

Ana shu manbalarga suyanib, biz shuni aniq qilib ayta olamizki, bu tangalar Qo'qon xoni Mallaxon davrida emas, balki Mallaxon vafotidan 5-6 yil o'tgandan so'ng, Yoqubbek tomonidan Qoshg'arda zarb qilingan.

Nima uchun Yoqubbek o'z nomidan pul zarb qilmadi degan haqli savol tug'ilishi mumkin. Birinchidan, Sharq musulmon davlatlarining qonuni bo'yicha xon avlodi bo'lmagan kishilar o'zini xon deb e'lon qilib davlat boshqarish huquqiga ega bo'lmagan va xalq ham uni e'tirof qilmagan. Ikkinchidan, agar ular hokimiyatini egallagan bo'lsalarda o'z nomidan pul chiqarish huquqiga ega bo'lmaganlar. Hatto butun Movarunnahr, Eron, Iroq, Zakavkaz`e, Afg'oniston va Hindistonning bir qismini egallab buyuk imperiya

³⁰ To'xtayev I. Tangalar tiga kirganda.-T.: Fan,1989.-b -16.

³¹ Musa Sayrami . Tarixi Aminiya b-183.

barpo etgan Amir Temur ham o'z nomidan pul chiqarolmay, qo'g'irchoq Suyurg'atmish xon, so'ng Mahmud xonlarning nomiga o'z nomini qo'shib tanga zarb qilgan edi.

Uchinchidan, Mallaxon Sher-alixonning katta o'g'li bo'lsa ham, lekin uning ukasi Xudoyorxon Qo'qon xonligini egallab olganligi uchun boshqalarning gij-gijlashi bilan Mallaxon bilan birga Yoqubbek ham Xudoyorxonga qarshi to'ntarish uyushtirgan edi. Bu fitna fosh bo'lib, mag'lubiyatga uchragandan so'ng har ikkalasi qochib, Buxoro amirligiga borib boshpana topdi. Mallaxon bilan Yoqubbekning o'rtasidagi yaqin munosabatlar ana shunday qaror topgan edi.

To'rtinchidan Yoqubbekni Qoshg'arga Mallaxonning o'g'li Said Sulton yuborganligi uchun, uning otasining hurmatiga atab Mallaxon nomida tillo va kumush pullarni zarb qildirdi. U Abd-al-Azizxon va Murodxonlarning nomidan ham tanga chiqardi.

Abd al-Azizxon va Murodxonlar kim? Bularni aniqlash uchun biz yana tarixiy manbalarga murojaat qilamiz.

Musa Sayrami bu haqda quyidagilarni yozadi: Xijriyning 1286/1870 yili³² toshkentlik Eshon Saidxon qozi to'ra³³ Makkadan qaytib to'g'ri Qoshg'arga kelib Yoqubbek bilan uchrashdi. U Yoqubbekka musulmonlarning pushti panohi xalifa Rum sultoni Abd al-Azizxonga elchilar yuborib o'zini ma'lum qilib, ariza qilishingiz nihoyatda zarur va lozim, deb maslahat beradi. Shundan keyin Yoqubbek Said qozi to'ra boshchiligida Turkiya sultoni Abd al-Azizxonga juda ko'p sovg'alar bilan elchilar yubordi. Bu elchilarni Turkiya sultoni kutib oldi. O'z navbatida Abd al-Azizxon ham Yoqubbekka turkcha sarpo va qimmatli olmos, yoqutlar bilan bezatilgan oltin toj bilan miltiq-qilichlarni sovg'a qilgan edi.

³² Bu yerda Sayrami Xato qilgan. Sayrami aytganday bu voqea 1870 yili emas, balki 1873yili bo'lgan. Tangalardagi sanalar ham shuni tasdiqlaydi.

³³ Eshon Saidxon Boshqa adabiyotlarda Said Yoqubxon To'ra deb berilgan.

Bu sovg'alardan juda xursand bo'lgan Yoqubbek bir necha kun to'y berdi, so'ng xalifa Abd al-Azizxon ismi –sharifiga xutba o'qitib, tilla va tanga pullarni uning nomida zarb qilish haqida farmon e'lon qildi va bu Yettishaharni xalifa Rum ta'basi deb atadilar³⁴.

Nima uchun Yoqubbek qo'shni O'rta Osiyodagi Qo'qon yoki Buxoro xonligiga murojaat qilmay, Turkiya sultoniga murojaat qilib, uning homiyligini qo'lga kiritishga harakat qildi? Chunki Rossiya bu davrga kelib O'rta Osiyodagi xonliklarning ko'p joylarini o'z tasarrufiga olgan edi.

Yoqubbek, o'zining Sharqiy Turkistondagi xukumronligini saqlab qolish va Sin imperiyasi tomonidan bo'ladigan tajovuzga zarba berish uchun, musulmon davlatlarining himoyasini, ayniqsa bu davrdagi eng kuchli nufuzga va kuch-quvvatga ega bo'lgan Turkiya sultonining himoyasini qo'lga kiritishni zarur deb bilgan edi. Shuning uchun Turkiya sultoniga elchilar bilan birga qimmatbaho sovg'alar yuborib, o'zining Turkiya sultoniga qaramligini bildirish yuzasidan sulton Abd al-Azizxon nomidan 1873-76 yillari va uning vafotidan so'ng esa bir necha oy bo'lsa ham sulton Murodxon nomida tanga pullar zarb qildi.

1872-73 yillari Sin imperiyasi dungonlar qo'zg'alonini rahmsizlarcha bostirdi. Szo szun tan, Xe ju shahrini olishda 20 000 odamning kallasidan judo qilgan bo'lsa, Szun Szu shahrini olishda 50 000 odamni qirib tashladi.

Ana shunday qirg'inchilik yo'li bilan Sin generali Sharqiy Turkistondagi Yettishahar davlatiga bevosita hujum qilish uchun katta yo'l ochdi. 1876 yili avgustda Szo szun tan juda katta harbiy tayyorgarliklardan so'ng Tyan`-Shanning shimolidagi territoriyalarga qarshi qonli yurish boshladi.

Szo szun tan askarlari zamonaviy qurollar bilan qurollangan va mutloq ko'pchilikni tashkil qilganligidan bir qator joylarni qayta bosib oldi.

³⁴ To'xtayev I. O'sha asar.-b. 19.

Bu qirg'in fojeali voqealarning guvohi bo'lgan va o'z ko'zi bilan ko'rgan rus savdogari I.O. Kamenskiy "vahshiyliklar hadidan oshdi, ayniqsa har bir o'ldirilgan dungon xalqi boshiga ikki sar kumush³⁵ to'langanligi uchun, ularning aybli va aybsiz ekanligiga qaramay, hatto man'jur armiyasi ichidagi dungonlar ham qirib tashlandi- deb yozadi.

Szo szun tan askarlari bosib o'tgan hamma joylar xonavayron bo'lib, uyg'ur xalqining milliy g'ururi bo'lgan qadimiy tarixiy obidalar ham kuydirib yer bilan yakson qilindi.

Man'jur-xitoy askarlarining Sharqiy Turkistondagi har bir millat xalqlari ustidan olib borgan vahshiylik xarakatlari munosabati bilan shu davrdagi Turkiston general- gubernatori K.P. Kaufman Szo szun tanni insofga chiqirib: "Buyuk davlat sarkardalariga mansub ish qilmadingiz, bu vahshiyliklar Xitoy o'ziga qaram qilmoqchi bo'lgan yerli xalqlar orasida yomon oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin"³⁶- deb norozilik e'lon qilgan edi.

Szo szun tan qo'shinlari 1876 yilning oxirlarigacha Tyan`-Shan tog'ining shimolidagi hamma joylarda (Ili viloyatidan boshqa) o'z hukmronligini tikladi. Qish fasli kirib qolganligi uchun Yettishahar davlatining asosiy territoriyasi bo'lgan Tyan`-Shanning janubidagi joylarga yurish vaqtincha to'xtatildi.

1877 yil bahor kirishi bilan Szo szun tan va Lyu szun tan qo'shinlari Tyan`-Shanning janubidagi Yettishahar davlatiga yurish boshlab Yoqubbek armiyasiga zarba berib, bir qator joylarni egalladi. Ana shunday murakkab bir vaziyatda, Szo szun tan tomonidan sotib olingan Yoqubbekning amaldorlaridan biri Niyozbek 1877 yili 30 may kuni Yoqubekka zahar berib o'ldirdi.

Yoqubbek vafotidan so'ng uning merosxo'rlari bilan amaldorlari o'rtasida nizo kelib iqib, hokimiyatni qo'lga olish uchun o'zaro kurash kuchayib ketdi.

³⁵ Bir sar kumush ³⁶ grammga teng.

³⁶ To'xtayev I. O'sha asar.-b. 22.

Yoqubbekning katta o'g'li Bekqulibek o'z ukasi Haqqulibekni o'ldirdi. Oqsuv xokimi Xokimxon to'ra va Xo'tan hokimi Niyozbek Bekqulbekni e'tirof qilmadi, natijada o'zaro jangu jadallar davom etdi. Bularning hammasi man'jur-xitoy qo'shinlarining Yettishahar davlatini bosib olishini osonlashtirdi. 1877 yili 24 sentyabrda Szo szun tan qo'shinlari Ko'rla shahrini egalladi. Kuchar hokimi Kamolxon to'ra man'jur –xitoy qo'shinlariga hech qanday qarshilik ko'rsatmay o'z qo'shinlari bilan Farg'onaga qarab qochdi.

Yoqubbek davrida islom qilichidan qo'rqib musulmonchilikni qabul qilgan xitoylarni "yangi musulmon" deb atar edilar. Ular ham man'jur-xitoy askarlarining Qoshg'ariga yetib kelishi bilan uning darvozalarini keng ochib , o'z vatandoshlarini quchoq ochib kutib olib, shaharni xitoylarga topshirdilar.

Shunday qilib, 1877 yil 17 dekabrda Lyu szun` tan qo'shinlari Qoshg'arni olishga muvaffaq bo'ldi.

Bekqulbek bilan dungon qo'shinlarining rahbari Bay yan` xu Sin qo'shinlariga qarshilik ko'rsata olmay bir qism askarlarini hujum qilib kelayotgan Sin qo'shinlarini ushlab turishga qoldirib, o'zlari O'ra Osiyo va Qozog'istonga chekindi. Ular bilan birga man'jur-xitoy qo'shinlarining jazolashidan qo'rqib, juda ko'p begunoh xalqlar o'zlarining issiq uy-joy, mol-mulki, ona-vatanini tashlab qahraton qish va sovuq kunlarda tog'-adirlar oshib, O'rta Osiyo chegarasiga qochib o'tdi.

Man'jur-Xitoy qo'shinlarining Sharqiy Turkistonni ikkinchi navbatda qayta bosib olish jarayonida ularning qilgan vahshiyliklarini xitoy tarixchilarining o'zlarigam e'tirof qilib “Butun uy-imoratlar buzib vayron qilingan, mol, chorva va mol-mulklar talon-taroj qilingan, yerli aholini erkak, ayol yoki qari, yosh deb ajratmay qirib tashlaganlar, hamma joyda odamlar, jasaki bilan daryo bo'lib oqqan qonini ko'rish mumkin ” – deb yozgan edi. Xullas, Yettishahar davlatiqulashi bilan minglab Sharqiy Turkistondagi o'zbeklar xonavayron bo'lib

o'z yurtlariga qaytganlar yohud Sharqiy Turkistonning ovloq joylarida yashirilib yurishga, majbur bo'ldilar.

I.3. 1898-yilgi Andijon qo'zg'oloni va milliy ozodlik uchun kurashlar – o'zbek muhojirligi omili sifatida.

Chor Rossiyasining Turkistonga bosqinchilik siyosati maxalliy axoli tomonidan qattiq qarshilikka uchradi. Biroq, harbiy va siyosiy jihatdan qudratli bo'lgan chorizm Turkiston o'lkasini o'zining mustamlakasiga aylantirdi. Mustamlaka tartiblarining shafqatsizligi, mahalliy aholining milliy urf-odatlarini, iymon-e'tiqodining toptalishi, ommaviy xalq qo'zg'olonlarini keltirib chiqardi. O'lkaning turli hududlarida ko'tarilgan qo'zg'olonlardan asosiy maqsad, milliy mustaqillikka erishish va bosqinchilarni zulm va zo'ravonligidan ozod bo'lish edi. Shuning uchun “Bosqindan keyingi o'tgan ellik yilning har besh yilida ikki uchtdan qo'zg'olon isyonlar bo'lib turdi. Xalqimiz mustamlakachilikka o'z nafratini yashirmas, binobarin uning vaxshiyliklari va qonxo'rliklarini bir daqiqa bo'lsada unutmagan, qasos ruhi juda kuchli edi”³⁷.

Chorizmga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonlardan biri mustamlakachilarni sarosima va qo'rquvga solgan 1998 yil may oyida ro'y bergan Muhammad Ali Eshon (Madali Eshon), (Dukchi Eshon) 1946-1998 yil qo'zg'oloni bo'lgandi. Ushbu qo'zg'olonning sabablari, unda kechgan voqealarning tavsilotlari, sovet davri adabiyotlaridagi talqin va istiqlol yillaridagi amalga oshirilgan tadqiqotlardagi haqiqiy baxosi to'g'risida fikr yuritish taqlidchilikdan iborat bo'lardi. Biroq hanzgacha Dukchi eshon qo'zg'oloni va ushbu qo'zg'olon bostirilgandan so'nggi davrlarida Turkiston muxojirligi bilan bog'liq muammo aloxida kichik bir tadqiqot doirasida ham o'rganilgan. Avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, chor mustamlakachilari talqin qilganidek, Madali eshon hokimiyatga intilgan emas. Agar unda yuqoridagi maqsad yetakchilik qilganda edi,

³⁷ Choriev Z. Turkiston mardikorlari : safarbarlik va uning oqibatlari (1916-1917 yillar) T.: Sharq, 1989.-B.38

mustamlakachilar haydab chiqarilgandan so'ng jiyani Abdulazizni xokimiyatga qo'shishni rejalashtirmagan bo'lardi.

Xalq orasida yuksak hurmat va e'tiborga ega bo'lgan mingtepalik Dukchi Eshoning bosqinchilar ustidan g'alaba qilishiga ko'pchilik ishonardi. Ayni paytda esa, chor mustamlakachiligi yillarida va undan keyingi tarixiy davrlarida xorijga chiqib ketgan muxojir turkistonliklar ushbu qo'zg'olondan foydalanib o'z vatanlarini ozod qilish va ota-bobolari yurtiga qaytoqchi ham bo'lganlar. Muhojir o'zbek jamoalari, ayniqcha Turkiyada ko'p bo'lib ularning markazi XVI asrdayoq sulton Selim II (1556-1574) davrida qad ko'targan uch qavatli g'ishtin bino: “O'zbeklar taqiyasi” (buxoroliklar taqiyasi) bo'lgan³⁸.

Muhojir turkistonliklar avval o'sha joyda panohtopib, keyin ma'lum vaqt o'tishi bilan ishga joylashib uy joy qilib, Turkiya viloyatlari bo'ylab tarqalib ketganlar. Dukchi Eshon qo'zg'aloni bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlarda Eshonga qo'zg'alon arafasida turk sultoni Abdulxamid II (1876-1909 yy) “G'azovotga da'vat etuvchi yorliq” kelganligi bilan bog'liq ma'lumot haqida fikrlar uchraydi.

Mazkur masala mohiyatini yorqinlashtirishdan oldin shuni qayd qilish lozim bo'lardiki, chor Rossiyasi bosqinidan oldingi davrlarda ham O'rta Osiyo xonliklarining hukmdorlari “Xalifaning izdoshlari”³⁹ hisoblangan. Turk sultonlaridan hukmronlik yorlig'ini olishga xarakat qilshgan. Biroq, xonliklar o'rtasidagi o'zaro adovat va dushmanlikni avj odirmaslik maqsadida turk sultonlari bunday yorliqni hech qaysi xonga ham yozib bermagan.

Chor Rossiyasi mustamlakasi yillarida esa Turkiston xalqlar ozodlik xarakatlarida Turkiyadan ma'naviy, harbiy va moddiy madad olishga umid qilardi.

Keiyngi tadqiqotlardan ayon bo'ldiki, Turk sultoni Abdulxamid II nomidan Dukchi Eshonni g'azovotga da'vat etuvchi yorliqni Istambuldagi “o'zbeklar

³⁸ Qosimov B. Ikki mamlakatni tutashtiruvchi mamlakatda //Xalq so'zi 1993 15 aprel.

³⁹ Egamnazarov A. Siz bilan Dukchi Eshon. T.: Sharq ,1994. -B.60-63

taqiyasi” shayxi, Muxammad Ziyovuddin “Qoshg'ariy” taxallusli shaxs yuborgan. M. Ziyovuddin turk sultoni Saroyi bilan aloqada bo'lgan⁴⁰. Turk sultonining farmoni va sovg'alarini Muxammadali Xalfaga keltirib bergan. Abdusalil Mirsodiq qori o'g'li ham asli Andijonlik bo'lib, Makkaga haj safariga ketib, chet ellarda ko'p yillar bo'lib, Turkiya fuqaroligini qabul qilgan. U Istambuldan Hindistonga so'ngra Yorkent, Qoshg'ar, Yettisuv viloyatlari orqali Toshkent shahriga yetib kelgan. U 1895 va 1898 yillarda, ya'ni ikki bor Farg'ona vodiysida bo'lgan. Marg'ilon, Quva, Qo'qon shaharlarida Dukchi eshon qo'zg'oloni arafasida esa Andijon uyezdining Shaxrixon shaxrida yashaydi. Qo'zg'olon yengilganidan so'ng Abdusalil Mirsodiq o'g'li Turkistonga ketgan. O'zbek muxojirligi avj olgan yillarda Andijon qo'zg'oloni mag'lubiyatdan so'ng qo'zg'olonga aloqador bo'lgan ko'pgina o'zbek, qirg'iz va tojiklar qoshg'ar, g'ulja kabi shaxarlar (Sharqiy Turkiston) ga o'tib ketishdi. “Mo'yi muborak”, sulton farmoni va maktubini Dukchi Eshonga olib kelgan Abdusalil Mirsodiq qori o'g'li Turkistonga borsa, bu mamlakatdagi o'zbek muxojirlarini Turk sultoni Rossiya talabi bilan ta'qib ostiga olishi mumkin edi. Chunki, Istambuldagi rus elchixonasi Turkiyadagi Turkiston muhojirlari faoliyatini maxsus kuzatib borgan. Shuning uchun Mirsodiq qori o'z yo'lini o'zgartirib, sharqiy Turkistonga kelgan.

Dukchi eshon qo'zg'oloni bostirilganidan so'ng Turkiston general-gubernatorligining Farg'ona viloyatidagi aholini siyosiy va harbiy jihatdan ta'qib qilishi tufayli qo'zg'olon ishtirokchilari sharqiy Turkistonning bir qator shaxarlarida turli nomlar bilan yashirindilar. Farg'ona viloyati harbiy gubernatorining Turkiston general –gubernatorligiga 1902- yilning 18-senabrida yozgan xabarida : Ernazar Do'stqulov ism sharifli asli O'sh uyezdida u Qurshov volostiga ko'chib o'tgan. 1898- yil may oyidagi tartibsizliklarda faol qatnashgan. Qipchog'on volostida yashash manbai topa olmay Qoshg'arga (Xitoyga) o'tib ketgan, aholi orasida darvesh deb nom chiqargan. Surnay

⁴⁰ O`sha asar

chaladi, namoz o'qiydi deb ma'lumot berilgan arxiv xujjatlarida⁴¹. 1901 yil 4 iyunda Qoshg'ardagi Rossiya elchixonasining boshqaruvchisi kapitan Kornilovga yuborilgan ma'lumotnomada esa : “Mullanazar qirg'iz O'sh uezdi Novqot volostidan bo'lib, Bo'rito'qay begi mirzabek boshchiligidagi bir guruh bandidlar bilan Qoshg'arga yashiringani ” qayd qilinadi⁴² .

Qoshg'ardagi rus elchixonasida Turkistonlik mahalliy aholi vakillari ham faoliyat olib borishgan. Elchixona xizmatchilaridan qirg'iz xalqi vakili Sayibnazar 15 yildan buyon (1885-1900 yillar) rus vakolatxonasida sadoqat bilan ishlab turganligi, ko'plab Turkistonlik qochoqlarni qo'lga olganligini Rossiya bosh elchisi o'z xisobotlaridan birida alohida qayd qilgan⁴³. Hujjatlardan birida 1898- yildagi qo'zg'olonda ishtirok etib, Mullanazar qirg'iz bilan birga qoshg'arda yashiringan 8 ta shaxs va ularni taniydigan Muso polvon va Mamed Sharifni guvohlik maqsadida so'roq qilish zarurligi va turkistonlik qirg'iz qochoqlarini tutish uchun Xitoy mahalliy hukumatidan yordam so'rash haqida qaror qabul qilingan ⁴⁴.

Yuqoridagi ma'lumotlar bir necha 1898 yil may Ma'dali Eshon qo'zg'oloni va boshqa ozodlik harakatlari bostirilganidan so'ng ko'plab ushbu harakatlarda ishtirok etganlar xorijga o'tib yashirinishga majbur bo'lganligidan dalolat beradi. Xullas, Ma'dali eshon qo'zg'olonining shafqatsizlik bilan bostirilishi, qo'zg'olonchilardan ayovsiz o'ch olishi tufayli bu harakatga aloqador bo'lgan shaxslar qo'shni Xitoy davlati muhojirlikka ketishga majbur bo'lganlar. Chor ma'murlari ularni tutib jozolash choralari ko'rishgan. Xitoyga o'tgan muxojir turkistonliklarning o'zga mamlakatga ahvoli esa og'ir kechgan.

1916- yilda Chor Rossiyasi urush tufayli (1914-1918) Turkistonda harbiy holat e'lon qilib ta'qiq va zo'ravonlikni kuchaytirib yubordi. Jizzax qo'zg'aloni davrida ming-minglab o'zbeklar Xitoyga qochganlar. Qochoqlar

⁴¹ Hayitov SH.A. , Saidov I.M. Xorijdagi o'zbeklar tarixi va etnografiyasi. – Samarqand-2015.

⁴² O'sha asar.

⁴³ Hayitov . Sh. A. O'zbek muhojirligi tarixi.-T.: 2008.-B.38

⁴⁴ Hayitov . Sh. A. O'zbek muhojirligi tarixi.-T.: 2008.-B.38

sharqiy Turkistonning Qoshg'ar uyezdi hamda Uchqo'rg'on, Oqsuv vohalariga yo'l oladilar. 1916 yil sentyabr, oktyabr oyida qochoq o'zbek, qirg'iz, tojiklar soni 150 -200 ming kishiga yetdi. Umuman, Shin Jon uyg'ur muxtor rayonining 1916 yilgi xalq qo'zg'oloni davrida 300 ming kishi qochib o'tdi. Turkistonlik muhojirlar qattiq qiyinchiliklarga duchor bo'lib ochlik va kasalliklar girdobida bo'ldi. Qochoqlar, xitoy xududiga o'tar vaqt 90% otlari, 413 qism qo'y-qo'zilari, 50 % tuyalari 543 boshli qora mollardan ajraldilar. Xitoyda yashashga majbur bo'lgan o'zbeklarga mahalliy hukumat salbiy munosabatda bo'ldi. Ular ko'chkindilarning chorva mollari, qurol-yaroqlari, mehnat qurollari pullarini tortib oldi. Sharqiy Turkistonga o'tgan muhojirlar Uchqo'rg'on, Oqsuv, Qoshg'ar shaharlarida o'zlarining madaniy ma'rifiy tashkilotlarini tuzdilar. Ushbu tashkilotlar Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash targ'ibotni yuritdi. Muhojir savdogar o'zbeklarning tashkiloti Qoshg'arda yana o'sha savdo firmasi raxbari B. Musaboev tomonidan "Geloxoy" nomli bilan 1905 yildayoq tuzilgandi. Xullas sharqiy Turkiston, Rossiya imperiyasi mustamlaka yillarida muxojirlik maqsadida bir butun ayniqsa Farg'ona vodiysidan minglab olimlar sharqiy Turkistonga o'tgandilar.

II Bob. Muhojirlarning mashaqqatli yo'li va Sharqiy Turkiston o'beklari etnografiyasi

2.1 Sharqiy Turkistonga o'tish yo'llari va chet el hududlari bo'ylab joylashuv

O'rta Osiyo millati vakillari XIX asr oxiri- XX asr boshlarida va sovet hokimiyati yillarida ommaviy ravishda muhojirlikka mahkum etilgan edilar.⁴⁵ “Muhojirlik to'lqinlari” Farg'ona vodiysi axolisi orasida keng tarqalib, 1898 yildagi Andijon qo'zg'oloni 1916 yildagi mahalliy aholini mardikorlikka olishga qarshi ko'tarilgan halq qo'zg'aloni paytida yakka kuzatiladi. Oldingi bo'limlarda 1898 yildagi Andijon qo'zg'oloni tufayli kelib chiqqan muhojirliklar haqida fikr yuritildi.

1916 yildagi xalq qo'zg'oloni mag'lubiyatga uchraganidan so'ng Farg'ona vodiysidagi 300 ming sonli aholi, ommaviy ravishda chorva mollari bilan Sharqiy Turkistondagi Qoshg'ar, G'ulja, Yorkent kabi shaharlariga va ular atrofidagi qishloqlariga ko'chib ketishgan. Mashaqqatli yo'l azoblari tufayli muxojirlar safar davomida 314 qism mayda tuyoqli 90 foiz yirik chorva mollaridan ajralganlar. Muhojirlar orasidagi ko'pchilik kasallanib qolgan, ular yo'l azobini ko'ta olmay hayot bilan vidolashgan. (haqidagi oldingi boblarda qayd etdik). Qo'shni Afg'oniston hududi bilan O'rta Osiyo o'rtasidagi chegaralar chizig'i Amudaryo orqali o'tgan bo'lib ulkan masofaga cho'zilgan chegaraning barcha nuqtalarini bir xil nazaorat qilish imkoniyati mavjud bo'lmagan. Qolaversa daryoning daryovotlar hosil qilib oqadigan qismlarida qalin to'qayzorlar, keng suv nisbatan ohista va sekin oqadigan sayos joylar ham bor edi. To'qayzorlar muhojirlikka ketadiganlar uchun qulay fursatni kutib yashirin o'tish, chegaralarining nazariga tushmasliklari uchun qulaylik tug'diraradi. Daryoning sayos, sokin oqadigan joylaridan qayiq, qo'l bola qayiq

⁴⁵ Qarang. Hayitov Sh. Solmonov A. Yo'ldoshev S.O'zbek muhojirligi tarixidan lavhalar.”Farg'on “ nashriyoti-1998.b.34-35.

(guftsarlar) da chuzib o'tish xafsizligi kam edi. Tarixiy hujjatlarda, tadqiqotlarda va badiiy asarlarda qayd etilganidek daryo o'zani bo'ylab cho'zilgan uzoq masofalarda “pul va boylikka o'ch”, “puldor qochoqlar” ni Afg'onistonga o'tkazib qo'yishiga xizmat ko'rsatadigan “turkman yo'l boshlovchilari” bo'lgan. Ular Amudaryoning suvi qurib orolchalar hosil qilingan joylarida nomigagina dehqonchilik qilishar, ayrimlari ovchilik, chorvachilik, (asosan qo'ychiqonlik) bilan shug'illanishardi. Muhojirlar yarim tunda 15-30 oila bo'lbi o'z qishloqlarini tashlab Amudaryo tomonga qarab yo'lga tushishar, yashirin va ovloq yo'llardan foydalanilib bir hafta 10 kun ichida manzilga yetishardi. Ovloq joyda payt poylab yotganlarni “turkman yo'l boshchilar” izlab ketar, o'zaro har bir kishi boshiga bir oltin tanga olish evaziga xorijga o'tkazib qo'yish shartnomasi tuzilardi ⁴⁶. “Turkman yo'l boshchi” lar hamma vaqt ham o'sha olingan tangalar evaziga “halol” xizmat qilishmagan. Eski ishonchsiz qayiqlar egasi bo'lgan banday johil manfaatparast va ochko'z “turkman yo'l boshchi”lari ko'p hollarda muhojirlarni ayniqsa, “puldor qochoqlar”ni o'ldirib, yoxud daryoga cho'ktirib uning bor yo'qlarini tortib olishgan. Haydar Yaxyoevning “Tilsim” nomli tarixiy romanida ko'rsatilishicha, “Turkman yo'l boshlovchilar” orasida OGPU (bosh siyosiy boshqarma) ayg'oqchilari bo'lib muhojirlikka mahkum etilganlar orasiga suv qilib kirishar, sovet maxsus idorasi xodimlari va chegarachilar bilan birgalikda Vatanidan yo'li ayri tushganlarni o'qqa tutib, bitta qolmay qirib tashlashar, pul va buyumlarini talashardi. Bunday vahshiylik oqibatida yosh go'daklardan tortib keksalargacha barcha halok bo'lardi, ularning jasadlari esa daryoga cho'ktirib yuborilgan⁴⁷.

Amudaryodan qo'shni Afg'onistonga o'tish uchun qulay bo'lgan yo'llar esa, chegarachilar tomonidan qattiq qo'riqlangan. Panj daryosi bilan Baxsh daryosi qo'shiladigan Chudek armog'i (Oxirgi Tojikiston Respublikasi) xududida orkali tavakkal qilib Afg'onistonga o'tmoqchi bo'lganlar haqida o'sha davr

⁴⁶ Hayitov Sh. A. Sobirov U .B.1898 yilgi Andijon qo'zg'oloni va Turkiston muhojirligi//Bux DU ilmiy Axboroti; 2006.-N 2.b.228

⁴⁷ Hayitov SH. A. Saidov I.M. Ko'rsatilgan asar...-b.107.

matbuoti ma'lumotlar beradi. Tarixiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bunday muhojirliklarning aksariyati daryo o'rtasida chegarachilar o'qidan halok bo'lib, jazadlari baliqlarga yem bo'lgan. Ayrim muhojirlar XX asr boshlarida xonliklar bilan Afg'oniston va Xitoy o'rtasida tashkil etilgan Karki, Kelfi, Cho'chqaguzar, Patta-Xissor, Yorkent, Baxt, Xarchas, Qo'lja, Issiqko'l, Norin, Ergashxon kabi bojxonalar orqali chet elga o'tib ketish "baxti" ga muyassar bo'lishgan⁴⁸. Bu esa kamdan-kam uchraydigan holat edi. Farg'ona vodiysi Sharqiy Turkiston (Xitoy) bilan chegaradosh bo'lib, aholining katta qismi Andijon-O'sh-Qoshg'ar o'rtasidagi an'anaviy savdo yo'llari orqali Sharqiy Turkiston shaharlari hisoblangan Qoshg'ar, Yorkend, G'ulja, Ko'rla, Kuchar kabilarga borib o'rnashganlar. Sharqiy Turkiston bilan O'rta Osiyoni bog'laydigan oltita quruqlik yo'li va bitta suv yo'li bo'lgan. Biroq an'anaviy savdo yo'llari orqali xorijga o'tish xavfli bo'lib, bu yo'llar sovet chegarachilari tomonidan qattiq qo'riqlangan.

Muhojir bo'lib yo'lga chiqqanlar, imkon qadar tog' so'qmoqli yashirin yo'llaridan foydalanishardi. Tog' yo'llarining noqulayligi, qor ko'chish xavfining kuchliligi, izg'irin sovuqda muzlab qolish ehtimoli mavjudligi, yovvoyi, vahshiy hayvonlarga duch kelib qolish ehtimoli oziq-ovqat zahiralari tugab qolish holati, chegarachilar bilan yuzma-yuz kelib qolish mumkinligi, ot, xachir va eshak kabi ishchi hayvonlarning muzlab qolib, hamma vaqt ham yo'lni davom ettira olmasligi kabi ko'pdan-ko'p omillar muhojirlarni qiynardi.

1920-1930- yillarda Qirg'izistonning To'qmoq shahridan Beloshuv dovoni orqali to'rt bor Sharqiy Turkistonga safdoshlari bilan o'tib qaytgan Alixonto'ra Sog'unliy (1890-1976 yy) yashirin tog' yo'llaridan foydalanganligini o'z kitobida yozib qoldirgan⁴⁹. Bu yo'llardan xavotirsiz o'tish uchun qirg'izlardan "qorovul yo'lboshchi" yollangan. Qirg'iz yo'l ko'rsatuvchilari ham

⁴⁸ Safarov T.T. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlariga O'rta Osiyo savdo yo'llari .Tarix fanlari nomzodi ilmiy darjasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya.-T.:2009.-b.21.

⁴⁹ Alixonto'ra Sog'unliy. Turkiston Qayg'usi.-T.:2001.-b.121.

ba'zida tumanli, bulutli kunlarda, qor ko'chishlari oqibatida adashib qolardilar.

Muhajir o'zbek va qirg'izlar “Ikki kizak”, “ Simxon” postlari hamda “Ko'ksuv” tekshiruv posti orqali o'tmoqchi bo'lganlar. Bunday paytda ko'plab muxojirlar ushlab qolinar, ularning pul va buyumlari tortib olinardi, o'zlari bir muddat tutqinlikda saqlanib ortga qaytarib yuborilardi. Tarixchi olim Sayfiddin Jalilning yozishicha, 1930 yillarda “Ko'ksuv” tekshiruv postida diniy ulamolar va dunyoviy ilm sohiblaridan musodara qilib olingan kitoblardan gulxan tashkil etilib, uch kun chegarachilar unda isinib turishgan⁵⁰.

Quyida muhajirlikka mahkum etilganlarning yo'l mashaqqatlari haqida ayrim lavhalar keltiramiz.

Muhajirlik qismati bitilganlar orasida endigina dunyoga kelgan murg'ak go'daklardan tortib, 3-5, 8-9, 11-15 yashar bolalar ham anchagina foizni tashkil etardi. Ular ota- onalari taqdiriga bitilgan muhajirlik azob va mashaqqatlarini o'z padari-buzrukvorlari, volidalari va qavm- qarindoshlari bilan birga tortdilar. “Men 38 kunlik chaqaloqlik paytimda ota-onam va qavm-qarindoshlarim bilan Farg'ona viloyati Toshloq tumani Varzak qishlog'idan yo'lga chiqib, Amudaryoning sayoz joyidan Afg'oniston hududiga o'tganman. Amakivachcham Said Ahmad bilan biz bir kunda tug'ilganmiz. Buvak Said Ahmad yo'lda chinqirib yig'lagani, uni tinchitish uchun “turkman yo'lboshlovchilar”dan biri bergan qora doridan o'lib qolganini otam Xolmuhammad Xokiy hikoya qilib bergandilar. Hozir Turkiyada yashayman, Istambulning Boyazid maydonida uchta savdo do'konim bor. Qizim Turkisda, o'g'lim Javdot Sayhonli AQSH da istiqomat qiladi,- deb hikoya qiladi havaskor shoir va yozuvchi Sobir Sayhonli⁵¹.

⁵⁰ Jalilov S. Buxoriylar qissasi (Muxojirat tarixidan lavhalar).T.: “Toshkent Islom Universiteti” nashriyot Matbaa birlashmasi,2006.-b.46.

⁵¹ Sobir Sayhon. Adashganlar: Qissa /Nashrga tayyorlovchi T .Qahhon. – T.: Cho'lpon,1996.-b.56.

2-3 yashar bolalik davrida ota-onasi bilan 1930 yillarda Qirg'izistonning O'shidan Yorkent o'tgan (XX) , hozirda Saudiya Arabistoni fuqarosi hisoblangan, muhojir o'zbek Zuhridin Mirzo Obid o'g'li Turkistoniyl Hazon bo'lgan, azob-uqibatlariga to'la bolalik davrini quyidagicha eslaydi: “Otamiz Hindiston safarini ixtiyor ayladilar...safariimiz juda qiyin kechdi. Biz faqat tog'ma-tog' yurishimiz kerak bo'lib, hamma yoq oppoq qor bilan qoplangan edi. Buning ustiga chegarachilar sezib qolmasligi uchun faqat tundagina yo'l bosardik. Chegarachilar qo'lga tushganlarga “qochoq” tamg'asi yopishtirilib, qattiq jazo berilardi. Shuning uchun kechalari sovuq avjiga chiqqanda nafasimizni ichimizga yutib yo'lga tushardik. Har qadamda baxtsizlikka uchrash mumkin edi. Sho'rlik otlar gurtik(qalin) qorlarda, muzlarda munkillab ketaverganidan dam o'tmay qora tegra tushardi. Shunday paytlari o'lib ketmasligimiz uchun, biz bolalar egarlarga mahkam bog'lab qo'yilgandik. Xudo ko'rsatmasin agar biron bola egardan uchib ketsa, to'g'ri jahannamga ro'para bo'lardi. Endi u yo'llardagi qor qoplagan daralar, jarliklar.- Eslasam hali- hali yuragim uyushadi. Har bir nojo'ya qadam umrga zomin bo'lishi mumkin edi. Biron joyim lab yeb og'risa ham churq etib og'iz ochmas, men tufayli, butun to'daning chegarachilar qo'lga tushib qolishini istamas edim. Ba'zan oynaday silliq muzliklarga duch kelardik. Bunday yo'llarda otlar umuman yurolmay qolardi. Shu tufayli o'zimiz bilan olib ketayotgan cho'g'day gilamlarni bemalol otlarning poyiga tashlardik...Olis-olislarda chegarachi itlarning hurgani eshitilib turar, shundoq izimizda esa och bo'rilar izg'ib yurar, sal qarovchiz qolgan otlarni yeb ketishardi. Biz bolalarning suyak –suyagimizdan sovuq o'tib ketardi. Biror dara yoxud chuqurlikka tushib jon saqlardik. Oqarib- bo'zarib ketgan yuzlarimizga kattalar nochorgina boqishar, bizlarni shu kuylarga solganlarni, Vatanimizdan judo qilganlarni yig'lab-yig'lab qarg'ashardi”⁵²

Yo'l davomida tog' tepasiga ko'tarilganda havo bosimi pasayib, havo yetishmasligidan olov yoqish qiyinlashgan, ovqat pishmay qolib, bolalar go'sht,

⁵² Zuhridin Mirzo Obid o'g'lo Turkistoniyl. Anda jonim qoldi mening... Xotiralar. –T.:Cho'lpon,1992.-b7-8.

guruchlarni yarim xom holda iste'mol qilishgan. Zuhriddinlarga hamroh bo'lgan Akbar Maxsumboy ism-sharifli shaxsning 3 yashar o'g'li shamollash tufayli onasi Tursunoy xolaning qo'lida chinqirab yig'laydi. Unga yo'l boshlovchilardan biri qora dori berib uxlatadi. Biroq Abdurahim qayta uyg'onmaydi, ota-onalari bu judolikka chiday olmay, ovoz chiqarmay yig'lashgan, Abdurahimni qorga daft etishadi. Zuhriddin Turkistoniy : “Nihoyat yo'l tugadi. Manzilga yetdik. Ammo bu yo'l omonsiz yo'l edi. U oramizdan bolalikning bahorlarida baxtiyor yashashi lozim bo'lgan mittigina do'stimiz Abdurahimni yulib olgan edi”- degan jumlaning o'ksik alam bilan yozgandi.

Yasama qayiqlarda (gufsarda) muhojirlikka suv yo'llari orqali o'tganlar xam xavf-xatardan xoli bo'lishmagan. Gufsar daryoning tez oqar joyiga tushib qolganida asosan ayollar va bolalar boshi aylanib suvga ag'darilib halok bo'lganlar.

Yetti yasharligida (1932 yil) dadam va akam Muhammad Odil bilan eson-omon Saroy Kamarga (Amudaryo bo'yida) keldik, deb hikoya qiladi, Saudiya Arabistonining Makka shaxrida istiqomat qiluvchi millatdoshimiz Muhammad Yusuf. So'ngra tunda Amudaryo bo'yiga yetib borib, gufsar kira qilib o'tirdikda, 15 chog'li odam Afg'onistonga qarab suzdik. Kutilmaganda qirg'oqdagi qamishzordan otilgan o'q yo'l boshlovchiga tegib, til tortmay o'ldi. Gufsar daryoning chuqur aylanmasiga tushib qoldi. O'shanda 9 yashar akam Odiljon boshi aylanib, suvga ag'darilib halok bo'ldi. Onam “voy bolam-ey” deb ketidan o'zini suvga otayotganda, xayriyat dadam ushlab qoldi. Bir yil o'tar- o'tmas farzand dog'ida onam ham vafot qildi.⁵³ Muhojir o'zbeklarning hikoya qilishlaricha, gufsarda daryodan o'tmoqchi bo'lgan bir ulamo, daryoning tez oqadigan qimiga tushib qolgan. U eshagi bilan gufsarga o'tirib suzgan. To'lqinda eshagi ag'darilib suvga yiqiladi. Eshakning ustiga xurjinning ikki ko'zi to'la ilmiy kitoblar yuklangan bo'lgan.

⁵³ Jalilov S. Buxoriylar qissasi (Muxojirat tarixidan lavhalar).T.: “Toshkent Islom Universiteti” nashriyot Matbaa birlashmasi,2006.-b.57.

Ag'darilayotgan eshak ustidan xurjinidagi kitoblarni qutqaraman deb, mullaning o'zi ham suvga g'arq bo'ladi, kitoblar ham oqib ketadi. Bir ona daryoning o'rtasiga borganda o'zaro otishmalardan vahimaga tushib, emizikli go'dagini daryoga tushirib yuboradi. Xorijga o'tganida farzand dog'ida bu onaxon savdoyi bo'lib qoladi. Bir safar gufsarga o'tirib suzayotgan ayol to'lqin natijasida beshikka belab o'tirib suzayotgan ayol to'lqin natijasida beshikka belab qo'yilgan chaqalog'i bilan suvga ag'darilib oqib ketgan. Afg'onistonning Qunduz shahriga eson-omon yetib olgan ota esa, xotini va farzandi dog'ida ko'p o'tmay jon taslim qilgan. Bu kabi inson qalbini larzaga keltiruvchi fojeali lavhalarni muxojirlik tarixidan ko'plab keltirish mumkin.

Xorijga eson-omon o'tib olgan bolalar balog'atga yetmasdan ota-onalariga tirikchilik ilinjida yaqin yordamchi bo'lib, og'ir mehnat qilishga majbur bo'ldilar. Ularning bolalik davri mashaqqatli o'tdi. Shunga qaramay, millatdoshlarimiz uzoq xorijiy mamlakatlarida o'z hayot yo'llarini qura oldilar va oqil, ma'lumotli bolalarni tarbiyalab voyaga yetkazdilar.

Farg'ona vodiysidan Sharqiy Turkiston va Afg'onistonga o'tish uchun yo'lga chiqqan muhojirlar safar oldidan uzoq va oxiri ko'rinmaydigan yo'lda iste'mol qilish uchun zahiraga yopib quritib olingan kulcha, nonlar va tut talqonlar tayyorlashgan. Yo'lga tunda chiqilar, asosan kuzda muxojirlik jarayoni avj olar, chegira chiziqlari havo, sovuq va bo'ronli kunlarda to'la nazorat istida bo'lmasdi, hamda bo'sh qo'riqlanardi.

Sobiq SSSRning Qoshg'ardagi konsulxonasi Ikkinchi jahon urushidan so'ng Sharqiy Turkistondagi muhojir o'zbek, qirg'iz, tojiklarni majburan sovet fuqaroligiga o'tkazgan. Shu sababli 53 ta o'zbeklar oilasi Qoshg'ardan Pokistonga qarab yo'lga chiqishgan. Ular "Dir" dovoni orqali Pokistonning Ravalpindi va Karochi portiga qarab yurishgan. Yo'lda mashaqqatli to'siqlar

bartaraf etilib, Karochi porti orqali minglab farg'onaliklar Saudiya Arabistoniga yetib borishgan.⁵⁴

Xullas, Rossiya imperiyasi mustamlakasi va sovet xokimiyati yo'llarida ming-minglab “Farg'oniylar”, “Qo'qandiylar”, “Andijoniylar”, “Namangoniylar”, “Marg'iloniylar”, “Chustiylar”, “To'raqo'rg'oniylar” xorijning o'nlab mamlakatlariga muhojirlikka ketishga majbur bo'lganlar. Bugungi kunda “Farg'oniylar”ning to'rtinchi avlodlari Sharqiy Turkistonda turli kasb-hunarlar bilan shug'ullanib kelmoqdalar. Ularning orasida tadbirkor va ziyoli o'zbeklar, yuqori chindagi harbiylar hamda islom dunyosining taniqli ulamolari ham bor.

2.2. Sharqiy Turkiston o'zbeklarining o'zlikni , o'zbekona odob-ahloq va milliy urf odatlarni saqlab qolish uchun kurashlari.

Insoniyat hayotining davomiyligi oila va unda voyaga yetadigan bolalar orqali ta'minlanadi. Shunday ekan, bolalarni jismonan va aqlan barkamol qilib tarbiyalash, ular kamolotiga yetuvchi muhozaga olish, g'amxo'rlik qilish, huquqiy himoyaga olish davlat siyosati darajasidagi vazifa hisoblanadi. “Bolalarni himoya qilish zarurligi 1924 yilgi “Bola huquqlari Jeneva deklaratsiyasi”da , 1959 yil 20 noyabrda BMT ning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Bola huquqlari deklaratsiyasida”, 1948 yil 10 dekabrda “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida”, “Fuqarolik va siyosiy huquqlar xalqaro hujjatining 23 va 24- moddalarida”, “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro hujjatlar”ning 10-moddasida, BMT ning “Balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan” odil sudlovni amalga oshirishga taaluqli “Pekin qoidalar” da “Favqulotda holatlarda va qurolli mojarolar davrida va bolalarni himoya qilish to'g'risidagi deklaratsiya” kabi o'nlab tarixiy

⁵⁴ Jalilov S. Buxoriylar qissasi (Muxojirat tarixidan lavhalar).T.: “Toshkent Islom Universiteti” nashriyot Matbaa birlashmasi,2006.-b.51.

hujjatlarda aksini topgan. “Bola huquqlari to'g'risida konvetsiyaning 37-moddasida”) birorta ham bola qiynoqlarda yoki boshqa shavqatsizlarcha , g'ayriinsoniy yohud qadr- qimmatni oyoq osti qiladigan muomala yoki jazoga duchor etilmasligini, na o'lim jazosi, na ozodlikka chiqarish imkoniyatini ko'zda tutmagan umrbod qamoq jazosi 18 yoshdan kichik shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun belgilanmaydi”⁵⁵ - deb yozib qo'ygan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobida– onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik, davlat tomonidan muhofaza qilinadi⁵⁶ degan jummalarni o'qiymiz.

Biroq Sovet Ittifoqi mavjud bo'lgan davrda (1917-1991 yillar) ayniqsa, XX asrning birinchi yarmida bolalarni himoya qiladigan biror bir halqaro tashkilot yohud uyushma mavjud emasdi. Bolalarga munosabat har bir davlatning o'z qonunlaridan kelib chiqib belgilanar edi. Turkiston mintaqasidan xorijiy davlatlar tomon ommaviy tus olgan muhojirliklar davrida jamiyatdagi turli tabaqa, ijtimoiy qatlam, aholi guruhlaridan iborat vakillar muhojirlikka mahkum etildilar. Muhojirlik qismatiga bitilganlar orasida endigina dunyoga kelgan murg'ak go'daklardan tortib, 3-5,8-9,11-15 yashar bolalar ham anchagina foizni tashkil etardi. Ular ota-onalari taqdiriga bitilgan muhojirlik azob va mashaqqatlarini o'z padari-buzrukvorlari, volidalari va qavm-qarindoshlari bilan birga tortdilar.

Bolalarning hammasi ham chet el qirg'oqlarigacha yetib borolmadi. Xorijga eson-omon o'tib olgan bolalar balog'atga yetmasdan ota-onalariga tirikchilik ilinjida yaqin yordamchi bo'lib, og'ir mehnat qilishga majbur bo'ldilar. Ularning bolalik davri mashaqqatli o'tdi. Shunga qaramay millatdoshlarimiz uzoq xorij mamlakatlarida o'z hayot yillarini qura oldilar va oqil, ma'lumotli bolalarni tarbiyalab voyaga yetkazdilar.

⁵⁵ Qarang: Bola huquqlari to'g'risida konvensiya (yuridik fanlar nomzodi Axtam Salomovich Tursunov) T.:2001.-b.31

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi- T. O'zbekiston 2016- b .22.

Muhojirlik to'liqlari yuz bergan tarixiy davrlardan ham salkam bir asrlik muddat o'tdi. Bu davrda xorijdagi o'zbeklar tarixida avlodlar almashinuvi yuz berdi. Tarixchi olim Sayfiddin Jalil O'zbekistondan Saudiya Arabistonga chiqib ketganlarni to'rt avlodga bo'ladi. "Dastlab xorijga chiqib ketganlar, asosan, 25-50 yoshlilar o'rtasida bo'lib, ular buxoriylarning birinchi avlodi hisoblanadi. Bu avlod Vatan⁵⁷ firoqida o'rtanib, unga talpinib yorug' dunyoni tark etdilar. Ona yurtida tug'ilib, ota-onalari bilan birga ketganlar, ya'ni 1 yoshdan 15 yoshgacha bo'lganlar buxoriylarning ikkinchi avlodi bo'lib, ularning asosiy qismi hozirda hayotdir. Ularning farzandlari buxoriylarning uchinchi avlodi hisoblanadi. Bu avlod vakillari xorijda tug'ildi, o'sdi, o'qidi va oila qurdi. Ularning farzandlari esa to'rtinchi avlodni tashkil etadi. Binobarin, buxoriylar uchinchi va to'rtinchi avlodning kindik qoni Saudiya Arabistoniga (xorijda) to'kilgan- deb yozadi, O'zbekiston tarixchilarining keksa avlodi⁵⁸. Sharqiy turkiston o'zbeklari ham hozirda to'rtinchi avlod hisoblanadi.

Shunday ekan, hozirgi glaballashuv, intensivlashuv, insonparvarlashuv, modernizatsiyalashuv jarayonlari, kechayotgan turfa xil dunyoda, xorijdagi o'zbeklar assimillatsiyalashuvi ta'siriga berilib ketadilarmi yohud o'zlarining etnik xususiyatlarini saqlab, o'zbek millati vakillari sifatida tarix charxpalagida abadiy aylanadilarmi? Hozirda yer yuzida yuqoridagi jarayonlar bilan birga etnik renessans (uyg'onish) ham kechayotgani, milliy o'zlikni anglash, ma'naviy sarchashmalarga murojaat qilish, til va urf-odatlarini tiklash ko'p jihatdan davlatlar siyosaida muhim o'rin tutayotganligini ham e'tirof etmoq kerak. Muhojir o'zbeklarning birinchi va ikkinchi avlodlar –asl Vatanlari O'zbekistonda tavallud topganligi, ta'lim va tarbiyani ajdodlar zaminida olganligi (yohud qisman olganligi) tufayli ularda o'zlikni saqlash tendentsiyalari yetakchilik qilgan. Shu sababli ular farzandlariga ta'lim –tarbiya berishda milliy mintalitet, islom axloqi va ma'naviyati tamoyillaridan kelib chiqib ish ko'rganlar.

⁵⁷ Muhojir o'zbeklar O'zbekistonga nisbatan "Vatan", "Mamlakat" kabi atamalarini qo'llaydilar.

⁵⁸ Sayfiddin Jalil. Buxoriylar Qissasi.-T;2006, b.77.

Birinchidan, ular muhojirlik vaqtinchalik jarayon, biz Vatanga qaytib boramiz, degan kelajakka ishonch hissi bilan yashashgan. Shuning uchun Turkiston mintaqasiga chegaradosh bo'lgan mamlakatlarda (Afg'oniston XXR, Eron) da ular zich yashashar va qulay vaziyatni bir umr kutishdi.

Ikkinchidan sovet hokimiyati qum ustiga qurilgan davlat, tez vaqtda yemiriladi. O'zbekiston mustaqil va ozod bo'ladi, deb fikr qiluvchilar ham ular orasida kam sonli emasdi.

Uchinchidan, jahonda ketgan keskin siyosiy voqealar (ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi) SSSR ni parchalanishiga olib kelishidan umidvor bo'lganlar ham anchagina foizni tashkil qilgan. Biroq, sovet xokimiyati yashovchan chiqdi, uning 74 yillik tarixida Vatanga intilib, bir bor ko'rish, ajdodlar tuprog'ini tavof qilish orzusida ming-minglab o'zbeklar armon bilan hayotdan ko'z yumdilar. Yuqoridagi omillardan kelib chiqib, muhojir o'zbeklarning dastlabki avlodlari o'zbekchilikka xos bo'lgan ona tilga hurmat, mehnatsevarlik, halollik, taqvodorlik, bag'rikenglik (tolerantlik) mehmondo'stlik, bir-biriga yordam ko'rsatish, iymon-e'tiqodli bo'lish kabi jihatlarni saqlab qoldilar. Shuningdek, ularda o'zbek xalqiga xos bo'lgan ko'p farzandlilik, bolajonlik jihatlari ham ko'zga tashlanadi. 1920-1930 yillarda muhojir bo'lgan o'zbeklar 5-7 ta , xatto, 10 tagacha (ayniqsa, Sharq mamlakatlarida) bolalarni boqib, o'qitib, uyli-joyli qilganliklari haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud.

Bolalar ta'lim- tarbiyasida ko'rilgan eng muhim tadbirlardan biri: bu o'zbek jamoalari zich yashagan mamlakatlardagi mahallalarda bolalarga milliy tilda ta'lim beradigan, iona va badallar hisobiga faoliyat yuritadigan boshlang'ich hamda o'rta maktablar, o'zbek tilini o'rgatadigan yakshanbalik maktablari ochilganligidir. Ularda asosan muxojir o'zbeklar orasidan tanlab olingan ziyolilar dars berishgan.

Ushbu maktablardan birida o'qigan , “Qaytar dunyo” romani va “Muhojirlik ” turkum hikoyalarining muallifi Yoqubbek Yakvalxo'jaev

quyidagicha eslaydi: “O'zbeklar G'ulja shahrida (XXR, Shing-jang muxtor rayoni) o'zbek tilida ta'lim –tarbiya beradigan maktab qurdilar. Maktab muhojir erkak va ayollar mehnati bilan qurildi. Maktab Alisher Navoiy nomidagi o'zbek “Namuna” maktabi bo'lib, unda Aqlima, Ovqat, Ravziya onalar Eminjon afandi, Sunnatilla, Shahobiddin, Nabi, Ubaydulla, Qodir, Hikmat afandi kabi ziyolilar dars berdi. “Ona tili va adabiyot o'qituvchimiz Eminjon afandi ba'zan qiyinroq so'zlarni yoki nomlarni yaxshi talaffuz qilolmasak, sekin yonimizga kelib : “Bugun bo'lmasa indin o'z uyinga borasan (O'zbekistonga) bolam, o'sha yerda shunday gapirib o'tirsang uyat, kim o'qitgan ona tilidan, deb so'rasalar, men ne degan odam bo'ldim der edilar”⁵⁹ .

1990 yilning aprel oyida “O'zbekistonda bo'lgan saudiyalik o'zbek Xalifa Ismoil: “Padari buzrukvorimiz, volidayi mehribonlarimiz bizlarga: “Hech qachon yurtlaringni tillaringni unutmanglar. Chunki tilni unutgan Vatanni unutadi. Vatanni unutgan esa imonni unutadi”- deb ma'lumot bergandi. Muhojir o'zbeklar o'sha qattol yillarda O'zbekistonga maktublar yo'llab, arab va lotin imlosida yozilgan o'zbek tilidagi darsliklar yuborishni, radio-eshittirishlar orqali 30 minutlik o'zbek tilidan darslar o'tishni iltimos qilganlar.

Xorijdagi o'zbeklar bolalar tarbiyasida, ularda bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshligidanoq o'z mehnati bilan sarmoya topish ko'nikmalarini tarbiyalashga e'tibor qaratganlar. Bolalarni maktab, litsey, kollejlarda o'qitish bilan birga, yozgi ta'til vaqtida oshxona va qahvaxonalarga, mehmonxonalarga mavsumiy ishlarga jalb qilishga e'tibor qaratilgan. AQShlik badavlat o'zbeklardan biri bilan qilgan muloqotimizda, u katta firmaning egasi bo'lishiga qaramay, yozgi ta'til paytida maktab o'quvchilari bo'lgan ikki o'g'lini ko'chada gazeta sotishga qo'yish, bu orqali shaxsan o'zlari sarmoya topishga o'rganganligini hikoya qilgandi. Xorijdagi o'zbeklarda mehnat tarbiyasida asosan maqsad bolalarni biror bir kasb egasi (aqliy yoxud jismoniy) qilish istagi yetakchilik qilgan.

⁵⁹ Yakvalxo'jayev Yo. Yozig'imiz ne edi//O'zbekiston adabiyoti va san'ati.1993 yil, 13 aprel.

Bolalarni islom axloqi va ma'naviyati asosida tarbiyalash, ya'ni ularni rostgo'ylik, halol, imon-e'tiqodli, ota- onaga hurmat ruhida voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratilgan. Katta yoshli o'zbek muhojirlari bilan muloqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, ular “Qur'oni Karim” hadisi- sharifdan lavhalar keltirib dilkash suhbat quradilar. Masalan: ota-onaga hurmat-izzat ko'rsatish to'g'risida Rasulluloh: “Allohning roziligi ota-onaning roziligidadur va Allohning g'azabi ota-onaning g'azabidadur. Va kim ota- onaga itoat etsa, u Allohga itoat etibdi va kimki ota-onaga g'azab qilsa, u Allohga g'azab qildi”- deganlar. Shuning uchun ota-onasini rozi qilgan solih farzandlar Allohni rozi qilgan hisoblanadilar.

Ota-ona chaqirganda “labbay” deb javob bermoq, yumshoq muomalada bo'lmoq, yurganida orqasida yurmoq, ota xonadoninggizga kirib yoqtirgan narsasini olib ketsa, rozilik va xush –xursandchilik bilan qabul qilmoq zarur. Shuningdek, e'tiqodli bo'lib, bir so'zda turmoq, qasamga sodiqlik ko'rsatish, juftlashib ketayotganda oldindan chiqqan daraxt tufayli uni aylanib o'tganda ham bir –biri bilan yangidan salomlashmoq, bolaga kasb- ilm o'rgatish, u istiqbolda o'z kasbi yuilan oilasini boqib bilishi kerakligi kabi pand- nasixatlar keltirdilar. Shundan bo'lsa kerak, istiqolning dastlabki yillarida Saudiya Arabistonilik 70 yashar millatdoshlarimizdan biri 106 yashar otasidan izn (ruxsat) so'rab murojaat qilganda haj safarida bo'lgan ayrim vatandoshlarimizga bu holat erish tuyulgan. Bu esa sovet xokimiyati yillarida dahriylik tarbiyasi ta'sirida islomiy ma'naviyat sarchashmalari buloqlaridan bebaxra qolganligimiz ta'siri ekanligi isbot talab qilmaydi.

Sharqiy Turkistondagi muhojir o'zbeklar (albatta, sarmoyador o'zbeklar) o'z farzandlarini dunyoning taniqli universitetlarida o'qitdilar. Ularning bolalari o'zbek tilini unutmagan holda, 4-5 ta xorijiy tillarni mukammal egallaganliklari kuzatiladi. O'z tilini yaxshi bilgan inson xorijiy tillarni ham oson va tezda o'rganishi ular hayotiy tajribasi orqali o'z isbotini topdi.

Xullas, Sharqiy Turkistondagi o'zbek muhojirlari o'z avlodlariga ular qaerda tug'ilgan bo'lmasin Vatan, bu O'zbekistondir, degan tuyg'uni singdira

oldilar, oila doirasida bo'lsa ham o'zbek tili saqlab qolindi, oilalarda milliy va sharqona urf-odatlariga rioya qilinadi. Imkon qadar o'zbek oilalari o'zaro quda-anda bo'ldilar. Bolalar ta'lim-tarbiyasiga e'tibor qaratilib, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan milliy qadriyatlar uyg'unligi asosida voyaga yetkazish xar bir iymon e'tiqodli muxojir o'zbekning muhim vazifasi bo'lib keldi.

Sharqiy Turkiston o'zbeklarida to'y va taziya marosimlari. Xuddi O'zbekiston o'zbeklari singari bo'lib, ularda kelin sovchi orqali tanlanadi, sovchilar kelin javobini olgandan so'ng “so'z ne edi” o'tkaziladi. Shuningdek, fotiha, nikoh marosimi hamda bazmi-jamshid o'tkaziladi. Ular to'y marosimida toshkentcha, farg'onacha va buxorocha udumlar uyg'unlashib ketgan. Shu bilan birga o'zbeklarda quda-anda tomon kelinga faqat biror bir oltin buyum (sirg'a, baldoq) sovg'a qilish odati bor⁶⁰.

Ta'ziya marosimlarida marhumni musulmonchilik qoidalariga asosan dafn etishadi. Marhumning “uchi”oshtisi, “yigirmasi”, “qirqi” kabi marosimlar ko'p hollarda xurofot deb, uning o'rniga marhum egalari kambag'al va nochorlarga xayr-ehson qilishadi. Ro'za va ramazon hayiti davrida marhum haqiga duolar o'qilib, xayr-ehson berish udumi saqlangan. Ularning to'y va ta'ziya marosimlarida o'zbekcha taomlar bilan birga, qoshg'archa taomlar dasturxonga tortiladi.

Taomilga kirgan Sharqiy Tursiton o'zbeklarida marosimlar o'tkazishda milliy urf-odatlar bilan birga Sharqiy Turkistondagi dumgan va uyg'urlarning urflari transformatsiyasi (uyg'unlashuvi) kuzatiladi. Ularda “Navro'z”, sayl bayramlari o'tkaziladi. Bayramlarda o'yin-kulgi, bazmi-jamshidlar uyushtirish taomilga kirgan. Tijorat bilan shug'ullanuvchilar “savdogar”, “meva to'yi” kabi marosimlarni o'tkazishadi⁶¹.

Bolani sunnat to'yi qilish odatida kasalxonada yoki “3 kunlik”, “7 kunlik”, “21 kunlik” bo'lganda sunnati qilishadi. Qiz bola tug'ilsa 1 ta qo'y,

⁶⁰ Hayitov Sh. A. va boshq. Xorijdagi O'zbeklar. -T.: Fan; 1992. -b. 48.

⁶¹ O'zbekiston adabiyoti va san'ati (Xorijdagi o'zbek udumlari maqolasi) 1992 yil 25 aprel.

o'g'il bola dunyoga kelsa 2 ta sovliq so'yib ziyofat berishadi. Ularda bizdan oldin qahvaxonalarda va maxsus belgilangan joylarda to'y va marakalarni nishonlash rasm bo'lgandi. Muhojir o'zbeklar kamchiqim to'y va marosimlar o'tkazib, tejalgan mablag'ni bolalar tarbiyasiga sarflashadi. Spirtli ichimliklar iste'mol qilish harom hisoblanib, ular vaqtni qadriga yetishga e'tibor qaratadilar.

III Bob. Sharqiy Turkiston (XXR) dagi o'zbeklarning “Namuna” o'zbek maktabi va o'zbeklar orasidan yetishib chiqqan ziyolilar.

3.1 G'uljadagi o'zbek “Namuna” maktabi va uning tarixi.

Xitoy Xalq Respublikasi Shingong Uyg'ur avtonom rayoninig G'ulja shahar o'zbek “Namuna” maktabi)

Hozirgi G'ulja shahrida joylashgan 5-o'rta maktabni G'ulja shahrida yashagan o'zbek oilalari XX asr boshlarida qurgan bo'lib, 1958 yilgacha o'zbek “Namuna” maktabi deb atalib kelgan. Bugungi G'ulja shahar 5-o'rta maktabining tarixi to'g'risida so'z borar ekan, biz 1906-yili o'zbek ma'rifatparvarlaridan G'ayniddinboy Fahriddinov boshchiligida o'zbek jamoatchiligining mablag' solishi bilan qurilgan o'zbek “Namuna” maktabini tushunamiz⁶².

XX asr boshlarida O'rta Osiyo orqali Shingonga kelgan, yangi maorifni umumlashtirishni asosidagi islohotchilik harakatining ta'sirida eskicha maktablarni isloh qilish va yangicha maktablarni ochishni tashabbus qilguchilar ko'payib, G'ulja (Ili) rayonidagi ma'lum maktablarning o'qitish mazmuni va o'qitish metotida o'zgarish bo'lishiga yo'l ochildi. 1914 yili maktabga yangi kelgan qirg'iz afandining tirishchanligi bilan maktabning o'qitish mazmuni va o'qitish metotida shunday o'zgarish bo'ldi. Diniy darslardan boshqa, o'zbek tili, hisob darslari ham o'qitiladigan bo'ldi. 1930 yilda qarilar alohida o'qitiladigan sinf yangicha til, hisob jug'rofiya o'qitiladigan sinflarga qo'shildi. 1930 yildan boshlab til, hisob, tarix, she'r, tantarbiya darslari o'qitiladigan bo'ldi. 1932 yilda Setivoldiboy, o'zbek Mirzahakimboy boshchiligida gi “Yordam” shirkatining iqtisodiy yordami va o'zbek jamoatchilarining qo'llashi orqasida oldingi to'rt xonali o'qitish binosi ustiga yana to'rt xonali sinf solinib, ikki qavatli bino qilib

⁶² Yaqubjon Ayupjon o'g'li (Xutaniy). Umidli yillar (II kitob)-T.:2008.-B.97.

o'zgartirildi. Bunga peshayvonli olti xonani qo'shganda 14 xonali bino bo'lib, buning 10 ta xonasi sinf, 4 ta xonasi o'qituvchilar ishxonasi bo'ldi. Bu bilan maktabdagi sinflarning umumiy soni 10 taga yetdi. Bu maktab binosining qurilishi ma'rifatparvar, savdo bilan shug'ullanuvchi Mirzahakimboy alohida g'ayrat ko'rsatdi⁶³. Bu kishi "Yordam" shirkatining quruvchilaridan biri bo'lib, maktab qurilishi ishlariga faol boshchilik qildi. U o'zining ma'rifatparvarligi, taraqqiy parvarligi bilan jamoat orasida obro' topgan edi. Mirzahakimboy vafot etganda o'qituvchilar marhumning janoza boshiga osilgan lavha "Xalq mangu sizni unutmaydi" deb yozib, keng jamoatchilik, o'qituvchi va o'quvchilarning Mirzahakimboyga bo'lgan chuqur hurmatini namoyon qilgan. 1930 yillarning boshlarida maktab o'qituvchilar qo'shini bilimli ziyolilar bilan to'liqlandi. Bulardan Hamza Saidiy, Hamid Vakiliy, Nasrullo qori (Farhodiy)larni alohida eslash kerak bo'ladi. Bular Sovet Ittifoqida bilim olgan ziyolilar bo'lib, G'uljaga kelib, o'zbek maktabining 1930 yilidagi umumiy faoliyatida faol qatnashib, o'qitish, ta'lim-tarbiya saviyasini yuqori ko'tarishga alohida kuch sarf qilganlar.

1934 yilda mazkur o'zbek maktabida Nozim afandi, Abbos afandi, Islom qori, Nig'mat Inomjonov, Maxmud afandi, Adil G'ujo, Zaynab onoy, Parixa Jilqiboy, Saodat Abbos, Jamila Tursung'ujo, Moymunam, Fulom Qodir, Fotih afandi, Sobir afandi, Maxpir Abzi, Ramziya kabi har millatdan bo'lgan qobil o'qituvchilar xizmat qila boshladilar⁶⁴.

1934-1936 yillar Zaynab opa Jilqiboeva, 1936-1939 yillarda Pariha Aliakbariyeva mudir bo'lib ishladilar. Bu ikki ayol butun umrini har millat xalqlarining maorif ishlariga bag'ishlagan tatar maorifchilarining vakillari edi.

O'zbek "Namuna" maktabi deb 1936 yildan boshlab atalgan bo'lib, bu nom yozilgan viveskani uyg'ur, xanzu yozuvining o'z vaqtdagi atoqli xattoti

⁶³ O'sha joyda.

⁶⁴ Hayitov Sh. Adab. Xorijdagi o'zbeklar. – T.: Fan; 1992.-B.68.

Poshsho G'ujom yozib bergan ekan. O'sha o'qish yilidan boshlab o'quvchilar o'qituvchilar o'zbek "Namuna" maktabi degan znachokni taqib yurishga boshlaganlar. Mana shundan boshlab maktabda darsdan tashqari faoliyatlar jonlanib brogan. G'uljadagi ko'zga ko'ringan shoir, kompozitor Nasrullo qori (Farhodiy)ning tirishchanlik ko'rsatishi bilan maktabda musiqa darsi muntazam olib borilgan va to'garak tashkillanib, u orqali 20 dan ko'p o'quvchilar sozanda bo'lib chiqadi. Nasrullo qori (Farhodiy) matnini ham, ohangini ham o'zi ijod qilgan qo'shiqlarni o'quvchilarga o'rgatib, sahnaga olib chiqadi. Ana shu yillarda o'zbek "Namuna" maktabi o'quvchilari o'rinlagan umumiy xor qo'shig'ida quyidagi misralar bor:

Men uyg'ondim erkinlik tongi otganda,

Ma'rifat quyoshi nurin sochganda.

Tilagimdir elga saodat istash,

Har doim xalq foydasin ko'zlash

Bir, ikki, uch,

Birlikdadir kuch.

Yaxshi ko'rganing do'stlarim,

Fursat keldi duch⁶⁵

Bu yillarda maktabning o'qitish xarajatlari, o'qituvchilarning ish haqi, qurilish va maktab mulki bilan bog'liq xarajatlarning ko'p qismi jamoat orasidagi G'ayniddin boy Fahriddinov, Nasriddin boyvachcha, Mirzahakimboy, Mullo Ro'zi Domullo, Toshmuhammad afandi, Asadaullo afandi, Abdurauf Mahsum, Abdurahmon boy, komiljon boy, To'xti qori kabi ma'rifatparvar zotlarning iqtisodiy yordami bilan amalga oshib kelgan. Shu bir muhim narsani aytib o'tish kerakdurki, 1906 yildan 1936 yilgacha 30 yil ichida o'qituvchilar ish

⁶⁵ Yaqubjon Ayubjon o'g'li. O'sha kitob.-B.98.

haqi borasida to'la kafolatga ega bo'lmaganlar. Ba'zida bor, ba'zida yo'q. bor bo'lganda ham juda oz bo'lib kelgan, lekin o'qituvchilar hech bir ta'masiz va minnatsiz holda maorif yo'lida fidoyi bo'lib, yelkani yelkaga tirab mehnat qilganlar. Hatto ba'zi yillar ish haqi berilmasa ham ish o'rnidan ketmay ishlaganlar⁶⁶.

1939-1940 yillari o'zbek "Namuna" maktabi yoniga Toshmuhammad afandi, Abduraxmon boyvachcha, Asadullo afandi, Komiljon okalarning iqtisodiy yordami bilan 800 kishi sig'adigan klub solindi. Klubga kino qo'yish apparati o'rnatilib, chiptali kino qo'yish amalga oshirildi. Bu bilan o'zbek "Namuna" maktabining adabiyot-san'at to'garaklari, izchilar tashkilotining faoliyati, yig'in musobaqa faoliyatlari yaxshi maydon sharoitiga ega bo'ldi. Bu yillarda Nasrullo qori (Farhodiy)ning rejisyorligida "Padarkush", "Layli va Majnun", "Qaxramon o'qituvchi", "Nasab qurboni", "Arzigul", "To'rt tantiq", "Sharlatan" kabi drama, komediyalari sahnada o'ynalib, xalqning yangicha ma'naviy-ma'rifiy ongini uyg'otishda kata rol o'ynadi. Bu tadbirlar maktabni iqtisodiy jihatdan ta'minladi⁶⁷.

1994 yil noyabridan 1949 yil noyabrigacha davom etgan "Uch viloyat inqilobi" davri o'zbek "Namuna" maktabining tarixidagi yangi bir yuksalish davri bo'ldi. "Uch viloyat inqilobi" boshlanib, 1945 yil avgust oyigacha maktablarda o'qish to'xtadi. Bu vaqtda ilgari maktab mudiri bo'lgan Anvarxon bobo maorif nazoratidagi xizmatidan tashqari sirtqi maktabda o'qitishni boshlash, tayyorlik (masalan, kamayib ketayotgan o'qituvchilar jamoasini to'liqlash, ularni "muvaqqat hukumat" maorif nazorati uyushtirgan o'qituvchilar kursiga qatnashtirib tarbiyalash, ota-onalar komitetini qayta qurish, oldingi o'quvchilarni maktabga yug'ish va yangi o'quvchilarni qabul qilish) xizmatlariga qo'shimcha boshchilik qildi. 1945 yil avgust oyining 20-kuni Anvarxon bobo "muvaqqat hukumat" maorif nazorati maktablar bo'limiga

⁶⁶ Habitov Sh.A. O'zbek muhojirlari tarixi (1917-1991 yillar) T.: ABV MATBUOT KONSALT. 2008.-86.

⁶⁷ O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1994 yil, 15 oktyabr.

boshliq bo'lib, ishini almashtirgandan keyin Sunnatullo Mir Asim maktab mudiri etib tayinlandi. Ramziya Jilqiboyeva ilmiy mudir bo'ldi. Bu vaqtda maktabda Nig'mat Sultonboy, Abdug'ani, Ubaydullo afandi, Fotih afandi, Avtat xonim, Sobir Sidiq, Ismoil bobo, Karimjon afandikabi o'qituvchilar bor edi. Yana qaytadan ota-onalar komiteti tashkil etildi. Kata tayyorgarliklardan so'ng 1945 yil sentyabrining 1-kuni o'qish qaytadan boshlandi.

1945 yil sentyabr oyida o'qishning boshlanishi uch viloyat doirasida milliy inqilobning g'alaba qilgan vaqti bilan bir vaqtga to'g'ri kelganligi uchun nihoyat qizg'in va shodiyona bayram bo'ldi. Bu hol inqilob g'alabasini nishonlash hamda ozod bo'lgan uyg'ur xalqi uchun yangi maorif davri boshlanganligini ko'rsatar edi⁶⁸.

1946-1947 o'qish yilida o'zbek "Namuna" maktabi yeti yillik to'liqsiz o'rta maktabga aylandi. Uch viloyat maorif nazorati tomonidan tavsiya etilgan darsliklardan tashqari Toshkentda nashr qilingan bir qism darsliklardan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'ldi. O'zbek "Namuna" maktabi bitiruvchi sinflarining imtixonlarida Sovet Ittifoqining shu darjadagi maktablarining savollari ishlatiladigan bo'ldi. "Uch viloyat inqilobi" davrida boshidan oxirigacha o'qitish ishlari o'zbek tili va yozuvida olib borildi. O'qituvchilarning ko'pchiligi o'zbek bolalari bo'lib, qolgani uyg'ur, qozoq xo'yzu (dungan) bolalari edi. "Uch viloyat inqilobi" davrida Ahmadjon Qosimiyning g'ayrati bilan, inqilob rahbarlarining yo'l-yo'rig'i bilan, ota-onalar komiteti atrofiga uyushgan har millat xalqlari vakillarining yordami bilan o'zbek "Namuna" maktabining o'qish-o'qitish sifati yuqori ko'tarildi, u G'ulja shahridagi yaxshi maktablar qatoridan joy oldi.

1946 yil oktabr oyining 6-kuni Axmadjon Qosimiy o'zbek "Namuna" maktabining ta'lim-tarbiya ishlarini ko'zdan kechirganda maktabning ilg'or

⁶⁸ Yaqubjon Ayubjon o'g'li. O'sha kitob.-B.101.

natijalarini ko'rib, xursand bo'lib: "O'zbek "Namuna" maktabi ismi jismiga mos namuna maktab ekan", deb maqtagan ekan.

1950 yili o'zbek uyushmasining raisi maktab ota-onalar komitetining raisi Asadullo afandining boshchiligida G'ulomboy, Shonig'matboy, To'xti qori, Mirhofiz kabi ma'rifatparvar zotlarning iqtisodiy yordami bilan ikki qavati, 20 ta xonali zamonaviy o'qitish binosi qurildi⁶⁹. Binoning sinf va zallari keng va yorug' bo'lib, shinamgina edi. Sinf va bo'limlar yangi parta-o'rindiqlar bilan, zallar oyna va kiyim osqu bilan jihozlandi. 1950 yili yangi bino qurilishiga Asadullo akaning bir o'zi 232770000 dollar (ozodlik yillaridagi o'lka puli) miqdorida yordam ko'rsatgan. Yangi binoda o'qish boshlash yig'ini shodiyona bayram kayfiyatida o'tkazilgan. Sayfiddin Aziziy, Anvarxon bobolar qatnashgan. Sayfiddin Aziziy lentani kesgan. Boshqa maktablarning, idora va jamiyatlarning yangi bino uchun olib kelgan sovg'alari bilan maktabni, uning sinflari va zalini chiroyli qilib bezaganlar. Maktabning o'qish va o'qitish sharoiti yana ham yaxshi bo'lgan⁷⁰.

1952-1953 o'qish yilidan 1957-1958 o'qish yiligacha Ma'sud Ismoil mudir bo'ldi. 1953 yili kuzdan boshlab, o'lka maorif nazoratiga bevosita qaraydigan, viloyat maorif idorasi vakolatan boshqaradigan maktab bo'ldi. Ma'sud Ismoil maorif kasbini sevadigan, iqtidorli, mas'uliyatli va qobiliyatli mudir edi. U mudir bo'lgan yillarda maktabning o'qitish, ta'lim-tarbiya ishlari yana ham rivojlandi. Ma'sud Ismoil maktab uchun juda ko'p ishlar qildi. O'qituvchilar bilan birga kunduzni kechaga, kechani kunduzga ulab mehnat qildi. Shu yillarda o'zbek "Namuna" maktabida Ma'sud Ismoil bilan Iminjon (ilmiy mudir), Avut Sobit, Sobir Sidiq, Abduraxmon Abbos, Turg'un Qori, Abaydullo Ikrom, Bashir afandi, Shovudun afandi, Abduqodir Samariy, Aqlima, Zubayda, Munira opoy, Amon (xo'jalik ishlari mudiri), Ablikim Ahmadiy,

⁶⁹ Hayitov J.Sh. XXRning G'ulja shahridagi o'zbek "Namuna maktabi" II BVXDVGLMJ AXROROTI; 2016. – N. – B.

⁷⁰ Hayitov J.Sh. "Eslatilgan maqola".

Ablikim Yosin Kozim, Arufjon, Yusunhoshim, Tursuntoy afandi, Jongruhon, Mutallip, Abduhalim, Nabi afandi, Abdulhay, Muhammad Sulton, Atikam Imin, Abdurahmon Sherib, Tursunbuvi, Maktuba, Rashida, Abdug'ani, Halima Usmon, Halima Musa, Oynisa kabi o'qituvchilar ishlaganlar. Yuqorida tilga olingan o'qituvchilardan Teyipjon afandi, Iminjon Yusup, Abaydullo afandi, Tursuntoy afandi va Zaynab Shokirlar til-adabiyot darsini; Shovudun afandi, Abduqodir Samariy, Muhammad Nor, ham Sobir afandilar matematika darsini; Muhammad Sulton ximiya darsini; Ablakim afandi fizika darsini; Ma'sud afandi jug'rofiya, rasm darslarini; Jopgruxon xanzu tili darsini berar edilar⁷¹.

Ma'sud Ismoil talabchan mudir edi. U boshqalarga qanday talab qo'ysa, o'ziga undan ham yuqori talab qo'yardi. Botanika, rasm-fotosurat, xattotlik, musiqa, til adabiyot to'garaklari tashkillangan bo'lib, o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatlari jonlantirilgan edi. U yillarda fizika, ximiya darslari tajriba bilan o'tilar edi, lekin botanika darsida tajriba o'rni bo'lmaganidan o'quvchilarga tajribalar ko'rsatish imkoniyati yo'q edi. 1956 yilga kelganda Ma'sud Ismoilning tashabbusi bilan ota-onalar komiteti va maorifning qo'llashi bilan maydoni 105 kvadrat metr keladigan oynali parnik va unga yondosh ikki sinfli zoologiya tajriba xonasi qurilib, botanika va zoologiya darslarini tajriba ko'rsatmasdan o'tish holati bartaraf qilindi. Parnik xizmatlari bilan botanika o'qituvchisi Bahir afandi shug'ullanadigan bo'ldi. Bashir afandi gul giyohlarning yil bo'yi davriy o'sishiga hamda o'qitishga zarur bo'lgan botanikaga oid ko'rsatmalarni tayyorlashga mas'ul bo'ldi. Bundan tashqari maktab ichiga va atrofiga ko'chat ekib, gul-giyohlar o'stirib, muhitni go'zallashtirish ishlari ham yaxshi yo'lga qo'yildi. Yana shu yillardagi o'zbek "Namuna" maktabi o'qituvchilari bilim saviyasining o'sishi, o'qitish sharoitining yaxshilanishi natijasida o'quvchilar tabiiy holda yaxshi o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Maktabning o'qitish, ta'lim-tarbiya sifati ko'tarildi⁷².

⁷¹ Yakvalxo'jayev Ye. Qaytar dunyo (roman). II Yoshlik. 1992. – N4.-B.18.

⁷² Yaqubjon Ayubjon o'g'li. O'sha kitob. – B.102.

1957-1958 o'qish yilidagi o'quvchilarning imtihon natijalariga qaraganda 100% dars o'zlashtiradigan sinflar borligi borligi ma'lum bo'ldi. Keyinroq bunday sinflar soni 4 taga ko'paygan. Shu yili shahar maorif idorasi shahardagi to'liqsiz o'rta 1 yillik sinflar ichidagi eng yuqori o'zlashtirgan sinflardan bir tutash imtixon olganda bu maktabdagi 5A sinfi 100% o'zlashtirish ko'rsatib, shahar bo'yicha birinchilikni olgan.

Bolalari o'zbek "Namuna" maktabida o'qigan ko'p sanli o'zbek, uyg'ur oilalari 1955-1963 yillarda Sovet Ittifoqining O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqa respublikalariga ko'chib ketgani uchun shu respublikalarda o'qishlarini davom ettirganlar. O'zbekistonda o'qishlarini davom ettirib, oliy o'quv dargohlariga kirib o'qiganlar va o'rta maktablarni bitirib, oilaviy sharoiti tufayli tadbirkorlik bilan shug'ullanib, davlatga, oilasiga foyda yetkazib kelayotganlar ko'p sonno tashkil etadi. Ular o'zlari o'qiy olmagan bo'lsalarda, bolalarini yaxshi tarbiyalab, mehnatsevar inson qilib, tug'ilgan vatani uchun kerak bo'lsa jonini beradigan vatanparvar qilib tarbiyalamoqdalar. Ular halol mehnati bilan O'zbekistonda ravnaq topmoqdalar, baxtiyor turmush kechirmoqdalar.

III. 2. XXR da ta'lim-tarbiya olgan o'zbek ziyolilari.

Eshon Xo'ja (1880-1934)

Ushbu inson millatchi, istiqlolchi ekanini, Munavvar Qori kirishgan butun milliy ishlarda unga yondosh harakat qilganini, xususan, 1916 yildagi buyuk xalq isyonida qatnashganini, keying davrlarda ham xalq ozodligi uchun kurashgani manbalarda tilga olinadi. "Qizil rus istibdodi, sovetlar terrori va ming turli fitnayu ta'qiblar", o'ldirishlar oqibatida Eshon Xo'ja va unga o'xshagan millatning bir qismi yurtidan qochishga majbur bo'lib qoldi, deb yozadi doktor I.Yorqin. Eshon Xo'ja, avvalo, izini yo'qotmoq uchun Avliyo Ota va Yettisuv taraflarga ketadi, u yerda sho'ro josuslari qo'liga tushish ehtimoli

kuchaygach, 1930 yilda Sharqiy Turkistonga qochadi. Bu yerda ham sho'rolar ta'siri kuchli ekanidan "Ablulloh" ismi bilan kun kechirib yuradi. 1931 yilda, Sharqiy Turkistonda chin-xitoy idorasiga qarshi milliy ozodlik harakati boshlanganida Eshon Xo'ja Qashqarda edi. Qashqarda Sobit Domla va safdoshlari tarafidan Sharqiy Turkiston hukumati qurilganida, Eshon Xo'ja ham bu istiqlol ishida faol qatnashdi. Bu hukumat uning ikki qo'shni yovlari tarafidan barbod etilgach, Xo'ja Niyozhoji, Sobit Domla va safdoshlari Yorkentda tutilgach, ayni zamonda Yorkentda bo'lgan Eshon Xo'ja qochishga ulguradi. U dunganlar hujum qilgunga qadar Xutanda qoldi (dunganlar chin aslli musulmonlar bo'lib, o'sha paytda 30 million atrofida edi). Dunganlar Xo'tanga hujum boshlagach, o'sha kunlarda kasal ekaniga qaramay, Eshon Xo'ja yana qochmoqqa majbur bo'ldi. U 1934 yilda, Turkiston va Hindiston o'rtasidagi tog'larda vafot etdi... "Uning xotirasi va maslagi yuraklarimizda mangu yashayajakdir" deb uch maqolasini yakunlagandi Eshon Xo'janing shogirdi, mashhur muhojir olimimiz Ibrohim Yorqin.

Boboqurbonning kimligidan bugungi xalqimiz biro z xabardor. U kishi O'zbekiston Jumhuriyati Mustaqillik kunini bayram qilgani 1992 yili Olmoniyadan Toshkentga yetib kelgan. Vatanimiz va millatimiz hayoti bilan, yozuvchi va jurnalistlarimiz bilan yaqindan tanishdi. Gazetalarimiz Ziyovuddin Boboqurbon bilan suhbatlar uyushtirdi. S.Hakim "Istiqlol sari yo'l", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 4.9.1992; K.Xoldoro'g'li. "Men bir yoshga to'ldim", "Xalq so'zi" 14.9. 1992 va b. O'zbekiston prezidenti Islom Karimov qimmatli vaqtini ayamay, uni shaxsan qabul qildi. Olmoniyada chiqadigan "Shortvaves" gazetasining 1993 yilning may sonida bu ikki zotning birga tushgan rasmi bilan maqola berild, unda mustaqil O'zbekiston haqida iliq gaplar aytili. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Ziyovuddin Boboqurbon bugungi kunda chet dunyodagi o'zbek jurnalisti o'laroq mustaqil respublikamiz haqida yaxshi so'zlar aytayotgan, uni dunyoga tanitayotgan, voqelikni faqat xayrixoh nigoh bilan talqin etayotgan vatandoshimizdir. Yana shuni ham quvonch bilan

ta'kidlashni istardikki, u Turkiyada "Hur Turkiston uchun" istiqlolchi gazetasini chiqargani, jurnalistlik faoliyati uchun O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Targ'ibot markazining 1992 yilgi Xalqaro Abdulhamid Cho'lpon mukofoti bilan taqdirlandi. U mukofot topshirilayotgan tantanali kechada: "Bu mukofot faqat menga emas, muxojirotdagi barcha istiqlol yo'lida xizmat qilgan, qilayotgan aziz yurtdoshlarimizga berilga mukofotdir. Bu mukofot buyuk Turkiston istiqlolchi shopri Cho'lpon nomini tashigan sababli ham men uchun nihoyatda qimmatlidir" dedi.

Ziyovuddin Boboqurbon asli Turkistonning Farg'ona vodiysidan, otabobolari Marg'ilonning eski, boy-badavlat oilalaridan bo'lgan. Ota tomonidan Boboqurbonlar, ona tarafidan jomboyilar oilasidan. U Turkiyada va boshqa yana 13 ta chet davlatda olib borgan. Jurnalistlik faoliyatida Ziyovuddin Boboqurbon nomi bilan tanildi; 1966 yildan beri "Ozodlik" radiosining xodimi o'laroq Turkistonli ham o'ttizinchi yillardagi fojiali qirg'in va quvg'inlar tufayli Turkistondan chiqib ketgan ming-minglab vatandoshlarimiz taqdiri kabi. 1931 yilda Marg'ilonda tug'ilgan Ziyovuddin Boboqurbon oilasi bilan avval Sharqiy Turkistonda yashashdi, so'ngra Hindistonga ko'chishdi. Ikkinchi jahon urushi yillarida ular Turkiyaga kelishadi. Ziyovuddin Istanbulda o'n ikki yillik litseyda tahsil ko'radi, so'ngra jurnalizm ishiga kiradi.

O'sha davrni eslab, u shunday deydi: "U paytda jurnalizm taraqqiy topmagandi, maxsus universitetlar yo'q edi. Masalan ming kishi jurnalizmga kirdi, shundan qobiliyatlisi o'zi yetishib, ishlab qolaverardi, eplamagani boshqa ishni tutib ketaverardi. Men elliginchi yillardan boshlab ko'p gazeta-jurnallarda ishladim. Turkiyada o'shabda 15-16 tacha gazeta chiqardi, barchasida maqolalarim bilan qatnashganman. Ulardan "Turk sesi", "Zman", "Yeni Istanbul", "Sabah", "Feth", "Istiqlal", "Bugun", "Millat", "Hur ses", "Ulus"ni eslash mumkin".

Ziyovuddin Boboqurbon turk va o'zbek tilida ijod qiladi. Olmon, ingliz tillarini yaxshi biladi. Olmon, ingliz tillarini yaxshi biladi. U, o'zbek tilini uyda, onamdan o'rganganman, biz bir o'zbek maktabini ko'rmaganmiz, deydi.

U Turkiyada sobiq Buxoro Xalq Jumhuriyati jumhurraisi Usmonxo'ja aka bilan ko'rishib qoldim. Suhbatlashdik, u kishi: Boyvachcha aka – oilam boylardan bo'lgani uchun shunday deyishardi – ertaga bir bizga kelsangiz, sizning qilib yurgan ishlaringizni bilaman, eshitdim, bir ish qilsak, dedilar. Bordim. U paytda “Turkiston Milliy Birligi”ga a'zolar ham, boshqa tashkilotlarga a'zolar ham ko'p edi, yoshlar ichida bir tashkilot qurish lozim ekan. Shunda “Turkistonli talablar Birligi”ni qurdik. Bu jamiyatda Sharqiy turkistonlik Abdurahim (Rayimjon deyishardi), Shavkat Yorbog', Badriddin Oxunboy, turkmanlardan Halil Murodo'g'li, yana Shavkat O'zo'g'li, Qodirali Chig'atoy kabi ko'p insonlar ishladi. Ammo atrofdagi bir qator jamiyatlar bu jamiyatimizni o'z ta'siriga olish uchun ish boshlagach, o'rtada ayri fikrlik kelib chiqdi va tez orada jamiyat ishini to'xtatdi. Shu paytda Sharqiy Turkistonning mashhur davlat arbobi va olimi Muhammad Ali Bug'ro Turkiyaga keldi. Butun turkistonliklar Bug'roni kutib olishdi. “Sharqiy Turkistonlilar yordamlashma drnigi” qurildi. Tez-tez yig'inlar o'tadigan bo'ldi. Shu yig'inlarda bir g'oya o'rta otili: bir yoqadan bosh chiqarish; Rus va Chin o'rtasida bir butun hur Turkiston davlati bo'lishi kerak. Shundan keyin rahbarlarimiz bir jurnal qurish kerakligini aytishdi. Biz “Turkiston” degan jurnalni turkcha chiqarishga Turkiya hukumatidan ruxsat oldik. Xullas, Sharqiy Turkistonga muhoshir bo'lgan Ziyovuddin Qurbon hayotini xayrli ishlarga bag'ishladi.

1947 yili men 9 yashar edim. Go'mindong armiyasi “Talamat” va “Mulloqchi” dovonlarini butun kuchi bilan qo'riqlar edi. Bu dovonlar milliy armiyaning Kuchorga keladigan yo'lini to'sib qo'ygan edi. Men marhum onam (Xudo rahmat qilsin) va opam Xosiyatxon hamda 3 yashar Qurbonjon ukam karvonlar yordamida o'sha yo'ldan G'uljaga o'tmoqchi bo'lganmiz (ko'p oltin berish badaliga), lekin yashirin yo'l bilan o'tish mumkin bo'lmagani uchun

Kuchorga qaytib ketganmiz. Tangritog' muzliklaridan suvlar to'planib, Ili daryosini hosil qilgan bo'lib, u shaharning janubiy tomonidan o'tadi va g'arbga qarab oqib, Qozog'iston Respublikasining Balxash ko'liga borib quyiladi. Bu azim daryo G'ulja shahrining havosini mo'tadil qilib, shahar xalqiga, bog'u-bo'stonlarga huzur-halovat bag'ishlaydi. Bahor-yoz kunlari daryo sohillari gavjum bo'lib, xalq dam oladi, o'z yurtining tabiatan boyligidan ruhi oziq oladi. Mehnatsevar, qahramon G'ulja xalqi dam olishni ham biladi.

Bir vaqtlar, 1960 yillarga qadar G'ulja shahrining eng gavjum bazarlarida biri bo'lgan Xitoy bozori atrofidagi mahallalarda odamlar zich joylashgan bo'lib, subhidamdan yarim tungacha bu bozorda savdo ishlari to'xtamasdi. Tashlabka, Tumoq bozori, somon bozori, misgarchilar, olma bozori, Harambog' ko'prigida bo'ladigan bozor, tuxum bozor, gir bozori, qovun-tarvuz bozori ishlab turardi. Xitoy bozori, gir va tovuq bozorlarining shimoliy tomoni tarix mobaynida "O'ymonbuloqlar" deb atalib kelgan. Keng hududni egallagan tabiiy buloqlar qaynab turadigan, tegirmonlar ishlab turgan, ko'm-ko'k chamanzor bo'lgan bir go'zal bo'ston edi bu joylarda kata anhor ham oqib turardi. Anhor yonida yoz kunlari soat beshdan keyin odamlar yetaklab keladigan otlar bilan ularni cho'miltiradigan sho'x o'smir va yigitlar ham tayyor bo'ladigan "Otuzush" havzasi ham bor edi. "O'ymonbuloq" deb ataladigan bu bo'stonda ertalabdan kech kiringungacha hayot qaynardi. Bu bo'stonning tevarak atrofi janub tomondan Xitoy bozori, Taxtiyon mahallasi, sharq tomondan To'po-dang mahallasi, g'arb tomondan Lapshong yoki Yangi hayot mahallasi, shimol tomondan Boyko'l bilan chegaralangan bo'lib, tarixiy qaxramon qiz Moyimxon qo'ylarini shu O'ymonbuloq deb ataladigan chamanzorda boqqan. Buloqlardan uzluksiz oqib turgan suvlar, Boyko'l tomondan oqib kelgan tiniq suvlar keng hududni suv bilan ta'minlab, yam-yashil ko'klamzor hosil bo'lgandi. Daraxtlar, majnuntollar ko'p bo'lib, xalq dam oladigan istirohat oromgohi edi. Bu bo'stondan oqib chiqqan suvlar Xitoy bozoridagi kata anhorga, bu anhor suvdarvoza orqali Ili daryosiga quyiladi. Yoz kunlari Ili daryosi sohillari

odamlar bilan gavjum bo'lib, baliq tutadiganlar, cho'miladiganlar ko'pchilik bo'lib, dam olishga chiqqanlar bilan to'lib ketadi.

Kema bo'yida shahardan Chopchol nohiya tomon o'tadigan va Chopchol tonomdan shaharga boradiganlar hech kam bo'lmas edi. Kemada oziq-ovqatlar, qo'y, ot va qoramollar u yoqdan bu yoqqa, bu yoqdan u tomonga tashilib turilardi. Panzavodiy atrofi ham, soy quyilishi tomoni ham xuddi shunday odamlar bilan gavjum bo'lardi. Ili daryosi sohillari Panzavodiydan toki soy quyilishiga qadar mevali bog'lardan tashkil topgan, "Mevazor mahallalar gulzori" deb ham atalardi. Soy quyilishidan ko'tarilganda Do'ng mahalla boshlanar edi. Do'ngmahalla haqiqatdan shahardan balandda. Do'ngmahallada Shohidgohlik mozori joylashgan bo'lib, u yerda uyg'ur xalqining "Uch viloyat inqilobi" milliy rahbarlari dafn etilgan (Ahmatjon Qosimiy, Abdukarim Abbas, Dalilxon Sug'urboyev, Ishoqbek General va boshqalar). Do'ngmahallaning g'arb tomoni Ili daryosining Jig'dilik sohillari, shimol tomonida "Vong Qodir bog'i", Sharqmahalla va bu mahallaga Uchdarboza mahallasi tutashib ketadi. Uchdarbozaning kata ko'chasi Husanboy zavodidan o'tib, Boyondoy orqali Suydung nohiyasiga ketadi. Boyondoydan o'ng tomonda, 5 km uzunlikdagi tepalikda "O't orshong" joylashgan bo'lib, u yerda oyoq-qo'li, ko'zi, qulog'I, beli og'riganlar va siydik yo'llari shamollaganlar davolanadi. Aprel-may oylaridan boshlab oktyabr oyigacha Xitoyning barcha o'lkalaridan va asosan Shinjong uyg'ur avtonomiyasining barcha viloyatlaridan davolanish uchun keladiganlarning oyog'I uzilmaydi. Juda shifobaxsh oshiyon.

Bu qaxramon va go'zal G'ulja shahri mening ona shahrim, Vatanimning kichik bir qismi, yoshlikda ko'p narsalarning qadr-qimmatini bilmasdan o'taverarkansan. Vatanning qadrini, kindik qoning to'kilgan ona yurtningni sog'inasan, uni har bir daqiqada ko'rging kelar, bu mening ona Vatanim deb tuproqlarini ko'zingga surtging kelar, zilol zuvlarini to'yib-to'yib ichging kelar, o'smirlik, yoshlik yillaringda do'stlaring bilan birgalikda cho'milgan Oq o'sang, Ili daryosi, O'ymonbuloq, Boyko'l suvlarini sog'inar ekansan.

Ro'za hayiti va qurbon hayiti kunlari tong otishini kutib, uxlamasdan Bomdod namoziga azon ovozini eshitib, boshingda yostig'ing yoniga taxlab qo'ygan yangi hayit kiyimingni kiyishga shoshilgan, tahorat olib, dodang va aka-ukalaring bilan ko'chaga otilib chiqqan quvnoq daqiqalarni, qator bo'lib, takbir aytib yurganingni, "Sharchi madiris" ravoqida chalingan nog'ora ovozini, hayit namozdan keyin bir-birlarimizni muborak hayit bayrami bilan tabriklab, shodlikdan mamnun bo'lganlarimizni, chiroyli yasatilgan, bezatilgan arg'imchoqlar qo'shilgan xodiklarda qiy-ch1uv bilan sharchi-qora do'ng, sharchi Ili daryo bo'yi, chirg'ilong va boshqa sayllarni eslab yashargandek, yoshlik bahoring qaytib kelgandek his qilasan, shirin xayollar bilan kunlaringni o'tkazasan.

Sharqiy Turkistonda tavallud topib "Namuna" maktabida tahsil olib, oliy ma'lumotli bo'lgan olim, rahbar, yuksak obro'-e'tiborli bo'lgan ziyolilar ko'p sonlidir. Ushbu bo'limda shunday shaxslar haqida fikr bildirmoqchimiz.

Bahodirxonov Kabirjon Saidiy

O'zbek "Namuna" maktabida o'qib, Toshkentga kelgandan keyin oliy o'quv dargohlariga o'qishga kirib o'qib, bitirgandan so'ng O'zbekistonda katta muvaffaqiyatlarga erishganlar ham bor. Ular ichidan avvalo Bahodirxonov Kabirjon saidiyni tilga olish arziydi.

Men Ayupov Yaqubjon Kabirjon bilan o'zbek "Namuna" maktabida parallel sinflarda o'qiganmiz. Kabir juda tirishqoq va qobiliyatli o'quvchi edi. O'quvchilar ichida alohida ko'zga tashlanib turardi. Kabir 1930 yillarda shu maktab mudiri bo'lgan va ko'p xizmat qilgan Hamid Saidiyning eng kichik ukase bo'ladi. G'ulja shahri Tojiboy mahallasida 1942 yil avgust oyining 17-kuni tug'ilgan⁷³. Otasi Muhammad Saidiyxon (Maxsum Domullom) maktab yonidagi Andijon maschitida 30 yil imom bo'lgan. Kabirjon o'zbek "Namuna"

⁷³ Toshkent davlat texnika universiteti (TDTU) joriy arxivi, 2014 yil, 10 iyun.

maktabini 1957 yili a'lo natija bilan tamomladi. 1958-1959 yillarda G'ulja erlar to'liq o'rta maktabida o'qidi (Ablat Abdurashid bilan bir partada o'tirib o'qidi). 1959 yil 14 iyun kun iota-onasi bilan ona yurti go'zal G'ulja shahridan ayrilib, Toshkent shahriga ko'chib keladi. 1965 yilda O'rta Osiyo Davlat universitetining (SAGU) Fizika fakultetining a'lo natija bilan tamomlab, 1966 yildan 1982 yilgacha Leningrad shahar Fanlar akademiyasida va Leningrad texnika universitetida dotsent va professor bo'lib ishladi. 1982 yildan 1985 yilgacha SAGUda va 1985 yildan hozirgacha Toshkent davlat texnika universitetida kafedra mudiri, professor bo'lib ishlab kelmoqda. Kabirjon yana 1990-1994 yillarda Toshkent davlat texnika universitetida ilmiy ishlar bo'yicha rektor, 1995 yildan 2003 yilgacha O'zbekiston Oliy ilmiy unvon berish vazirining birinchi o'rinbosari bo'lib ishlaydi. Kabirjon 1992 yili oliy ilmiy mehnatlari uchun Abu Rayhon Beruniy nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlandi⁷⁴. Kabirjon Saidiy bir necha chet ellar fanlar akademiyalarining a'zosi, jumladan Shinjong universitetining faxriy professoridir.

2003-2004 yillarda Xitoy Fanlar akademiyasining Fizika-ximiya va texnologiya institutida maslahatchi lavozimida ishlab, ularga yordam ko'rsatdi. Kabir Saidiy hozirgacha 35 ta fan doktori tayyorladi. Amerika, Germaniya, Rossiya, Xitoy, Ispaniya kabi bir qator chet el mamlakatlarida bo'lib, 300 dan ortiq ilmiy maqolalar yozib chiqardi. Kabirjonni hozir butun dunyo olimlari taniydi. Olimlar Kabir Saidiyning Xitoyda tug'ilganligini, boshlang'ich bilimni G'uljada olganligini, u yerdagi bilim berish va o'qitish ishlarining nihoyatda kuchli bo'lganligini tan oladi. Kabirjon Saidiy mana shular bilan faxrlanadi. Kabir Saidiy o'zining hayotda erishgan katta natijalari, mukofotlarini va mansablarini shu ona maktabining, o'qituvchilarining tuhfasiga deb biladi.

Kabir Saidiy Sharqiy Turkistondagi o'zbek maorifchilarga, o'qituvchilariga, ona maktabiga ta'zim qiladi, ulardan bir umrga minnatdor.

⁷⁴ Yaqubjon Ayubjon o'g'li. O'sha kitob.-B.103.

Shorahmetov Shoturg'un Shopo'latovich

Fizika-matematika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Oliy matematika kafedrasini mudiri.

Shoturg'un Shorahmetov 1947 yili G'ulja shahrida tug'ildi. Millati o'zbek. Otasi – Shohidoyat, o'g'li – Shopo'lat (1924-1974).

Shoturg'un 1955-1962 yillarda G'ulja shahar o'zbek "Namuna" maktabida o'qidi. 1962 yili ota-onasi bilan Toshkentga ko'chib keldi. 1971 yilda Toshkent davlat universitetining Matematika fakultetini tamomladi. 1971-1973 yillarda ToshDUda, 1973-1982 yillarda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Matematika institutida ilmiy xodim bo'lib ishlagan 1982 yildan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ishlab kelmoqda. Oliy matematika kafedrasining mudiri⁷⁵.

Sh.Shorahmetov matematikaning ehtimollar nazariyasi va matematik statistika sohasi bo'yicha taniqli olim. Uning 60 dan ortiq ilmiy maqolalari O'zbekiston, Ukraina, Rossiya, Vengriya, Shvetsiya, Germaniya, Fransiya, Amerika Qo'shma Shtatlari kabi davlatlarning eng nufuzli jurnallarida chop etilgan. U yirik xalqaro konferensiya va kongresslarning doimiy ishtirokchisi. Qator o'quv qo'llanmalari va darsliklarning muallifi⁷⁶.

Sh.Shorahmetovning ilmiy yutuqlari dunyo matematiklari tomonidan tan olingan. U Jahon ehtimollar nazariyasi va matematik statistiklarining Bernulli jamiyati (ISI) a'zosi.

Azizov O'zbekto'ra Odiltora o'g'li.

Ota-onasi Azizov Odilto'ra va Azizova Sojidaixonlar mash'um qatag'on yillarida (1929-930 yillar) o'z ona yurti bo'lmish Toshkent shahridan Sarqiy

⁷⁵ Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti joriy arxivi, 2015 yil, 5 iyul.

⁷⁶ O'sha arxiv.

Turkistonning G'ulja shahriga ketishga majbur bo'ladilar. O'zbekto'ra 1941 yilda G'ulja shahrida chorvachi oilasida dunyoga keladi. 1958 yili G'ulja shahridagi o'zbek "Namuna" maktabining (hozirgi 5-o'rta maktab) 7-sinfini va G'ulja shahar erlar to'liq o'rta maktabining 8-sinfini tamomlab, ikki davlatning o'zaro kelishuviga muvofiq ko'pchilik qatorida ota-onasining yurti bo'lmish O'zbekistonning Toshkent shahriga keladi. Ota-onasi G'ulja shahrida vafot etganlar.

1968 yili Toshkent avtomobil transporti institutini yaxshi tamomlab, 1971 yilgacha Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasining 7-sonli avtokorxonasida xizmat qildi. 1971-1973 yillarda O'zbekiston Respublikasi Avtomobil transporti vazirligining Toshkent viloyati avtomobil trestida bo'lim boshlig'i vazifasida ishladi. 1973-1986 yillari O'zbekiston Respublikasi Avtomobil transporti vazirligida oldin bo'lim boshlig'i, so'ngra boshqarma boshlig'i lavozimida ishladi. 1986-2001 yillarda Avtomobil transporti vazirlivining Toshkent viloyati Yuklar tashish konsernida bosh direktorning birinchi muovini vazifasida xizmat qildi. 2001 yilda nafaqaga chiqdi va hozirga qadar "O'ztranssanoat" Respublika uyushmasida bosh mutaxassis vazifasida xizmat qilib kelmoqda⁷⁷.

Azizov O'zbekto'ra zikr etilgan mehnat faoliyati davrida hukumat, partiya va boshqa boshqaruv organlari tomonidan faxriy yorliqlar: 1976 yilda Qaraqalpog'iston Avtonom respublikasi Oliy Sovetining va Ministrlar Sovetining faxriy yorlig'i, 1977 yili O'zbekiston SSR Kommunistik partiyasi Markaziy komiteti, Oliy Soveti Prezidiumi va Ministrlar Sovetining faxriy yorlig'i, 1979 yili Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi (SSSR) Ilmiy-texnika jamiyatining faxriy yorlig'i hamda O'zbekiston Respublikasi Avtomobil transporti vazirligining ko'p sonli faxriy yorliqlari va mukofotlari bilan taqdirlandi. 1991 yildan O'zbekiston Respublikasi Faxriy avtotransport

⁷⁷ Yaqubjon Ayubjon o'g'li. O'sha kitob.-B.106.

xodimidir. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 2 yilligi munosabati bilan Toshkent viloyati Hokimiyatining yubiley medali bilan taqdirlangan⁷⁸.

Bo'raxo'jayev Ulug'xo'ja

Ulug'xo'ja 1942 yilda G'ulja shahrida tavallud topgan. 1957 yili G'ulja shahar o'zbek "Namuna" maktabini bitirgan. Shu yili Xitoy Shimoli g'arbiy millatlar institutining Temir yo'l fakultetiga o'qishga kirgan 1962 yilda institutni bitirgan. 1963 yilda Sovet Ittifoqiga ko'chib kelgan. 1970 yilda Savdo texnikumiga o'qishga kirib, 1973 yili bitirgan. 1973 yildan 1988 yilga qadar Toshkent savdo markazida ishlagan. 1988 yildan boshlab Toshkent temir yo'l vokzalida hamda Toshkent-Moskvayo'lovchilar poyezdida 2002 yilga qadar ishlab kelgan. 2002 yildan nafaqada. Ulug'xo'ja ikkita o'g'il, ikkita qizning otasi. Hozir oilasi bilan baxtiyor hayot kechirmoqda.

Abduvali Abdurashid o'g'li Abdurahmonov

1942 yil 19 yanvarda G'uljada tavallud topgan. 1959 yili G'ulja shahar 2-o'rta maktabini bitirib, 1960 yili 5-dekabrda Sovet Ittifoqi diyoriga chiqib, O'zbekistonning Toshkent shahriga kelib o'rnashdi. Abduvali 1967 yili Toshkent politexnika institutining Mexanika fakultetini bitirdi va Energetika vazirligiga qarashli zavodda ishlay boshladi. Shu tariqa ishida har xil lavozimlarda – konstruktor, texnolog, usta, sex boshlig'i, bosh mexndis, bosh dirktor, keyinchalik Yengil sanoat vazirligida Texnik boshqarma boshlig'i bo'lib ishladi. 2002 yildan nafaqaga chiqdi, 3 ta qizi, 8 ta nabirasi bor.

⁷⁸ Muallifning shaxsiy suhbat; 2015 yil 15 avgust

Azizov Murodbek

Azizov Murodbek 1938 yilda G'ulja shahrida tug'ilgan. Murodbek tatar martabida o'qib, keyin G'ulja bilim yurtini o'qib bitirgan. So'ngra Shinjong universitetining Tan-tarbiya fakultetiga o'qishga kirgan. I kursdan keyin Murodbekning qobiliyatli sportchi ekanligini bilgan Tan-tarbiya qo'mitasi uni Xitoyning motopoyga bo'yicha terma komandasiga qabul qilgan. 1958 yilda Turfon shahrida mashq qilib, 1959 yili Xitoy davlatining 10 yillik bayramida musobaqada qatnashgan. Pekinda 2- va 3-o'rinlar sovrindori bo'lgan va Pekinda qolgan. 1963 yilda Sovet Ittifoqiga qaytib kelgan. Shundan buyon bu yerda (Toshkentda) tadbirkorlik bilan shug'ullanib kelmoqda. 4 ta qiz, bitta o'g'ilning otasi, farzandlarining hammasi o'z joyini topgan. Murodbek bilan rafiqasi Xolida baxtiyor hayot gashtini surmoqdalar.

Xitoy Xalq Respublikasi Shinjong uyg'ur avtonom rayonining G'ulja shahridagi o'zbek "Namuna" maktabining 100 yillik muborak to'yi nishonlanadigan bo'lgandi.

Biz Toshkentda yashab turgan o'zbek "Namuna" maktabining sobiq o'quvchilari ona shaharlari G'ulja shahridagi ona maktabimiz – o'zbek "Namuna" maktabining tashkil topganiga 100 yil bo'lishini bir necha yillar oldin eshitib, o'sha ulug' va muborak kunning tezroq kelishini toqatsizlik bilan kutgan edilar. Yillar bir-birlarini quvlashib, bu ulug' kun ham yaqinlashib qolgan edi.

Toshkentdan boradiganlar soni aniqlanib, tashkiliy ishlarga Bahodirxonov Kabirjon va Azizov O'zbek boshchilik qildilar. O'zbek "Namuna" maktabining 100 yillik muborak to'yiga boradigan sobiq o'qituvchilar, sobiq o'quvchilarning ro'yxatida quyidagilar bor edi.

O'qituvchilar:

1. Muhammad Sulton;
2. Akram Afandi;

3. Muhammadnor Afandi;

4. Mannon Afandi.

O'quvchilar:

1. Ayupov Yoqubjon;

2. Mirzajalilov Nurmahamet;

3. Mirzaxodjayev Yodgorxo'ja;

4. Azizov O'zbekto'ra;

5. Hidoyatov Abdumannon;

6. Toxtimametov Muhammedjon;

7. Mirzayev Akram;

8. Ingambayev Muhamet;

9. Xolxodjayev Polizjon;

10. Karimxodjayev Talagat;

11. Usmanov Tadjidin;

12. Usmanov Djalaldin;

13. Shorahmetov Shoturg'un;

14. Zaynetdinov Sadritdin;

15. Usmonov Miyanmuhsin;

16. Zokirov Timur;

17. Raxmatilla;

18. Ulug'xo'ja;

19. Fotiqxo'ja;

- 20.Shamsitdinxo'ja;
- 21.Aripjon afandi;
- 22.Kozimjon afandi;
- 23.Jurabay akaning ayoli;
- 24.Zokirov Timurning ayoli;
- 25.Xayriniso.

2006 yil avgust oyining oxirida bir grupp bo'lib, sobiq o'qituvchilar va sobiq o'quvchilar birgalikda Qo'rg'as chegarasidan o'tib, qadrdon va ona G'ulja shahriga qarab yo'l oldilar. Bundan oldin borganlarning ham, va 40-45 yildan buyon birinchi bor ketayotganlarning ham yuzlarida tabassum, qalblarida ona yurtini sog'inish tuyg'usi va sevinch alangasi yonmoqda edi.

Avtobus "Chipsixo'zo" bozorida to'xtamasdan Suydung tumani tomon burilib, tuman markaziga kirmasdan to'g'ri G'uljaga boradigan katta yo'l bilan ketdi. Atrofda yam-yashil libos bilan yasanib olgan qishloq dalalari, turli ziroat ekinlari yetilgan, bog'larda mevalar, yo'lning o'ng tomonida (yo'l yoqasida) anjir, shaftoli va boshqa mevalarni sotish maqsadida o'tirgan keksalar, yoshlar, qiz-juvonlar yo'lovchilarga ochiq chehra bilan qarardi.

Ko'p vaqt o'tgani yo'q, G'ulja shahri chegarasiga ham yetib kelindi. Yo'l chekkasidagi katta taxtaga uyg'ur va xitoy tillarida yozilgan "G'ulja shahri" so'zlari ko'zga tashlanib turardi. Avtobusdagi barcha yo'lovchilarning "Boyondoyga keldik" deb baqirgan xursandchilik va kulgi sadolari yangradi. Avtobus haydovchisi uyg'ur kishi bo'lib, yo'lovchilarga mehr to'la ko'zlari bilan qarab qo'yardi.

G'ulja butunlay o'zgarib ketgan, tanib bo'lmas darajada edi. Boyondoydan toki Uchdarvozagacha yo'lining ikki tomonida magazinlar, ko'p qavatli binolar shaharga chiroyli ko'rinish bergandi. Ko'chaning o'rtasiga ekilgan dekorativ daratlar, rangbarang gullar shaharni yanayam go'zal ko'rsatib

turardi. Bu hol yo'lovchilarga sevinch tuyg'ularini qo'zg'ab yubordi. G'uljaga 40-45 yilda birinchi bor kelayotganlarda kuchli ta'sirot uyg'otdi.

O'zbek "Namuna" maktabining 100 yillik muborak to'yiga kelgan sobiq o'qituvchilar bilan sobiq o'quvchilar Sharchi Madiris ko'chasida avtobusdan tushdilar. Ularni qarindosh-urug'lari, yor-birodarlari quchoq ochib kutib olishdi. Xurmat-ehtirom bilan uylariga olib ketishdi. Toshkentdan G'uljaga borgan mehmonlarning chehralarida tabassum, qalblari shodlikka to'la edi. O'z ona shahrini ko'rib, ich-ichidan quvonardi, do'stlari, birodarlari yonida miriqib dam olmoqda edi.

2006 yil 8 sentabrga sanoqli kunlar qolgan edi. Toshkentdan kelgan sobiq o'qituvchilar va o'quvchilar qarindosh-urug'larini borib ko'rish, vafot bo'lganlarning oilasiga borib fотиha o'qish bilan birga G'ulja shahrini tomosha qilish bilan vaqtlari chog' o'tmoqda edi.

O'zbek "Namuna" maktabida 8 sentabrga juda katta tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda edi. 100 yillik muborak to'yga G'ulja shahar boshlig'i Turg'un Pido, G'ulja shahar Xalq quriltoyi doimiy komitetining mudiri Tosh Ibrohim, shu doimiy komitetning sobiq mudiri Hasan Ibrohimlarning bevosita rahbarligida katta ishlar olib borilmoqda edi. Maktab mudiri Ahmatjon Iloxun va maktab partkomining raisi Shovkat Dovut boshchiligida o'qituvchilar jamoasi ertalab 8⁰⁰ dan kech soat 6⁰⁰ gacha tinim topmasdan ishlardi. Plakatlar, taklifnomalar yozish (minglab nusxada), maorif bo'limi bilan turli to'y tayyorgarligi ishlarini hal qilish va rejalashtirish, maktabning orqa hovlisiga sahna yasatish ishlarini qiyomiga keltirib bajarmoqda edilar. Har kuni ertalabdan boshlab, tanharakat o'qituvchilari o'quvchilarni 8 sentabrda bo'ladigan paradga mashq qildirish bilan mashg'ul edilar. Soat 14⁰⁰ dan 17⁰⁰ gacha yana mashq boshlanar edi.

Men, Ayupov Yaqubjon avgust oyining boshidan G'uljada bo'lganim uchun maktabning o'sha kunlardagi jo'shqin hayotini o'z ko'zim bilan

ko'rgandim. Maktab mudiri Ahmatjon, partkom raisi Shovkatjon olib borilayotgan tayyorgarlik ishlarini menga ko'rsatgan va gapirib ham bergandilar. Yangi binoning 3-qavatida tashkil qilingan mavzeini ham ko'rsatganlar. Bu qilinayotgan ishlardan ko'p ta'sirlangan edim.

8 sentabr – muborak kun ham yetib keldi. O'sha kuni ertalab soat 7⁰⁰ dan maktab darvozasining oldi kishilar bilan gavjum edi. G'uljadagi maktablarning vakillari, Urumchi va boshqa shaharlardan kelgan jamoat tashkilotlari vakillari, shu o'zbek "Namuna" maktabini bitirib, jamiyatda ishlayotgan sobiq o'quvchilar, Toshkentdan brogan sobiq o'qituvchi va o'quvchilar, shu bilan birga paradda qatnashadigan 5-o'rta maktab o'quvchilari bilan ko'cha to'la edi. Maktabning yangi binosi oldida o'ntacha stol-o'rindiqlar qo'yilgan bo'lib, bu yerda qalam ushlab o'tirgan o'qituvchilar maktab fondiga yordam beradigan kishilarning (tadbirkorlarning) uzatgan yordamlarini yozib o'tirardi. 100 dollardan boshlab, hattoki 5000-6000 dollargacha yordam berganlar soni juda ko'p bo'ldi. Bundan tashqari katta ramkalarga solingan tabiat manzarasi chizilgan qimmatbaho, suratlar, gilamlar, devorga osiladigan soatlar, turli sun'iy gullar maktabning 100 yillik muborak to'yiga sovg'a qilindi. Men ham shu qatordan qolmay elektr energiyasi bilan ishlaydigan ramkali katta soat sovg'a qildim.

Soat 8⁰⁰ da maktabning orqa hovlisiga yasalgan sahna oldidagi keng maydonga qo'yilgan o'rindiqlarga borib o'tirdik. Sahna bilan mehmonlar o'tirgan o'rindiqlar orasidagi 15 metr kenglik paraddan o'tadiganlar uchun qoldirilgan yo'l edi.

Tovush kuchaytiruvchi apparatura orqali qilingan taklifga ko'ra prezidiumga vakillar chiqib o'tirishdi. Majlisni maktab mudiri Ahmatjon Iloxun tantanali ravishda ochdi. Mudirning har bir gapirgan so'zini xitoychaga tarjima qilib turdilar. Tarjimon ayol kishi bo'lib, ko'pchilik mehmonlar uni xitoy ayoli bo'lsa kerak deb o'ylagandi. Majlisdan so'ng bilsak, u uyg'ur ayol o'qituvchisi ekan. Maktab mudiridan so'ng maktabning partkom raisi Shovkat Dovut

so'zлади. Oxirida G'ulja shahar boshlig'i Turg'on Pido gapirdi. Shundan keyin Toshkentdan borgan mehmonlar ona maktabiga hazrati navoiyning surati tushirib to'qilgan gilam sovg'a qildilar. Bundan tashqari maktab mudiriga, partkom raisiga, beshta shahar kattalariga zar to'n, qiyiqcha, do'ppilar kiydirildi.

Soat to'qqizda o'zbek "Namuna" maktabi o'qituvchilari va o'quvchilarining, san'atkor o'quvchilarning paradi boshlandi. Bu yerda bo'layotgan manzara katta bayram shodiyonasi edi. G'ulja shahri aholisidan ham tomoshabinlar qatnashgan edi. O'quvchilarning aytgan marsh-sadolari maxsus apparatura orqali G'ulja shahri osmonida yangramoqda edi. Biz Toshkentdan borgan o'qituvchilar va o'quvchilar maktabimizning muborak to'yi quvonchidan qalbimiz shodlikka to'lgan, dillarimiz yayrab, ko'nglimiz suv ichgan edi.

Majlisdan so'ng bayram qatnashchilarini yangi qurilgan maktab binosining ochilish marosimiga taklif qildilar. Qizil lentani shahar boshlig'i Turg'un Pido kesdi. Mehmonlarni yangi binoning 3-qavatida joylashgan muzeyga taklif qildilar. Muzeyda maktabning 100 yillik shonli tarixini ko'rsativchi qo'lyozmalar, maktabning tashkil topib, taraqqiyot yo'lida unga doim moddiy va ma'naviy yordam berib kelgan taraqqiyparvar zotlarning suratlari osib qo'yilgan edi. Hozirgi Shinjong uyg'ur avtonom rayoni rahbarlarining suratlari ham osilgandi. Bu kishilar maktab 100 yillik to'yining bo'lishini tasdiqlaganlar. Marhum Ahmatjon Qosimning portreti ham osilgan. Ahmatjon Qosim milliy inqilob davrida o'zbek "Namuna" maktabini tekshirib, "Namuna" maktabi ismi jismiga mos keladigan ajoyib o'rnak oladigan maktab ekan" degan ekan. Bu Ahmatjon Qosim janoblarining chin yurakdan aytilgan otashin so'zlari edi. Myzeyda maktabning taraqqiyot yo'li yorqin va aniq yoritib berilgan edi.

2006 yil 8 sentabr kuni maktabning 100 yillik to'yi ajoyib tantana bilan o'tdi. Bu to'y butun G'ulja xalqining shodiyona to'yiga aylandi.

9 sentabr barcha maktab o'qituvchilarining bayrami bo'lgani uchun maktab ma'muriyati barcha mehmonlarni o'qituvchilar bilan birga "Toshkubrik"dagi katta boqqa mehmonga taklif qildi. Toshkubrik mahallasi Ili daryosiga yaqin bo'lib, havosi toza, bog'bonchilik taraqqiy qilgan mahallalardan biri edi. 9-sentabr kuni Toshkentdan borgan barcha mehmonlarni G'uljadagi tadbirkor do'stlarimiz shiyponli Toshkubrik bog'iga yetkazib qo'ydilar. Katta sahna joylashgan shiypon yoniga chiroyli bezatilib qurilgan oshxona ham joylashgan ekan. O'zbek "Namuna" maktabi o'qituvchilari, Urumchidan kelgan o'zbek jamiyati vakillari, toshkentdan kelgan mehmonlar sahna oldiga doira shaklida qator qo'yilgan stollar yonidagi o'rindiqlarga kelib o'tirdilar. Stollarga G'uljaning shirin-shakar mevalari qo'yilgan edi. Sahnadan o'qituvchilar kuniga tayyorlangan bugungi bayram programmasi o'qib eshittirildi.

1. Maktab mudiri Ahmatjon va partkom raisi Shovkat o'qituvchilarni tabriklab qisqacha so'zladilar.
2. 5-o'rta maktab o'quvchilarining konserti namoyish qilindi.
3. Ziyofat boshlandi. Orqa-orqadan uzilmay kelayotgan qovurma va boshqa lazzatli taomlar barchaning ishtahasini ochib yubordi.

Toshkentdan borgan mehmonlar ayrim taomlarni, xususan qovurmani birinchi bor tatib ko'rmoqda edi. Sahnada konsert bo'lib turibdi. Usta yosh raqqosalar va ashulachilar o'z mahoratlarini qiyomiga keltirib ko'rsatmoqda edilar. Ziyofat soat to'rtgacha davom etdi. Shundan so'ng mehmonlar Ili daryosi soholiga saylga bordilar. O'qituvchilar kuni maroqli, bayram kayfiyatida va ko'ngilli o'tdi.

O'zbek "Namuna" maktabining 100 yillik to'yiga Toshkentdan va boshqa respublikalardan kelgan mehmonlar maktab hisobidan bir hafta bepul mehmonxona va 3 mahal restoran ovqati bilan ta'minlandilar.

Mehmonlar o'z yurtlariga qaytguncha ularni G'uljadagi yor-birodarlar, tadbirkor do'stlar, qarindosh-urug'lar bog'larga, daryo sohillariga olib borib,

dam oldirdilar. Bir umrga esda qoladigan bu mehmondo'stlik rishtasi hech qachon uzilmaydi, qalblarda yashaydi.

Xulosa

O'zbek muhojirligi tarixida Sharqiy Turkiston (Xitoy)ga o'zbek jamoalarining ko'chib o'tishi va bu o'lkalarda o'zbek (turkistonliklar) diasporasi shakllanishi o'ziga xos o'rin tutadi. Men magistrlik dissertatsiyamni yozish orqali quyidagicha yakuniy xulosalarga keldim.

1.G'arbiy Turkiston (hozirgi O'rta Osiyo) va Sharqiy Turkiston (hozirgi XXR ning Shing-jang muxtor rayoni) qadimdan o'zaro qizg'in madaniy hamda savdo-sotiq aloqalarida bo'lishgan ushbu hududlarda istiqomat qilgan o'zbek, qirg'iz, turkman, tojiklar bilan uyg'ur, dungan, saranchi xalqlari urf-odatlarini, maishiy turmush tarzida mushtarakliklar ko'p bo'lib islom dinining sun'iy mazxabiga aholi e'tiqod qilganligi ham ularni bir-biriga yaqinlashtirgan. Sharqiy turkistondan G'arbiy Turkistonga o'tadigan, 6 ta quruqlik yo'li va bitta suv yo'li (Ili va qora Irtish daryolari orqali) mavjud edi. G'arbiy Turkistonni manbalarda “Katta Buxoro”, Sharqiy Turkistonni “Kichik Buxoro”-deyishgan. Shuningdek, qoshg'arlik savdogarlarni “Kichik Buxoroliklar, O'rta Osiyolik savdogarlarni “Katta Buxoroliklar, deb atash XIX asr oxiriga qadar amal qilgan. Sharqiy Turkistonning Qashg'ar, G'ulja, Kuchar, Ko'rla, Yorkend kabi shaharlarida O'rta Osiyolik savdogarlarning mahallalari, karvonsaroylari, do'kon va omborlari bor edi. Biroq xonliklar davrida o'zbeklarning Sharqiy Turkistonga ko'chib o'tishi ommaviy tus olmay, ko'p hollarda yakka tartibda bo'lgan.

2.Sharqiy Turkistondagi o'zbek muhojirligining tarixiy ildizlari oldingi asarlarga borib tarqalib, xalq qo'zg'olonlari davrida, xonlarning soliq siyosati tufayli, ekin yerlarining salohiyati pasayib qashshoqlik xavfi solganda chegaraga yaqin Qashg'ar va G'ulja shaharlariga ko'chib o'tish kuzatiladi. Ayniqsa, Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasini mustamlaka qilish davrida va mustamlaka siyosati hukm surgan davrlarda (XIX asr 2-yarmi-XX asr boshlari) muhojirlik jarayoni kuchaygan. Qo'qon xoni bекliklaridan hisoblangan Yoqubbek 1860 yillarda noteng janglarda chor Rossiyasi

qo'shinlaridan yengilib, Sharqiy Turkistonga o'z sarbozlari bilan o'rdi. Uni Qo'qon xonligidan borib qolgan Ofoqxo'ja avlodlari qo'llab-quvvatladi va bu zaminda "Etti shahar davlati (1864-1877) ni tuzdi, ko'pincha quvg'inga uchraganlar uning davlatidan panoh topdi. Yohud, 1898 yil bahoridagi Dukchi Eshon (Madali eshon) boshchiligida Andijon qo'zg'oloni 1916 yil iyulidagi mardikorlikka olishga qarshi xalq isyoni yuz bergan davrlarda yuz minglab o'zbek va tojiklar Sharqiy Turkistondan boshpana topdilar. Bu davrda "Turkiston qochoqlari" to'lqini yuz berib, imperiya zo'ravonlik siyosatidan norozi bo'lganlar, ta'qib va tazyiqqa uchraganlar muhojirlar safiga borib qo'shilishdi.

3.Sharqiy Turkistonga o'zbek muhojirligi to'lqinlari sovet xokimiyati yillarida kuchaydi. Quloqlashtirish, jamoalashtirish, bosmachilik xarakati, xotin-qizlarni "ozod" qilishga qaratilgan "Hujum" kompaniyasi, diniy ulamolarni qatag'on ostiga olgan "xudosizlik uchun kurash" xarakati, 1937-1938 yillardagi qatag'onlar tufayli ming-minglab Turkistonlik muhojirlikka mahkum etildilar. Ular orasida dehqon va hunarmandlar, boy va kambag'allar, ulamo va ziyolilar, hukumat va davlat arboblari bor edi. Muhojirlarning ijtimoiy tarkibi xilma-xil bo'lib, ular xorijda yashab qolish uchun kurash maydoniga kirdilar.

4.Sharqiy Turkistonga muhojirlik jarayoni o'ta-murakkab, qorli-bo'ronli davrlarda yaydoq tog' so'qmoqlaridan o'tish orqali kechgan. Qishning sovuq, harakat qilinmasa qo'l-oyoqlar muzlab qoladigan holatda tunda yo'l bosishga to'g'ri kelgan. Chegaralar sovet harbiylari va qo'riqchi itlar tomonidan qattiq qo'riqlangan. Chegarachilar ta'qibiga uchrab ko'p kishilar yo'ldayoq hayot bilan vidolashgan, muhojirlar orasida ayollar va yosh bolalar ham ko'p sonli bo'lib , ularni doimo qo'rquv, vahima bosib turgan. Muhojirlar Andijon va O'sh orqali o'tadigan Ergashtom davoni orqali G'ulja hamda Qoshg'arga yetib borganlar. "Ko'ksuv", "Ikki kizak", "Simxon" postlarida qo'lgan olinganlar mol-mulki otulovi, oziq-ovqatlari (tut talqoni, qotirilgannon, quritilgan mevalar, turshak, jiyyda) tortib olingan, o'zlari kuzatuv punktlarga 7-10 kun qamab qo'yilib, so'ngra

ortga qaytarib yuborilgan. Harbiylar buyrug'iga bo'ysunmaganlar o'sha joyda otilgan. Ayrim hollarda “qirg'iz yo'lovchilari” GPU (siyosiy bosh boshqarma) xodimlariga ma'lum pul evaziga atayin muhojirlarni ro'baro qilishgan. O'z yurtidan quvilganlarni 1/3 qismiga vatangado bo'lib yashash ham nasib etmasdi.

5.Sharqiy Turkiston chegara hududlariga yaqin joylashgan shaharlari G'ulja, Qoshg'ar va Yorkendda zich o'rnashgan muhojir o'zbeklar soni yildan-yilga oshib borgan. Bu esa demografik, ish topish, tirikchilik qilish o'rnashib qolish muammolarini kuchaytirgan. Sharqiy Turkistonga XVIII-XIX asrlarda ko'chib o'tgan o'zbeklarning avlodlari yangi muhojirlar” ni o'z otalig'iga olgan. Asta-sekin o'zbeklar savdo- sotiq, dexqonchilik, chorvachilik, mudarrislik, kustar hunarmandchilik qilib, o'z turmushlarini yo'lga qo'yishgan.

6.Sharqiy Turkistonning o'nlab shahar va qishloqlarida istiqomat qilayotgan muhojir o'zbeklar asl vatanlari O'zbekistonga bir kun qaytib kelish umidi bilan kun ko'rardilar. Ular sovet hokimiyati “xudosiz jamiyati” tezda inqirozga yuz tutadi, uning asosi bo'sh qum ustiga qurilgan deb, o'ylashardi shu sababli ular jamoa- jamoa bo'lib yashashar, o'zbek tili va o'zbekona urf-odatlarini saqlab qolishga. Jon –jahxdlari bilan tirishganlar. Yakshanbalik o'zbek maktablari, jamoa o'zbek o'quv dargohlari milliy madaniy markazlar tashkil etishgan. Maqsad asl ajdordlar ildizidan uzoqlashmaslik edi. I.V. Stalin vafotidan so'ng (1878-1953) XX asr 50-yillarida Sharqiy Turkiston o'zbeklarining ancha qismi O'zbekistonga qaytarildi. Biroq, o'zbeklar shundan so'ng ham Qoshg'ar, G'ulja shaharlarida nisbatan ko'p sonli bo'lib yashab kelishardi.

7.Sharqiy Turkiston dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan olisda edi. Shuningdek, bir qator musulmon davlatlarida XX asr 2- yarmida (Turkiya Respublikasi, Saudiya Arabistoni) muhojir Turkistonliklarga imtiyozlar berilayotgandi. O'zbek oilalarida jahonning rivojlangan mamlakatlarida zamonaviy ilm olish istagining kuchayishi yashash uchun qulay joylarni izlash

maqsadi kabilar tufayli o'zbeklar turli mamlakatlarga ko'chib o'tdilar. Sharqiy Turkistondagi o'zbeklar soni kamayib, XX asrning so'nggi o'n yilligida ular 100 mingdan 13 mingga tushib qolganligi ma'lumotlarda keltiriladi. Sharqiy Turkiston o'zbeklaridan 30 dan ortiq oila Avstraliya qit'asiga ko'chib o'tishi bilan o'zbek muhojirlarining dunyo bo'ylab tarqalishidagi so'nggi bosqich nihoyasiga yetdi.

Istiqbolda men tadqiq qilgan mavzu bilan bog'liq ilmiy izlanishlar oldida turgan vazifalar to'g'risida taklif va mulohazalar bildirishni lozim topdim.

- Sharqiy Turkiston mintaqasida istiqomat qilgan o'zbek muhojirlarining mahalliy aholi hisoblangan uyg'ur, dunganlarga madaniy ta'sir masalalari va transformatsion jarayonlari tadqiqi qilish ahamiyatli bo'lardi.
- Muhojir o'zbeklarning Sharqiy Turkistonda tashkil etgan milliy –madaniy uyushmalari ma'naviy –ma'rifiy muassasalari, ularning hozirgi davrdagi ahvoli masalalari ham ilmiy izlanishi ob'ektiga tortilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.
- Sharqiy turkistondan O'zbekistonga turli davlatlarda qayta ko'chilgan yoxud ixtiyoriy ko'chib kelgan o'zbeklar haqidagi ilmiy maqolalar yetarli emas.
- Sharqiy Turkiston o'zbeklari o'tmishda va bugun internet sayтини ochib, bu yo'nalishdagi materiallar veb-saytga joylashtirilsa, o'zbek xalqi tarixini materiallar bilan boyitardi.

